

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**ТОШКЕНТ МОЛИЯ ИНСТИТУТИ
МАГИСТРАТУРА БЎЛИМИ**

Қўлёзма ҳуқуқида

УДК:336.1

БОЙҚУЛОВ ЗАРИФ АЧИЛОВИЧ

**ПЕНСИЯ ТИЗИМИНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ХОЗИРГИ
ЗАМОН МОДЕЛЛАРИ ВА УЛАРДАН ЎЗБЕКИСТОН
АМАЛИЁТИДА ФОЙДАЛАНИШ ИМКОНИАТЛАРИ**

Мутахасислик: 5A231301-«Пенсия иши»

Магистр академик даражасини олиш учун ёзилган

ДИССЕРТАЦИЯ

Илмий раҳбар:

и.ф.н, доц. И.Бакиева

ТОШКЕНТ-2016

Диссертация Тошкент молия институти “Пенсия иши” кафедрасида бажарилган.

Илмий раҳбар:

и.ф.н, доц. И.Бакиева

Ички тақризчи:

и.ф.н, доц. И.Бакиева

Ташқи тақризчи:

**Пенсия жағармаси Тошкент шаҳар
бошқармаси бошлиғи**

Д.Зуфаров

“Пенсия иши” кафедраси мудири:

и.ф.н.,доц. А.Ботиров

Магистратура бўлими бошлиғи

и.ф.н., доцент У.Ортиқов

MUNDARIJA		bet
	KIRISH.....	3
I BOB.	PENSIYA TA'MINOTI TIZIMINING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	8
1.1.	Pensiya ta'minoti tizimining mazmun-mohiyati va ўзига хос xususiyatlari.....	8
1.2.	Pensiya ta'minoti tizimining shakllanish tarixi va huquqiy asoslari.....	17
1.3.	Pensiya tizimi taraqqiyotining hozirgi zamon modellari va ularning xususiyatlari.....	29
	I bob bo'yicha xulosa	38
II BOB.	JA'HON AMALIYOTIDA PENSIYA TIZIMINI HOZIRGI ZAMON MODELLARI TAHLILI.....	40
2.1.	Yevropa va Rossiya Federatsiyasining hozirgi kundagi pensiya tizimlari tahlili.....	40
2.2.	Shimoliy va Janubiy Amerika pensiya tizimlarini tahlili.....	57
	II bob bo'yicha xulosa	65
III BOB	JA'HON AMALIYOTIDA MAVJUD PENSIYA TIZIMI MODELLARIDAN O'ZBEKISTON AMALIYOTIDA FOYDALANISH MASALALARI.....	68
3.1.	O'zbekiston amaliyotida pensiya tizimini tashkil etishning hozirgi zamon modellarining ustuvor jihatlari va xususiyatlari...	68
3.2.	O'zbekiston Respublikasi pensiya tizimini isloh qilishda jahon amaliyotida mavjud pensiya tizimi modellaridan foydalanish imkoniyatlari.....	86
	III bob bo'yicha xulosa.....	92
	XULOSA VA TAKLIFLAR.....	94
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	98

KIRISH

Mavzuning asoslanishi va uning dolzarbligi. Ma'lumki, pensiya fuqarolarga davlat yoki boshqa sub'ektlar tomonidan qonunda belgilangan hollarda muntazam va, odatda, umrbod to'lanadigan to'lovlar bo'lib, ijtimoiy ta'minotning muhim shakli hisoblanadi. Bugun ona sayyoramizda har soniyada ikki kishi o'zining oltmish yoshga to'lganini nishonlamoqda. Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT) ma'lumotlariga ko'ra, asrimiz o'rtalariga borib Erda 100 yoshdan oshganlar soni 3,2 million kishiga etar ekan. Vaholanki, ular 2014 yilda 300 ming kishidan oshmayotgan edi. Agar 1950 yillarda insonning o'rtacha umr ko'rishi 47 yil atrofida bo'lgan bo'lsa, 2010 yilda bu raqam 69 yoshga etdi. 2050 yilda bu ko'rsatkich 76 yoshni, 2100 yilda 85 yoshni tashkil etishi kutilmoqda.

Dunyoda sog'liqni saqlash sifati yaxshilangani, tibbiyotning jadal taraqqiy etayotgani, sanitar nazoratning takomillashayotgani, ta'limdan foydalanishning kengayayotgani, iqtisodiy farovonlik bois keksalar ulushi borgan sari ko'paymoqda. Uzoq umr ko'rish – insoniyat taraqqiyotining eng katta muvaffaqiyatlaridan biridir. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohatlarning kuchli taraflaridan biri uning ijtimoiy yo'naltirilganida. Mustaqillikning ilk yillaridan boshlab hukumatimiz islohatlarni asosan ijtimoiy sohaga qaratib, shu yo'ldan o'zgarmasdan bormoqda.

Prezidentimiz Islom Karimov Vazirlar Mahkamasi majlisidagi maruzasida ham uchbu chora – tadbirlarlarga muhim ustuvor yo'nalish sifatida o'z aksini topgan: "Ijtimoiy sohani rivojlantirish, aholining hayot darajasi va sifatini yanada oshirish bilan bog'liq masalalar bundan buyon ham e'tiborimiz markazida bo'lib qoladi. 2016-yilda ijtimoiy sohaga Davlat budjeti ja'mi xarajatlarining 59,1 foizi yoki otgan yilga nisbatan ko'proq mablag' ajratiladi. O'tkan 2015 yilda ish haqi, stipendiyalar va aynan pensiyalar 21,9 foizga oshirildi"¹.

¹ Karimov I. "2016 yil iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2016 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. \Xalq so'zi. 2016 yil. 18 yanvar.

O'zbekiston Respublikasida aholining yuqori turmush darajasini ta'minlash va kuchli ijtimoiy siyosat amalga oshirishga asoslangan demokratik ja'miyat qurish singari maqsadli vazifa qo'yilar ekan, bunda davlat maqsadli jamg'armalarining, asosan budjetdan tashqari pensiya jamg'armasining hozirgi va kelajakdagi rivojlanishining o'zgachaliklarin hisobga olmaslikning iloji yo'q. O'zbekistonda pensiya ta'minoti aholini ijtimoiy himoya qilish tizimsining asosiy tarkiblik qismlaridan biri, sababi u deyarli hamma fuqarolarning umirlik huquqlari bilan bog'luq ekan, fuqarolar mehnat qobiliyatini yo'qotganda shu tizim orqali ijtimoiy himoyalanaadi.

O'zbekiston dunyo aholisi muayyam o'suvchi davlatlar qatoriga kiradi. Respublika aholisining tarkibida yoshlar katta qismini egallashiga qaramasdan, keksalar soni bir tempda saqlanib qolmoqda. Mustaqillik yillarida aholining o'rtacha umir ko'rish darajasi yanada yaxshilanib, o'sish tendentsiyaga ega bo'lmoqda. Shu sharoyitta o'z navbatida, ijtimoiy sug'urta masalalarini taqqoslaganda itiborni ko'proq berib, shundan pensiya tizimiga bog'liq masalalar alohida ijtimoiy iqtisodiy ahamiyat kasb etmoqda. Yuqoridagi sabablarga ko'ra, davlatimizda pensiya tizimsina ijtimoiy siyosatning yuqori ko'rsatkichlaridan biri sifatida ko'rilmogda.

Respublikamizda istiqlool yillarida pensiya ta'minoti masalalarida ijobiy yutuqlarga erishilganligiga qaramasdan, byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi daromadlarini shakillantrish mehanizimlarini zamonaviy moliyaiy siyosat konsepsiyalari asosida takomillashtirib borish, ham jamg'arma mablag'laridan oqilona foydalanish va uni maqsadli sarflashning ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy asoslarini ilmiy-amaliy tadqiq etishni toqozo etmoqda. Shuningdek, o'zini amalda to'la oqlagan taraqqiyot modeliga hamohang ravishda mamlakat pensiya ta'minoti tizimining barqarorligini yanada yaxshilash borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biriga aylanib bormogda.

Rivojlangan davlatlar tajribasining ko'rsatishicha, pensiya tizimi faoliyatini yo'lga qo'yish va undan samarali foydalanish, ijtimoiy muammolarni hal qilish va

kishilarni pensiya yoshida kambag'allikdan himoyalash muhim o`rin egallaydi va ushbu tizimni rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borishni talab etadi.

Shu bilan birga bugungi kunda pensiya ta'minotidagi muammolar hatto rivojlangan davlatlarda ham ko`zga tashlanmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib, O'zbekiston pensiya ta'minoti tizimini rivojlantirish, o'z navbatida, taraqqiy etgan mamlakatlarning pensiya tizimi tajribalarini chuqur o'rganish, tadqiq etish va uning zamonaviy modellaridan O'zbekistonning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda tatbiq etish eng dolzarb masalalardandir. Bu esa dissertatsiya mavzusining dolzarbligini belgilaydi va uning tanlanishiga asos bo'ladi.

Tadqiqot ob'ekti va predmeti. Tadqiqot obyekti bo'lib, O'zbekiston Respublikasi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi faoliyati hisoblanadi. Pensiya tizimi rivojlanish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar yig'indisidan iborat.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Dissertatsiya ishining maqsadi: O'zbekiston Respublikasidagi pensiya tizimi rivojlanishiga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni hal etish belgilab olindi:

- O'zbekiston Respublikasidagi pensiya tizimi rivojlanishining nazariy asoslarini tadqiq qilish va unga xos xususiyatlarni aniqlash;
- pensiya tizimini rivojlantirish bo'yicha taraqqiy etgan mamlakatlar ilg'or tajriyasini o'rganish va uni mamlakatimiz iqtisodiyotida ijodiy qo'llash yuzasidan amaliy takliflar ishlab chiqish;
- respublikamizda joriy pensiya tizimini rivojlantirish bosqichlarini aniqlash;
- mamlakatimizda mavjud pensiya tizimining amal qilish mexanizmini tadqiq qilish;
- O'zbekistonda joriy pensiya tizimining yanada rivojlantirishning ustuvor yo`nalishlarini aniqlash;

– O`zbekistonda pensiya tizimini istiqbolli rivojlantirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Ilmiy yangiligi:

– O`zbekiston Respublikasidagi pensiya tizimini rivojlantirishga xos tendentsiyalar aniqlandi;

– O`zbekiston Respublikasi pensiya tizimini rivojlantirish jarayoni bosqichlarga ajratildi va ularga xos belgilar aniqlandi;

– rivojlangan mamlakatlarning pensiya tizimini rivojlantirish borasidagi ilg`or tajribalar umumlashtiriladi va ulardan respublikamiz amaliyotida ijodiy foydalanish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi;

– respublika pensiya tizimini yanada rivojlantirish ustuvor yo`nalishlarini aniqlandi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Tadqiqotda pensiya tizimini tashkil etishning hozirgi zamon modellari bog`liq masalalar ko`rib chiqilgan. Pensiya tizimi bo`yicha ilg`or xorij tajribalaridan O`zbekiston Respublikasi pensiya ta`minotini rivojlantirishda foydalanish imkoniyatlari o`rganilgan. Taraqqiy etgan mamlakatlarning pensiya tizimi bo`yicha ilg`or tajribalaridan ijodiy foydalanish O`zbekistonning pensiya ta`minoti tizimini yanada rivojlantirish imkonini beradi.

**Tadqiqot mavzusi bo`yicha adabiyotlar sharhi (tahlili).** Pensiya tizimini rivojlantirish yo`nalishlari xorijlik taniqli iqtisodchi olimlar Palmer, J.Stiglits, M.Boskina, G.Konrada, B.Fridmana, D.Lindemana, I.P.Devis ilmiy ishlarida tadqiq qilingan. Milliy pensiya tizimi, pensiya ta`minoti O`zbekistonlik olimlardan R.T.Dalimov, B.X.Umirzakov, N.M.Majidov va boshqalar tomondan o`rganilgan.

Tadqiqotda qo`llanilgan metodikaning tavsifi sifatida taqqoslash, guruhlash, statistik tahlil, monografik kuzatish metodik uslublaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati shundaki, undagi ayrim holatlar alohida taklif va mulohazalar darajasigacha tadqiq etilganki, ular O`zbekistonda pensiya tizimi taraqqiyotini ta`minlash, pensiya tizimini samarali

tashkil etish imkonini beradi. Dissertatsiya materiallaridan oliy o'quv yurtlarida pensiya ishi bo'yicha o'quv dasturlarini takomillashtirishda va o'qitishda foydalanish mumkin.

Ish tuzilmasining tavsifi ish kirish, uchta bob, etti paragraf, xulosa, takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat.

Tadqiqot ishining kirish qismida mavzuning dolzarbligi, tadqiqot ishining maqsadi va vazifalari, tadqiqot ishining amaliy-nazariy asoslari ko'rsatilgan, shuningdek, tadqiqot ishining amaliy ahamiyati va ilmiy yangiliklari ko'rsatilgan.

Tadqiqot ishining birinchi bobida pensiya taminoti tizimining mazmun mohiyati va xususiyatlari, pensiya tizimi taraqqiyotining hozirgi zamon modellari va ularning o'ziga xos xususiyatlari o'rganilgan.

Tadqiqot ishining ikkinchi bobida hozirgi kundagi jahon amaliyotida pensiya tizimini hozirgi zamon modellari tahlili tadqiq qilingan.

Tadqiqot ishining uchinchi bobida Jahon amaliyotida mavjud pensiya tizimi modellaridan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari ko'rsatilgan.

Xulosa va takliflar qismida ilmiy tadqiqot bo'yicha xulosalar keltirilgan va takliflar ishlab chiqilgan.

I BOB. PENSIYA TA'MINOTI TIZIMINING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

1.1. Pensiya ta'minoti tizimining mazmun-mohiyati va ўзига хос хусусиатлари

Pensiya fondi yoki jamg'armalari jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash vositasi hisoblanadi. Ijtimoiy barqarorlik esa jamiyat va davlat ijtimoiy muassasalari barqaror faoliyat yuritishi va barcha sohalarda rivojlanishini ta'minlovchi asosiy ichki omillardan biridir.

“Pensiya” iqtisodiy kategoriya sifatida pul mablag'larining maqsadli fondlarini shakllantirish va keksalik, kasallik hamda mehnat qobiliyatini yo'qotganda fondan foydalanish shakl va usullari yig'indisini o'z ichiga oluvchi iqtisodiy munosabatlar tizimini aks ettiradi. Mehnatga qobiliyatsizlar va qariyalar muammosi hamma vaqt mavjud bo'lib kelgan. Kishilik jamiyati tarixidan ma'lumki, mehnatga qobiliyatsizlar himoyasini qishloq oilalari va jamoalar ta'minlagan, bir qator kasblarda esa ishlab chiqarishdagi bahtsiz hodisa tufayli ishlovchining mehnat qobiliyati yo'qolgan sharoitda korporatsiyalar, cherkovlar ham ishchilarga moddiy yordam ko'rsatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, pensiya tizimi har bir mamlakatda shu mamlakat aholisini ijtimoiy himoya qilishning muhim komponenti hisoblanadi. Bu tizim faol mehnatga layoqatli aholi qatlami bilan o'zining qarilik yoshiga ko'ra boshqa ishlash salohiyatiga ega bo'lmagan, lekin oldin sug'urta badallarini to'lash orqali pensiya yoshidagilarni qo'llab-quvvatlagan aholi qatlami o'rtasidagi ijtimoiy shartnomaga asoslangan. Ana shunga qarab turib pensiya tizimining quyidagi funksiyalarini aniqlashimiz mumkin:

- qarilik vaqtida aholini qashshoqlikdan himoya qilish;
- mehnat faoliyatiga yakun yasalgandan so'ng kafolatlangan daromadni taqdim etish;

– inflatsiya natijasida aholi turmush darajasining kelgusida pasayishidan ana shu daromadni himoya qilish.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar va fuqarolarning majburiy va ixtiyoriy sug'urta badallari, davlatning moliyaviy ishtiroki asosida shakllanuvchi va ma'lum bir ijtimoiy tavakkalchilikka muvofiq sug'urtalangan aholi qatlamlariga sug'urta to'lovlarini amalga oshirish va ularni ijtimoiy himoyalash uchun mo'ljallangan mustaqil pul jamg'armalariga Pensiya jamg'armasi deyiladi.

Ma'lumki, aholining kam ta'minlangan qatlamlaridan biri pensionerlardir. Pensiya ta'minotining ijtimoiy nuqtai nazardan muhimligi uning hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlar fuqarolarining iqtisodiy manfaatlariga bevosita bog'liqligi bilan belgilanadi.

Ijtimoiy kafolatlarni moliyalashtirish va ziddiyatlarni hal qilishda hamda iqtisodiy muammolarni bartaraf etishda Pensiya Fondi muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti, eng avvalo, inson manfaatlarini ko'zlaydi. Butun islohotlar jarayonida rivojlangan mamlakatlarda aholining ijtimoiy muhofazasi va uni qo'llab-quvvatlash, inson huquqlari va erkinlik-larining qonunchilik hamda huquqiy asoslarini shakllantirish hamda amalga oshirish masalalariga juda katta ahamiyat berildi. Davlat pensiya ta'minotining moliyaviy muammolari esa ko'p jihatdan rivojlangan mamlakatlarning Pensiya fondi taraqqiyotiga bog'liq.

Mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to'lovlarini va boshqa to'lovlarni tayinlashni, moliyalashtirishni, hisobga olishni va ularning to'lanishi monitoringini olib borishni, ushbu maqsadlarga yo'naltiriladigan maqsadli moliyaviy resurslarni jamlashni, shuningdek tibbiy-mehnat ekspertizasi xizmatlari faoliyatini tashkil etishni amalga oshirish bo'yicha asosiy vazifalari, funksiyalari va vakolatlarini belgilaydi.

Mazkur jamg'arma o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, O'zbekiston

Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga, shuningdek o'zining Nizomiga amal qiladi.

Shuningdek budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi o'z ishlarini davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikda amalga oshiradi. Ushbu jamg'arma quyi tizimiga quyidagilarni kiritish mumkin²:

- jamg'armaning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi boshqarmalari;
- jamg'armaning tuman (shahar) bo'limlari;
- respublika tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspeksiyasi;
- bosh, tuman, tumanlararo, shahar va ixtisoslashtirilgan tibbiy-mehnat ekspertizasi xizmatlari kiradi.

Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining ijro etuvchi apparatining, uning hududiy boshqarmalari, tuman (shahar) bo'limlari, Respublika tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspeksiyasi, tibbiy-mehnat ekspertizasi xizmatlari ta'minoti respublika budjeti mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi. Jamg'arma hamda uning hududiy boshqarmalari va tuman (shahar) bo'limlari yuridik shaxs hisoblanadi, mustaqil balansga, banklarda hisob raqamlariga, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan muhrga, shuningdek tegishli muhr va shtamplarga ega bo'ladi.

Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq bo'lgan huquqiy munosabatlar yuzaga kelishi ko'pchilik hollarda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asos mavjud bo'lishi bilan bog'liq bo'ladi. Qonunchilik normasida muayyan toifadagi fuqaroga u yoki bu shakldagi ijtimoiy yordamning ko'rsatilishi nazarda tutilganligi bir tomondan yordam ko'rsatilishini talab qilish huquqini, ikkinchi tomonda esa (davlat organi, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari va boshqalar) bunday ijtimoiy yordam ko'rsatilishi yuzasidan majburiyatni paydo qiladi. Sub'ektiv

² Ш.Аллаяров, Д.Тошмухамедова “Давлат пенсия таъминоти”, ўқув қўлланма, Т.: “ИQTISOD-MOLIYA”, 2015, 48-56-б.

huquqlardan foydalanishga qaratilgan hatti-harakatlar ikkinchi tomonning faol majburiyatiga mos keladi.

Ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga oid huquqiy munosabatlarni yuz berishi ijtimoiy yordam olish huquqi paydo bo'lishiga olib keladigan yuridik faktlarga bog'liq bo'ladi.

Ijtimoiy yordam olish huquqi paydo bo'lishi uchun talab etiladigan yuridik faktlar turli-tumandir va ularning xususiyati ijtimoiy yordamning qaysi turidan foydalanish haqida, yordam kimga ko'rsatilayotganligiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Masalan, Muruvvat uyiga joylashtirish va davlat ta'minotiga olish tarzida ijtimoiy yordam ko'rsatilishi uchun bir nechta yuridik faktlar majmui mavjud bo'lishi (pensiya yoshiga yetganlik, moddiy jihatdan ta'minlashga majbur yaqin qarindoshlarning yo'qligi yoki ular moddiy yordam ko'rsatish imkoniyatga ega emasligi, byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tuman bo'limi yo'llanmasi mavjudligi) talab qilinadi.


Ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga oid huquqiy munosabatlarda plyuralistik nazariya to'laroq o'z ifodasini topadi, zeroki bunday yordam ko'rsatish ob'ekti, ya'ni huquqiy munosabat mavzusi turli-tumandir va bir necha holatda muayyan ashyolarni yordam tariqasida topshirishlikni nazarda tutsa, (masalan, yolg'iz nogironlarga eng zarur oziq-ovqat mahsulotlarni bepul berish), boshqa holda muayyan imtiyozlar berishlikni (masalan, kommunal xizmat, transport xizmati, tibbiy xizmat ko'rsatish va hokazo) belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 6-aprelda qabul qilgan "Aholi bandligini oshirish hamda mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-616-sonli Qaroriga ko'ra aholi daromadlari va farovonligi darajasini o'stirishning g'oyat muhim omili sifatida uning bandligini oshirish uchun zarur shart - sharoitlar yaratish, mehnat bozori infratuzilmasini yanada rivojlantirish, odamlarni ijtimoiy himoya qilish tizimini mustahkamlash, ushbu masalalarni hal etishda mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlarining rolini faollashtirish hamda

javobgarligini kuchaytirish, shuningdek ular faoliyatini tashkil qilishni takomillashtirish maqsadida ijtimoiy himoya organlari tizimi va ularning ish faoliyati takomillashtirildi.

Pensiya ta'minoti va ijtimoiy himoyalash yuzasidan huquqiy munosabatlarning ob'ekti bo'lib fuqarolarga bu sohada berilgan huquqlar va ularning amalga oshirilishi jarayonida yuz beruvchi qonun hujjatlari bilan tartibga solinishi lozim bo'lgan ijtimoiy munosabatlar sanaladi.

O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti tizimi qonunchilikka ko'ra ikki turga ajratiladi:



1.1-rasm. O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti tizimi³

Ijtimoiy himoyani amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarda turli- tuman shaxslar ishtirok etadilar, ularning maqsadi, ishtirok etish usullari va huquqiy maqomi bir-biridan jiddiy farq qiladi. Ijtimoiy himoyaga oid munosabat ishtirokchilarining bu munosabatlar chog'idagi o'ziga xos o'rni va yuridik

³ Ш.Аллаяров, Д.Тошмухамедова “Давлат пенсия таъминоти”, ўқув қўлланма, Т.: “ИQTISOD-MOLIYA”, 2015, 92 б.

maqomini to'g'ri belgilash qonunlarni to'g'ri tatbiq etilishiga, huquqbuzarlik holatlarining oldi olinishiga yordam beradi.

Ijtimoiy himoyaga oid munosabatlar ommaviy huquqiy munosabat bo'lgani tufayli bu munosabatlarda vakolatli davlat idoralari o'ziga hos sub'ekt sifatida ishtirok etadilar.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning kuchli tomonlaridan biri uning ijtimoiy yo'naltirilganligidir. Avval boshidan Hukumatimiz islohotlarni mehnatkashlar hisobidan emas, aholini xususan uning ehtiyojmand qismini ijtimoiy muxofaza qilish yo'lini tanlab, shu yo'ldan og'ishmay bormoqda.

Yurtboshimiz ijtimoiy muammolarni muvaffaqiyatli hal etish, ishonchli ijtimoiy kafolatlarni yaratish, mehnatning manfaatli bo'lishini kuchaytirish, islohotlarni o'tkazish uchun mustahkam ijtimoiy tayanch bo'ladi, ular muqarrarligining garovi bo'lib xizmat qiladi, deb ijtimoiy siyosatning ijtimoiy va iqtisodiy axamiyatini tushuntirib berdilar.

Oqilona ijtimoiy siyosat yuritish uchun esa mukammal ijtimoiy himoya tizimiga ega bo'lish kerak. Bu tizim respublikamizning o'ziga xos xususiyatlarini, ayniqsa, iqtisodiy ijtimoiy xususiyatlaridan kelib chiqib yaratilishi kerak. Ma'lumki, O'zbekiston o'ziga xos demografik xususiyatlariga ega. Bu ayniqsa Respublikada tug'ilishning yuqori ekanligida ko'rinadi. Aholi umumiy tarkibida mehnatga layoqatsiz aholi salmog'ining yuqori ekani Hukumat oldiga qo'shimcha majburiyatlar qo'yadi, ya'ni mehnatga layoqatli aholi ishlab chiqarishda qatnashadi, soliqlar to'laydi va ana shu soliqlar hisobiga ijtimoiy himoya uchun zarur mablag'lar shakllanadi. Demak, aholining bu tabaqasini nisbatan ko'proq bo'lishi davlatga ijtimoiy muammolarni nisbatan osonroq ochilishiga imkon beradi. Fuqarolarning ijtimoiy ta'minotga bo'lgan huquqlari asosiy qomusimiz bo'lgan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi tomonidan kafolatlangan. Jumladan, uning 39-moddasida - "Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo'qotganda, shuningdek boquvchisidan maxrum bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega. Pensiyalar,

nafaqalar, ijtimoiy yordam boshqa turlarining miqdori rasman belgilab qo'yilgan tirikchilik uchun zarur eng kam miqdordan oz bo'lishi mumkin emas", deyilgan.

O'zbekistonda mustaqillik yillarda jamiyatimiz hayotidagi yangilanish jarayonlari va islohotlarni rivojlantirish va chuqurlashtirishning mantiqiy davomi bo'lib, iqtisodiyotimizning salohiyati, barqarorligi va mutanosibligini mustahkamlash yo'lida, eng muhimi ijtimoiy himoyani kuchaytirishga va xalqimizning turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan ishlarimizda yangi va yuksak bosqich bo'ldi.

Respublikamizda qabul qilingan byudjet parametrlarida qayd etilganidek, joriy ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishni davom ettirish, ko'rsatilgan ijtimoiy xizmatlar sifatini yaxshilash bilan bir qatorda, keyingi yillarda byudjet siyosati kontseptsiyasida asosiy e'tibor byudjet xarajatlarining ijtimoiy yo'naltirilganligini yanada kuchaytirishga, aholini manzilli qo'llab quvvatlashga va byudjet tashkilotlarining ish haqilari, stipendiyalar, ijtimoiy to'lovlar miqdorini bosqichma-bosqich oshirish yuzasidan tadbirlarni amalga oshirishga qaratildi. Fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisob varaqlaridagi mablag'lardan davlat pensiyasiga qo'shimcha ravishda pul mablag'i bilan ta'minlanadi. Shaxsiy pensiya badallarni ajratishning majburiy va ixtiyoriy shakllari bo'lib, fuqarolarning pensiya ta'minotiga ajratgan badallari va shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisob varaqlaridagi mablag'lariga hisoblab qo'shilgan foizlar Xalq bankida ochilgan hisob varaqqa kelib tushadi hamda daromadlar hisobga olinadi.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning bosqichma-bosqichligi, izchilligi, bozor iqtisodiyotining ijtimoiy yo'naltirilganligi, uning siyosatdan ustuvorligi, kuchli ijtimoiy siyosat, qonun ustuvorligi va davlatning bosh islohotchi sifatidagi rolining mustahkamlanishi taraqqiyotning "O'zbek modeli" asosiy tamoyillari hisoblanadi. Mustaqillik yillarida shakllangan ijtimoiy himoya tizimining asosiy maqsadi aholi farovonligini yanada yaxshilash, daromadlari

jihatidan keskin tafovutlarga barxam berish, har bir fuqaroga munosib hayot darajasini ta'minlashga yordam berishdan iborat.

Ma'lumki, pensiya ta'minoti qat'iy bo'lmagan ekvivalentlik tamoyilida quriladi; mehant ulushi miqdori va ta'minot stajiga ta'minot badallarining muayyan bog'liqligi amal qiladi. Biroq xususiy ta'minotdan farq qilib, ijtimoiy ta'minotda ekvivalentlik tamoyili xavf-xatarlarni birlashtirish va jamoaviy birdamlik tamoyili bilan uyg'unlashadi⁴.

Pensiya ta'minoti jamg'armalari ishlovchilar va ish beruvchilarning birdamligi, o'zini-o'zi boshqarish va notijorat xo'jalik faoliyatini yuritish tamoyili asosida faoliyat ko'rsatadi.

Hozir amalda tarkib topgan tarkibiy tuzilishga ko'ra pensiya va nafaqalar tayinlash va to'lashga oid munosabatlarda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi qoshidagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, ijtimoiy himoyaning natura ko'rinishlari amalga oshirilishida esa O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi va ularning joylardagi organlari yetakchi o'rinni egallaydilar.

Fuqarolarga va oilalarga bevosita ijtimoiy yordamni amalga oshirilishida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari ham yuksak mavqega egadir.

Bulardan tashqari, ijtimoiy himoya bilan bog'liq munosabatlarda ta'minot oluvchi sub'ektlar sifatida fuqarolar (ayrim fuqaro yoki oila), nodavlat-notijorat tashkilotlari, korxona va tashkilotlar ham ishtirok etishlari mumkin. Pensiya ta'minotining majburiy va ixtiyoriy shakllari mavjud bo'lib, bu shakllar o'rtasidagi o'zaro munosabat turli mamlakatlar va ta'minotining rivojlanish bosqichlarida turlichadir.

Majburiy ijtimoiy ta'minot maqsadli budjetdan tashqari jamg'armalar orqali ta'minlanuvchi davlat ijtimoiy kafolatining alohida turli bo'lib, to'liq bo'lmagan o'zini-o'zi moliyalashtirish tamoyili asosida amalga oshiriladi. Davlat bu

⁴ Ш.Аллаяров, Д.Тошмухамедова “Давлат пенсия таъминоти”, ўқув қўлланма, Т.: “ИQTISOD-MOLIYA”, 2015, 98 б.

jamg'armalarning moliyaviy barqarorligi va majburiy ijtimoiy ta'minot dasturlarini amalgam oshirishning kafolati sifatida maydonga chiqadi. Majburiy pensiya ta'minotining ikki shakli mavjud; majburiy ijtimoiy ta'minot va majburiy professional ta'minot.

Umumiy majburiy ijtimoiy ta'minot mehnat shartnomasi bo'yicha ishlovchi shaxslarning barchasiga tatbiq etiladi. Majburiy professional ta'minot jarohat olish ehtimolligi yuqori bo'lgan ishlarda, xususan xavfli va noqulay menat sharoitlarida ishlovchi kishilarga tatbiq etiladi. Majburiy professional ta'minotda ta'minot badallari darajasi majburiy umumiy ta'minotga qaraganda yuqori bo'ladi.

Ixtiyoriy itimoiy ta'minot jamoaviy birdamlik va o'zaro yordam tamoyili asosida shakillanadi. Ta'minot jamg'armalarini boshqarishdagi haqqoniylik va oshkoralik, o'zini o'zi boshqarish tamoyili to'liq amalga oshirilish, ish beruvchilar va yollanma ishlovchilarning ijtimoiy sherikligi, ta'minotli to'lo'vlar va dasturlarning ta'minotlanuvchilarning daromad darajalariga bevosita bog'liqligi ixtiyoriy ta'minotning o'ziga hos xususiyati hisoblanadi. Majburiy ijtimoiy ta'minot tizimida davlat kafolatining yetarli darajada bo'lmasligi va ta'minlanuvchilar daromadining yuqoriligi ixtiyoriy ijtimoiy ta'minot jamg'armalarining majburiy ta'minotga qo'shimcha, to'ldiruvchi tarzida qarash imkonini beradi.

Ijtimoiy ta'minot tushunchasi aholini mehnat qilish qobilyatini va daromadini yo'qotishi bilan bog'liq ijtimoiy ta'minotlashning turli shakillarini qamrab oladi. Shuningdek bozor iqtisodiyoti sharoitida fuqorolarni ixtiyoriy xususiy ta'minotlash turi hisoblanuvchi, ijtimoiy xavf-xatardan xususiy ta'minotlashning turli shakillari amal qiladi. U jismoniy va yuridik shaxslarning badallari, xususiy ta'minot kompaniyalari, pensiya jamg'armalari hisobidan amalga oshiriladi. Bu yerda ta'minotlangan shaxsning individual badali miqdori bilan ta'minot dasturining uzviy o'zaro bog'liqligi, to'lo'v miqdorining ta'minlangan shaxsning individual to'lo'v qobilyatiga bog'liqligi, ijtimoiy xavf-xatarni individual baholashning bozor ekvivalentligi tamoyili amal qiladi. Ijtimoiy

xavf-xatardan ta'minotlashning xususiy bozorida asosan tijorat ta'minot kompaniyalari faoliyat yuritadi.

Davlat pensiya ta'minoti tizimini isloh qilish ijtimoiy xavf-xatarni, yani ijtimoiy ta'minotning o'zaro bog'langan asosiy mustaqil shakllarini ajratishni talab etadigan himoyaning funksional belgilarini hisobga olgan holda amalgam oshirilishi kerak. Bu nafaqa va pensiyalar to'lash uchun mablag'larni shakllantirish va sarflashdagi manzillilik, shuningdek, mehnat qobiliyatini yo'qotishni oldini olish uchun tashkiliy va moliyaviy shart-sharoit yaratish imkonini beradi.

Jamiyatni rivojlanishi bilan ijtimoiy ta'minotning o'rnini ham keskin o'zgarib boradi. Bunday holatni aholini ijtimoiy ta'minotlash qamrovining kengayishi, davlat pensiya ta'minoti tizimidan aholini ijtimoiy himoyalashning bozor tizimiga o'tish, taraqqiy etgan davlatlarda insonning muhim huquqlarini ijtimoiy himoyalashning kuchayishi, pensiya ta'minoti dasturining kengayishi, pensiya to'lo'vlari, nafaqalar miqdorining ortishi, ko'rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar sifatining yaxshilanishi va aholini real daromadlarini o'sishi bilan asoslash mumkin.

1.2. Pensiya ta'minoti tizimining shakllanish tarixi va huquqiy asoslari

Pensiya bu fuqorolarning qonunchilikda belgilangan keksalik yoshiga yetganda, nogironlik tufayli mehnat qobiliyatini yo'qotganda, shuningdek, boquvchisidan mahrum bo'lganida va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda qonunchilikda belgilangan shartlar va normalar asosida beriladigan xar oylik to'lo'vlar, pensiya ta'minoti esa ushbu to'lo'vlarni maxsus pensiya jamg'armalari mablag'lari hisobidan fuqorolarga to'lanishining ta'minlanishidir. Yani pensiya aholini iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning asosi hisoblanadi.

Pensiya tizimini paydo bo'lishi tarixi haqida gapirganda, Londonda 1375-yili tashkil etilgan Muqaddas Jeyms gildiyasi arxividan topilgan quyidagi hujjatga etibor qaratish lozim. Ushbu hujjatda shunday deyilgan; "Agar kimda kim

muhtojlikda bo'la turib qarilik chog'ida jamgarmaga ega bo'lmasa va o'ziga o'zi yordam ko'rsata olmasa, qardoshlikda 8 yil davomida bo'lib, o'z xizmatini yaxshi ado etgan bo'lsa, ushbu shaxs xar xafta toki umrining oxirigach yoki sharoiti yaxshilangunga qadar umumiy kassadan(jamoa g'aznasidan) 13 pensiya olishga xaqlidir".

1834 yilda Buyuk Britanyada hozirgi hozirgi pensiya xolati taminlangan desak yanglishmaymiz. O'sha vaqtida Pensiya oylik ish haqining uchdan ikki qismiga teng bo'lgan va 45 yillik mehnat staji mavjud aholiga 65 yoshdan berila boshlagan. 1859-yilga kelib pensiya yoshi 60 yoshga tushirildi va bundagi mehnat staji xolati 5 yilga qisqartirilib 40 yilni tashkil etgan.1908-yilda Buyuk Britanyada davlat baza pensiyalari joriy qilinib, uning xajmi xaftasiga 2-5 shilling bo'lgan va 70 yoshdan berilgan, 1925-yilda esa 65 yoshdan, 1960-yilda ayollarga 60 yoshdan davlat pensiyalari berila boshlagan⁵.

1925-yilda 65 yoshlik pensiya yoshidagi aholi uchun qayta taqsimlash pensiya tizimi qo'llanila boshlangan bo'lib, uning moliyaviy xolati kiritilib borilgan badalga tayangan, bunda 70 yoshdan yuqori bo'lgan aholi qatlamiga davlatning baziviy pensiyalari to'lo'vi davom etgan. 1946-yilda Milliy sug'urta dasturida boshlang'ich pensiya xajmi yolg'iz fuqorolar uchun xaftasiga 26 shilling va oilalilar uchun 42 shillingdan iborat pensiya berilgan.

1919-1921-yillarda badallar kiritish jarayonidagi soliq imtiyozlari ilk jamg'arish tizimiga juda katta turtki bo'lgan edi. Buyuk Britaniyadagi birinchi jamg'arish tizimi 1928-yilda Metropoliten Life of New York Amerika kompaniyasi tufayli vujudga kelgan edi. 1947 yildagi qo'shimch soliq imtiyozlari kompaniyalar uchun ma'muriy va asosiy ishchilarning pensiyalariga katta xajmdagi mablag'larni qo'yishga imkon berdi. Katta oylik maoshga ega bo'lgan ishchilar oyligining bir qismini to'g'ridan-to'g'ri chegirilishi va kelajakdagi oylik

⁵ Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. (Public Administration and Public Policy) 0th Edition . USA: Publisher: Auerbach Publications (August 21, 2008). – P. 35-36.

maoshi ko'tarilishi xolatidan ko'ra ish beruvchilarning pensiya ta'minotidagi barcha xarajatlarni to'lashlariga manfaatdor bo'lib qoldilar.

Buyuk Britanyadagi pensiya tizimini rivojlantirishning asosida quyidagi qabul qilingan qarorlar yotadi:

- 1952 yildagi sug'urta kompaniyalarining investitsiya daromadiga soliq solishning bekor qilinishi to'g'risidagi.

- 1956 yildagi annuitetning asosiy summasiga soliq solishning bekor qilinishi va soliq faqat qo'shimcha daromad olingandagin hisoblanishi to'g'risidagi.

- 1970 yildagi barcha turdagi sxemalar kodirovkasininng amalga oshirilishi to'g'risidagi qarorlardir.

AQSHdagi ilk pensiyalar xronologiyasi 1789-yilga borib taqaladi. Ushbu yilda Federal hukumati tomonidan grajdanlar urushi qatnashchilariga davlat pensiyalari berilib boshlagan.

1795 yilda Tomas Peyn o'zining “Agrar adolatlilik” tezizlarida Evropa millatiga va xali yosh Amerika respublikasiga ijtimoiy sug'urta dasturini taklif etadi. U meros olgan mulk soxiblari mulk xolatidan kelib chiqib 10 foiz miqdorini soliq tariqasida to'lashni va bu summa maxsus fondni moliyalashtirish uchun yo'naltirilishini, ushbu fond 21 yoshga to'lgan aholi qatlamlariga 15 funt sterling miqdorida va 50 yoshdan katta aholi qatlamlariga 10 funt sterling kambag'allik bo'yicha to'lo'vlarni amalga oshirishni ko'zda tutgan.

AQSHdagi pensiya tizimining rivojlanishi evalyutsion yo'l bilan, tarmoqlar, shtatlar, umumdavlat darajada xususiy sektorga jamg'arish tizimini tajriba sifatida qo'llash orqali rivojlanib borgan.

1857 yilda ilk marotaba New York politsiya ishchilari uchun hayotlarini va nogironlikni sug'urtalash uchun munitsipal pensiya fondi tashkil etilgan. Shu yili 1857 yilda “American Express” kompaniyasi tomonidan ilk marotaba xususiy pensiya rejasi tuziladi. Unga ko'ra kompaniyada 20 yillik mehnat stajiga ega

bo'lgan, 60 yoshli ishchilarga ish faoliyatini to'xtatganlik yuzasidan to'lo'vlar to'lanishi ma'lum qilindi.

Birinchi o'qituvchilar uchun pensiya ta'minoti New Yorkda 1894 yilda va New Jersi shtatida 1896 yilda joriy etilgan. 1898 yilda Ogayo shtatida AQSH tarixidagi ilk ko'rlarni pensiya bilan ta'minlash qonun loyixasi qabul qilindi.

1911 yilda Massachusetsda, 1914 yilda Arizonada shtatlar doirasida to'lo'vlarga asoslangan, barcha davlat idoralari ishchilarini qamrab olgan birinchi pensiya tizimi joriy qilindi. 1920 yilda federal ishchilari uchun nogironlarni pensiya bilan ta'minlovchi Fond tashkil qilindi.

1934 yilda AQSH prizidenti Ruzvelt tomonidan temir yo'l ishchilari uchun pensiya ta'minoti to'g'risida Farmon qabul qilindi. Bundan tashqari 1930 yildagi moliyaviy inqiroz 1935 yilda AQSH prizidenti Ruzvelt tomonidan imzolangan "Ijtimoiy sug'urta ta'minoti to'grisida" gi Farmon qabul qilininishini tezlashtirib yubordi. Ushbu farmonni joriy etilishining asosiy vazifasi sifatida pensiya to'lo'vlarini to'lash qo'yilgan. Bundan tashqari farmonning asosiy jihati quyidagi ikki asosiy dasturlarning qabul qiinishi bo'ldi⁶.

1. Ijtimoiy himoya dasturlarini saqlash uchun xar bir shtatlarga datatsiyalar ajratish;

2. Pensiya yoshidagi aholi qatlami uchun to'lo'v federal dasturi.

Ikkinchi dastur hozirda AQSHdagi ijtimoiy sug'urta dasturiga asos bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

1937 yilning yanvar oyidan boshlab AQSHdagi ijtimoiy sug'urta dasturi moliyalashtirishning qayta taqsimlash prinsipiga o'tdi. Bunda ishchilar uchun oylik ish haqidan ushlab qolish 1 foizga teng bo'lgan.

Ish beruvchilar uchun esa ishchilar soni 8 nafardan oshgan taqdirda 2 foizga teng bo'lgan. Hozirgi kunda umumiy ushlab qolish holati 15,3 foizni tashkil etib, uning og'irlik yuki ish beruvchi va ishchi o'rtasida teng taqsimlangan.

⁶ Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. (Public Administration and Public Policy) 0th Edition . USA: Publisher: Auerbach Publications (August 21, 2008). – P. 48.

1940 yildan boshlab qarilik, nogironlik va boquvchisini yo'qotganlik bo'yicha oylik pensiya to'lo'vlari joriy etildi.

1977 yilda dastur inqirozga yuz tutadi, shu sababli sh haqidan ushlab qolish stavkasi 6 foizdan hozirgi 7,65 foizga yani ish beuvchi va ishchi uchun alohida hisoblandi.

Bundan tashqari inqiroz pensiya yoshiga ham bevosita tasir ko'rsatdi. 1983-yildan boshlab pensiya yoshining uzayishi kuzatiladi va bunda erkak va ayollarning pensiya chiqish yoshi bir xilda 67 yosh deb belgilab qo'yildi.

1937 yilda AQSHda ilk byudjetdan tashqari "Qariyalar va ularni qaramog'idagilari uchun Trans fondi" tashkil etildi. Trast fondlarida kiritilgan to'lo'vlar hisobi, ularning indeksatsiyasi va to'lo'v jarayonlari bir yo'la amalga oshirilib borilgan. Trast fondlari davlat o'z ijtimoiy siyosatini olib boruvchi mexanizm hisoblanadi. 2000 yilga qadar G'aznachilikda to'rta maxsus hisoblar mavjud bo'lgan. Bular:

- qarilik va boquvchisini yo'qotganlik bo'yicha sug'urta Fondi;
- nogironlikni sug'urtalash;
- umumiy tibbiy sug'urtalash;
- nogironlikni tibbiy sug'urtalash hisoblaridir.

Quyida takidlaganimizdek ushbu fondlar yani Trast fondlari davlatning o'z ijtimoiy siyosatini olib boruvchi eng katta va eng ustuvor mehanizimi hisoblangan.

Ko'plab pensiya dasturlari ilk marotaba Buyuk Britaniya va AQSHda tashkil etilganiga qaramasdan, umumdavlat ijtimoiy sug'urta dasturi birinchi marta Germaniya davlatida paydo bo'lgan. Ya'ni "Kasallik va baxtsiz xodisalardan sug'urtalash to'g'risidagi" Qonunning qabul qilinishidan so'ng boshlangan. Bunda majburiy sug'urta prinsipi amalga oshirilib kelingan.

1881 yil 17 noyabrda Vilgelm I kansler Bismark taklifi bilan mehnatda band aholiga majburiy ijtimoiy ta'minotni joriy etadi.

1889 yildagi Qarilarni pensiya bilan ta'minlash to'g'risidagi Farmonning qabul qilinishi bilan Germaniya pensiya milliy dasturiga ega bo'lgan dunyodagi birinchi mamlakatga aylandi.

O'zbekistondagi pensiya ta'minoti tarixidan qariyalarga g'amxo'rlik O'rta Osiyo xalqlari hayotida eng asosiy jabxa bo'lganiga guvoh bo'lamiz. Ushbu fikrning dalilini VIII-XV asrlar va undan keyingi davrlarga to'g'ri keladigan diniy va tarixiy manbalardan olishimiz mumkin.

Ma'lumki, omadli xarbiy yurishlardan so'ng Amir Temur janglarda o'zini qaxramonligini ko'rsatgan xarbiy qo'mondonlarga umrini oxirigacha davlatning g'aznasidan mablag' bilan ta'minlagan, ularning oilasi va ota-onasini, shuningdek, jangda xalok bo'lgan jangchilarning oila a'zolarini moliyaviy jihatdan xar doim ta'minlab borganligi bizga tarixdan ma'lum.

Jamiyatda ijtimoi – iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi bilan XIX asr 1990 yillari va XX asr boshlarida mehnat qobilyatini yo'qotgan ishchilar va ularning oila a'zolariga hamda Toshkent, Jizzax, Qo'qon va Samamarqanddagi changalzor ustaxonalarida ishlagan ishchilarga yordam ko'rsatish maqsadida mustaqil ishchilar hamda batraklarning birlashmasi vujudga keldi. Bu kollektiv a'zolarining kasallik chog'ida, boquvchisini yo'qotganda yoki dafn xarajatlarini ajratishga mo'ljallangan moliaviy yordamning iptidoiy ko'rinishi vujudga keldi. Ushbu kassa mablag'lari qat'iy o'rnatilgan ishchilarning majburiy to'lo'vlardan iborat bo'lgan.

O'zbekiston 1991 yilgacha sobiq Ittifoq tarkibida bo'lganligini hisobga olib qarasak, aholini pensiya bilan ta'minlash milliy qonunchilikning evalyutsiyasi sobiq Ittifoq aholini pensiya bilan ta'minlash qonunchiligiga bog'liq bo'lganligini kuzatishimiz mumkin.

1917 yildagi oktyabr to'ntarilishidan so'ng Rossiyada aholini pensiya bilan ta'minlash boshlangan edi.

Ilk bora mamlakat miqiyosida sug'urta prinsipiga asoslangan pensiya ta'minoti butun ijtimoiy sug'urta sistemasi tushunchasi davlat ijtimoiy ta'minotiga

almashtirildi. Sug'urtani amalga oshiruvchi butun organlar likvidatsiya qilindi, sug'urta kompaniyalarida yig'ilgan mablag'lar davlat byudjetiga o'tkazildi.

Sug'urta mehanizimining yo'q qilinish jarayoni 1921 yilgacha davom etdi. Keyin asta sekinlik bilan sug'urta agentligi paydo bo'la boshladi. Bu jarayon 1933 yilda to'xtatilib, butun sug'urta kompaniyalarining birlashish operatsiyasi amalga oshirila boshlandi.

Pensiya tizimi 1956 yilda "Davlat pensiyasi to'g'risidagi"gi Qonunning qabul qilinishi bilan qonuniy shaklni o'zida kasb etdi.

1964 yildagina kolxoz ishchilarining inobatga olgan "Kolxoz a'zolari uchun pensiya to'lo'vlar to'g'risida" gi qonun qabul qilindi.

"Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonunning 6 moddasida "Pensiya to'lovi davlat tomonidan yillik sobiq Ittifoq davlat byudjetdan ajratiladigan mablag' hisobidan amalga oshiriladi" deyilgan va shu davrdan boshlab korxona va mehnat kollektivi, shu jumladan, kasaba uyushmalari ham ijtimoiy sug'urta fondidan foydalanishga xaqqi yo'q edi, biroq umumiy xajmi ish haqi fondining 40 foiziga teng bo'lgan sug'urta to'lo'vlari ko'rinishidagi pul mablag'larini to'lashga majbur edilar. Agar 1956 yilda mamlakatda qonun bo'yicha pensiya o'rtacha ish haqining 65 foizini tashkil etgan bo'lsa, Ittifoqning parchalanish davriga kelib ushbu ko'rsatkich 43 foiz bo'lgan. 1990 yilgacha (deyarli 60 yil) pensiya ta'minoti tizimida o'zgarish kuzatilmadi. 1956 yilda belgilangan ayollar uchun majburiy staj 20 yil va erkaklar uchun 25 yil hozirda bir qator MDH mamlakatlarida amalda. Shu tariqa pensiya ta'minoti bilan birga ijtimoiy sug'urta mamlakat daromadlarini qayta taqsimlovchi asosiy instrumentga aylandi va shu davrdan boshlab o'zining moliyaviy mustaqilligini yo'qotib, davlat budjetiga qo'shiladi.

1991 yilda O'zbekiston mustaqil bo'lishi bilan mamlakatimiz iqtisodiy islohotlarining maqsadi kuchli ijtimoiy siyosatga asoslangan bozor iqtisodiyotini shakllantirish bo'ldi. Ijtimoiy himoya va pensiya ta'minotiga qaratilgan davlat Mablag'laridan yanada samarali foydalanish maqsadida 1993 yil 4 avgustda sobiq

Ittifoq Pensiya Fondining O'zbek bo'limi bazasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshida ijtimoiy sug'urta fondi tashkil etildi. 1993-yil 3-sentyabrda esa "Aholining pensiya ta'minoti to'g'risida" gi birinchi qonun qabul qilindi. Shu tariqa birinchi tashkiliy, qonuniy va moliyaviy asos solindi va bu o'z navbatida o'sha davrda davlatdagi 2,9 million pensioner va 400 ming nogironlarning 4 stabil pensiya va to'lovlarni olish imkonini berdi. Pensiya bir qator iqtisodchi olimlar tomonidan ijtimoiy himoyaning ichida ko'rib chiqilgan. Masalan: M. Babich ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy ta'minot ko'rinishlarining umumiy xolati ijtimoiy himoyani beradi va u tibbiy yordam, kasallik, ishsizlik va qarilik bo'yicha nafaqalar, oila nafaqalari, nogironlik va boquvchisini yo'qotganlik bo'yicha nafaqalar ko'rinishida bo'lishini izoxlagan.

Z.Bodie pensiyani yaxlit iqtisodiy kategoriya sifatida qarab chiqib, pensiya ishchining muayyan moliyaviy muassasa bilan ish faoliyati davomidagi daromadlar va turmush darajasini saqlab qolish maqsadida tuzilgan uzoq muddatli shartnoma sifatida qaragan.

Mustaqillikka erishgan kundan boshlab, respublikamizda alohida ijtimoiy ta'minot tizimini ishlab chiqishga kirishildi. O'zbekiston respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlari Prezidentimiz tomonidan belgilab berildi.

Mustaqillik munosabati bilan Respublikamizda ijtimoiy himoya va ijtimoiy ta'minotning mazmun mohiyati tubdan o'zgardi. Ijtimoiy himoya davlatimizning ichki siyosatining asosiy tamoyillaridan biri qilib belgilandi, chunki bozor munosabatlariga o'tish borasida aholining kam ta'minlangan, muhtoj qatlamini ijtimoiy qiyinchiliklardan ishonchli tarzda himoyalash va kafolatlash zaruriyati vujudga kelgan edi.

Quyidagi jadvalga e'tibor qaratadigan bo'lsak, rivojlangan mamlakatlarning pensiya sug'urtasi mamlakat yalpi ichki mahsulotdagi ulushini ko'ramiz.

**Dunyo mamlakatlarida pensiya sug'urtasi tizimi tarkibi va uning
mamlakat yalpi ichki mahsulotdagi ulushi⁷**

Mamlakat	Pensiya sug'urtasi tizimi tarkibi (%)			Pensiya sug'urtasi tizimining mamlakat yalpi ichki mahsulotdagi ulushi (%)		
	Davlat pensiya sug'urtasi tizimi	Xususiy pensiya sug'urtasi tizimi	Jami	Davlat pensiya sug'urtasi tizimi	Xususiy pensiya sug'urtasi tizimi	Jami
AQSH	68	32	100	6,9	3,3	10,2
Buyuk Britaniya	58	42	100	6,3	4,6	10,9
Germaniya	80	20	100	10,6	2,6	13,2
Italiya	86	14	100	9,5	1,5	11,0
Fransiya	91	9	100	10,0	1,0	11,0
Gollandiya	84	16	100	8,2	1,6	9,8
Avstraliya	63	37	100	4,0	2,3	6,3
O'zbekiston	100	-	100	8,5	-	8,5

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, ko'pgina rivojlangan AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya mamlakatlarida Pensiya sug'urtasi tarkibini ichida xussiy pensiya sug'urtasi kattagina o'rin tutadi.

Aholining davlat himoyasiga muhtoj bo'lgan qatlami bolali oilalar, qariyalar, nogironlar, boquvchisidan mahrum bo'lganlarning ahvoli bozor munosabatlariga o'tish davrida narx-navoning oshishi, pulning qadirsizlanishi bilan qiyinlashib ijtimoiy notengsizlik yuzaga kelishi xavf xatari sezila boshladi. Bu borada ijtimoiy adolat qoidalarini ro'yobga chiqarish, aholining eng nochor qatlamlari keksalar, nogironlar, yetim-yesirlar, ko'p bolali oilalar, o'quvchi yoshlarning davlat tomonidan ijtimoiy muhofazaga bo'lgan kafolati huquqlarini ta'minlash zaruriyati paydo bo'ldi.

Mustaqillik davridan boshlab erishilgan ulkan yutuqlarimizdan biri ijtimoiy yo'naltirilgan bozor munosabatlarning qaror topayotganligi, umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan yangicha demokratik tuzum, fuqorolik jamiyati rivojlanib borayotganligidir.

⁷ www.pensionfundsonline.co.uk.


Ilgari sobiq Ittifoq qonunida belgilangan ijtimoiy pensiyalar o'rniga ish staji yo'q fuqorolarga Vazirlar Mahkamasining 1994 yi 24 iyundagi 319-sonli qaroriga asosan yolg'iz qariyalar, nogironlar va bolalikdan nogironlarga nafaqalar belgilandi va tartibga solinadi.

Iqtisodiy islohotlarning rivojlanishi, yangicha mulkchilik shakillari va erkin xo'jalik munosabatlarining vujudga kelishi yo'sinida ijtimoiy sug'urta Jamg'armasiga sug'urta mablag'larining yig'ish, to'lo'vlarning to'liqligi va o'z vaqtida amalga oshirilishi, pul mablag'larini to'g'ri va samarali ishlatilishini nazorat qilish borasidagi asosiy vazifalarni bajarish borgan sari qiyinlashib bordi. Pensiya va to'lo'vlarni to'lash uchun mablag'larning yetishmasligi sezila boshlandi. Natijada 1996 yil 27 dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta'minot vazirligi qoshida Pensiya Jamg'armasini tashki etish to'g'risida"gi 459- sonli qarori qabul qilindi.

Pensiya ta'minoti uchun majburiy to'lo'vlarning kelib tushishi va pensiya hamda to'lo'vlarning o'z vaqtida ishlatilishi O'zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta'minot vazirligiga yuklatildi, Ijtimoiy ta'minot vaziri bir vaqtning o'zida Pensiya Jamg'armasining Raisi vazifasini bajarishni belgilandi. Bu esa O'zbekiston Respublikasida davlat pensiya ta'minotining tashkiliy tuzilishi va ishlash tamoyillarini tubdan o'zgarishiga sabab bo'lib ish samaradorligiga va hisobotlar ishonchsizligini oshirdi.

2001 yil 1 yanvardan O'zbekiston Respublikasi budjetdan tashqari Pensiya Jamg'armasiga qaytadan tashkil etildi. Ushbu vaqtdan boshlab Pensiya Jamg'armasining mablag'larining to'liq to'planishi va budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga kelib tushishi bo'yicha nazorat vazifalari O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasiga budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining boshqarish, nafaqa to'lo'vlarini tushum va xarajatlarining yillik va chorak prognoz balanslarini shakillantirish, aholiga nafaqa va to'lo'vlarni o'z vaqtida hisoblash va amalga oshirish esa qaytadan tashkil etilgan Mehnat va aholini ijtimoiy himoya qilish vazirligi zimmasiga yuklatildi.

Hozirgi kunda Davlat Tijorat Xalq bankining fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotidagi qoldiq mablag'i 1500.0 mln.dan oshib ketdi. Bundan tashqari 1.2-rasmga e'tibor qaratadigan bo'lsak, hozirgi kundagi mablag' qoldig'i 2005-yilga nisbatan nisbatan juda yuqori ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bu hodisani 1.3-rasmdan ko'rishimiz mumkin. Bu mablag'larning asosiy qismi nafaqat majburiy badallar, balki fuqorolarning ixtiyoriy mablag'lari ham mavjuddir.




1.2-Davlat Tijorat Xalq bankining fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotidagi qoldiq mablag'i⁸, mlrd.so'm

2004 yilda qabul qilingan “Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida”gi Qonunga binoan, jismoniy shaxslarning qonun hujjatlariga muvofiq hisoblab chiqarilgan daromad solig'ining tegishli kamaytirilgan summasi hisobiga jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallarini ish beruvchi xar oyda to'lab boradi. Shuningdek, ish beruvchiga o'zining mablag'lari hisobidan o'z xodimlarining shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga qo'shimcha badallar to'lash huquqi beriladi.

Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'idagi mablag'larga xar yili foizlar qo'shiladi. Shu asosda pensiya yoshiga yetgan fuqaroga pensiya tayinlangan paytda u ushbu jamg'arib borilgan mablag'ni olish imkoniga ega

⁸ www.stat.uz.

bo'ladi. Mamlakatimiz fuqarolari hamda respublikamizda doimiy yashayotgan chet elliklar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar qo'shimcha pensiya ta'minotiga xaqlidir.



1.3-rasm. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotining mablag'lar qoldig'i⁹, (mlrd.so'm)

Davlat jamg'arib boriladigan pensiya tizimida ishtirok etuvchi fuqarolarga shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarida jamg'arilgan mablag'larining shaklanishi hamda ularga foizlar qo'shib to'lanishini kafolatlaydi. Tizim ishtirokchilari o'z hisobvaraqi to'g'risida istagan vaqtida bepul axborot olishga xaqli. Jamg'arilgan mablag'dan ular faqat pensiya olish huquqi paydo bo'lgandagina foydalanishlari mumkin. Jamg'arilgan mablag' va ularga daromad sifatida qo'shilgan foizlar hamda Xalq banki ularning aylanmasidan olgan daromadi soliqqa va majburiy to'lovlarga tortilmaydi. Hozirgi kungacha bu tizim ishtirokchilari soni 5 million nafardan oshgan.

Prezidentimizning 2005 yilning 28 iyunida qabul qilingan "Jamg'arib boriladigan pensiya tizimini takomillashtirish va texnika bilan jixozlash borasidagi

⁹ www.stat.uz.

qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori tizimning barqaror ishlashini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Chunki ushbu hujjat asosida ish beruvchi korxona va tashkilotlar tomonidan pensiya badallarining to'liq va o'z vaqtida o'tkazilishi ustidan nazorat kuchaytirildi. Bu vazifa soliq idoralariga yuklatilgan. Ish beruvchi korxonalar fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga hisoblangan badal summalarini Xalq bankida ochilgan maxsus tranzit hisob raqamiga o'tkazib borish bilan birga, tizim ishtirokchilariga oid boshqa zarur ma'lumotlar elektron bazasi shakllantirildi.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimida majburiy tartibda ishtirok etuvchi fuqarolarni hisobga olish ish beruvchining talabnomasiga asosan mazkur fuqarolarning asosiy ish joylardagi Xalq banki filialida amalga oshiriladi. Jismoniy shaxslarning qonun hujjatlariga muvofiq hisoblab chiqilgan daromad solig'ining tegishliligidan kamaytirilgan summasi hisobiga jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallarini ish beruvchi xar oyga to'lab boradi. JBPT mablag'lari Xalq bankida shaxsiy jamg'arilib boriladigan pensiya hisobvaraqlarida mablag'larni jamlash bilan shakllantiriladi.

Tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari va tibbiy-maslahat komissiyalari faoliyatini xalqaaro tajribadankelib chiqqan holda yanada takomillashtirish, bunda 16 yoshgacha va undan yuqori yoshgacha va undan yuqori yoshdagi fuqorolarning nogironlik holatini belgilash tamoyillarini qayta ko'rib chiqish va amalga oshirish tartibini muvofiqlashtirish masalalari takomillashtirish kerak.

1.3. Pensiya tizimi taraqqiyotining hozirgi zamon modellari va ularning xususiyatlari

Hozirgi kunda jahonda pensiya ta'minoti tizimining hozirgi zamon modellari quyidagilardir¹⁰:

¹⁰ Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. (Public Administration and Public Policy) 0th Edition . USA: Publisher: Auerbach Publications (August 21, 2008). – P. 38-49.

1. Davlat pensiya ta'minoti tizimlari.

1.1. Taqsimot prinsipiga asoslangan klassik tizim.

1.2. Jamg'arib borish prinsipiga asoslangan tizim.

2. Sug'urta mablag'larini jamg'arib borish printsiplariga asoslangan tizim (Nodavlat pensiya ta'minoti tizimi ham deyiladi.)

2.1. Korparativ pensiya ta'minoti tizimi.

2.2. Individual-ixtiyoriylik asosidagi pensiya tizimlari.

3. Taqsimlash printsiplariga asoslangan umummilliy pensiya tizimi.

Ushbu tizim "Avlodlar birdamligi" pensiya tizimi hisoblanib, bunda avlodlar, ish beruvchilar va ishlovchilar, yuqori va past oylik maosh oluvchilar majburiy ishtirok etadilar.

Birdamlik pensiya tizimi – ishlovchilarning ish haqi jamg'armasidan pensiya jamg'armasiga soliq to'lash va pensiya jamg'armasidan pensionerlarga nafaqalar to'lashga asoslangan. Individdning pensiya nafaqasi miqdori ish haqi va mehnat stajiga bog'liq bo'ladi. Shuningdek, ish haqi va pensiya miqdori uzviy bog'liq emas, boshqacha so'z bilan aytganda ushbu tizim badallar miqdori bilan bog'lanmagan nafaqalarni nazarda tutadi.

Birdamlik pensiya tizimi davlat tizimi xarakteriga ega bo'lganligi uchun, uni korxona va tarmoq darajasida tashkil etish imkoni yo'q. ko'pgina rivojlangan davlatlarda pensionerlarning normal yashashi uchun shart-sharoitlarning yaratilishi ga'rb demokratiyasining sotsial sohadagi asosiy yutuqlaridan biri sifatida qaraladi.

Birdamlik pensiya tizimini asosiy xususiyati – unda kuchli qayta taqsimlash elementlari mavjud bo'lgan holda pensionerlar o'rtasidagi kambag'allik va tabaqalashuv darajasini sezilarli qisqartiradi. Birdamlik tizimi amal qilishining dastlabki davrlarida nafaqalarning past miqdori nisbat kam sonli kishilarni to'lo'v bilan ta'minlash uchun yetarli bo'lgan, ammo tizimning rivojlanib borishi bilan ish haqi jamg'armasidan to'lanadigan soliqlarni ortib borishi tendensiyasi vujudga keldi. Birdamli pensiya tizimin amal qilish tenglashtirish elementlari, ijtimoiy qaramlikni ortishi, investitsion xohishning susayishi kabi bir qator salbiy

oqibatlarni keltirib chiqaradi. Masalan, AQSHda aholining keksayishi va pensiya ta'minoti muammolari ustida izlanish olib brogan amerikalik tadqiqotchi S. Pelerson AQSHda shaxsiy jamg'armalarning YAIMdagi ulushi 60-70 yillarda 8 % da 90-yillarda 5 % gacha pasayganligini e'tirof etgan. Bugungi kunda AQSHda 1946-1964-yillarda tug'ilgan soliq to'lo'vchilar keksa aholining nisbatan uncha katta bo'lmagan qismini tashkil qiladi. Aholining mazkur qismi jamg'arishga kam moyilligi bilan ajralib turadi. Taqsimlovchi tizimni tahlil etish, davlat pensiya tizimining monopol holati pensionerlarga tanlov imkoniyatini bermagan holda pensiya miqdori va to'lash shartlari borasida harakat qilish imkonini beradi.

Jamg'aruvchi pensiya tizimida pensiya badallari moliyaviy aktivlarga ega bo'lish uchun foydalaniladi. Ishlovchilarni kesalikda pensiyani moliyalashtirish uchun mo'ljallangan bunday aktivlarning umumiy miqdori qo'yilgan kapitaldan devident yoki aktiv moliyaviy mablag'lardan foiz shaklidagi daromad olish imkonini beradi va har yili tushadigan qo'shimcha pensiya badallarini investitsiya qilish maqsadida foydalanilgani tufayli vaqt o'tishi bilan ortib boradi. Ishlovchi pensiya yoshiga yetganda, jamg'arilgan aktivlar zahiradi doimiy pensiya to'lo'vlarini to'lash uchun foydalaniladi. Jamg'aruvchi pensiya tizimi sharoitida pensiya badallari stavkalarini hisoblash birdamlik tizimidagi qaraganda murakkab holatni keltirib chiqaradi. Badallar stavkasini aktivlarining qaytish me'yorlari, ularni jamg'arish davomiyligi va davriga, ya'ni jismoniy shaxsning ishlash davri va davomiyligiga bog'liq boladi.

Turli mamlakatlarda shaxsiy ixtiyoriy pensiya rejalari amal qiladi. Ular to'la moliyalashtirish asosida faoliyat ko'rsatadi va aniq belgilangan badallarni nazarda tutadi. Ishlovchilar va pensioneral o'zlarning jamg'armalari bo'yicha investitsion risklarni o'z zimmalriga olishadi.

Respublikamizda pensiya ta'minotini davlat tomonidan tartibga solishning dastlabki bosqichi "Fuqorolarning davlat pensiya ta'minot to'g'risida" gi qonunining qabul qilinishi bilan xarakterlanadi. Ushbu qonun va hukumat tomonidan qabul qilingan boshqa me'yoriy hujjatlar amal qilayotgan pensiya

ta'minoti tizimining huquqiy asosini tashkil etadi. Bu qonunining mohiyatini pensionerlarning jamiyatda tutgan o'rnini, ularni ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti sharoitida huquqiy himoyalash pensiya miqdorini bevosita mehnat stajining davomiyligi va ish haqi miqdoriga bog'liqlikni ta'minlash tashkil etadi.

Aholini ijtimoiy himoya qilish bo'yicha choralarinig tarkibida davlat pensiyalari muhim o'rin egallaydi. Pensiya ta'minotining ijtimoiy ahamiyati shu bilan aniqlanadiki, hozirgi paytda O'zbekistondagi ko'plab qariyalar, nogironlar va ularning oila a'zolari, boquvchisini yo'qotganlarning hayotiy muhim manfaatlariga o'z ta'sirini o'tkazadi. Bozor munosabatlariga o'tish munosabati bilan davlat pensiya tizimi murakkab ahvolga tushib qoldi. Pensionerlarning daromadlari bo'yicha pensiyaning o'rtacha miqdori hayotning yashash darajasidan ortda qolmoqda. Qarilik bo'yicha pensiyaning o'rtacha miqdori hayotning yashash darajasidan ortda qolmoqda. Qarilik bo'yicha pensiyaning o'rtacha miqdori hayotning yashash darajasidan ancha past. Shu munosabat bilan iqtisodiy islohatlarni amalgam oshirish sharoitida fuqorolarning pensiya ta'minoti bo'yicha huquqlarini davlat tomonidan kafoatlanishini kuchaytirish va pensiya tizimini barqaror rivojlantirish shart-sharoitlarini yaratish maqsadida mamlakatda pensiya tizimi isloh qilinmoqda.

Sug'urta mablag'larini jamg'arib borish printsiplariga asoslangan tizim.

Nazariy malumotlarga qaralganda pensiya jamg'armalarininig mohiyatini belgilashda uch yondashuv ko'rsatiladi, ya'ni uning ijtimoiy ta'minot uchun mo'ljallangan mablag'lar ekanligi, mustaqil moliya kredit tashkiloti, ijtimoiy yo'nalishdagi byudjetdan tashqari jamg'arma ekanligi e'tirof etilgan. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti - fuqarolarni shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag'lardan davlat pensiyasiga qo'shimcha ravishda pul mablag'lari bilan ta'minlashdir.

Bu borada yurtimizda barcha huquqiy shart-sharoit yaratildi. Jumladan, 2004 yil 2 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 702-II-sonli qaroriga muvofiq qabul qilingan «Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti

to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining kuchga kirishi soxaning huquqiy asoslarini yanada mustahkamlashga xizmat qildi. Mazkur Qonunning qabul qilinishi jamiyat hayotida ijtimoiy himoyaning yangi shakli – jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimi shakllanishida muxim omil bo'ldi. Bu tizim eng avvalo, qariyalar va ijtimoiy ko'makka muxtoj boshqa shaxslarning qo'shimcha moddiy ta'minotdan manfaat ko'rishiga zamin yaratadi.

Ushbu Qonunning maqsadi fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti soxasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Qonunda "Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti – fuqarolarni shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraklaridagi mablag'lardan davlat pensiyasiga qo'shimcha ravishda pul mablag'lari bilan ta'minlash" ekanligi belgilab qo'yilgan. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimida fuqarolar majburiy yoki ixtiyoriy tarzda qatnashishi mumkin. Jumladan, ish beruvchilarning, shuningdek mehnat faoliyatini mehnat shartnomasi asosida amalga oshiruvchi fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya tizimida ishtirok etishi, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoidalar nazarda tutilmagan bo'lsa, majburiydir. Yakka tartibdagi tadbirkorlar, yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi dexqon xo'jalikning a'zolari, shuningdek boshqa fuqarolar jamg'arib boriladigan pensiya tizimida ixtiyoriylik asosida ishtirok etadilar.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2010-yil 4-iyunda 2111-son bilan ro'yxatga olingan "O'zbekiston Respublikasi Xalq bankidagi fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga ixtiyoriy ravishda yo'naltiriladigan mablag'larga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha imtiyozni qo'llash tartibi to'g'risida"gi Nizomning 1-bandida 2010-yil 1-yanvardan boshlab fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Xalq bankidagi fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisob varaqlariga ixtiyoriy ravishda yo'naltiriladigan summalariga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i solinmasligi ko'rsatib o'tilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi "2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada islox qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting

ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi PQ-1438-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Davlat-tijorat Xalq banki tomonidan bir qancha ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Xalq banki tomonidan fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimida o'zlarining hisobraqamlarida yig'ilgan mablag'lariga aholi uchun qulay bo'lgan stavkalar bo'yicha foizlar hisoblanib, Qo'shib kelinmoqda. 2011 yil 1 yanvaridan boshlab jamg'arib boriladigan pensiya tizimiga ixtiyoriy tarzda mablag' qo'ygan fuqarolarni hisobvaraqlariga yillik Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasining 2 barobari miqdorida daromad to'lab berilmoqda.

Ushbu tizimning e'tiborli jihatlaridan biri shundaki, bunda nafaqa yoshiga etgan yurtdoshlarimizga jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimida yig'ilgan mablag'larini ularning birinchi talabi bo'yicha to'lab berilishi qattik nazoratga olingan. Ayni kunga qadar nafaqa yoshiga etgan 414507 nafar fuqarolarga jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimidagi mablag'lari to'lab berilganligi fikrimizning yorqin dalilidir. Jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini olish huquqi ushbu pensiya tizimida ishtirok etgan fuqarolar, tegishli hollarda ularning vakillari hamda merosxo'rlariga beriladi. Shuningdek, fuqaro vafot etadigan bo'lsa uning farzandlari yoki vorislari bu huquqdan foydalanishadi. Aytish mumkinki, shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqq'ida jamg'arilgan mablag'lar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda merosga o'tadi va merosxo'rga bir yo'la to'liq xajmda to'lanadi.

Yana bir jihatni aytib o'tish joizki, fuqaro O'zbekiston Respublikasi xududidan tashqariga doimiy yashash joyiga chiqib ketayotgan bo'lsa, shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'ida jamg'arilgan mablag'lar bir yo'la to'la xajmda to'lanishi ta'minlanadi. Jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini oluvchining yashash joyidagi tuman yoki shaxar ijtimoiy ta'minot bo'limlari, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini olish huquqi to'g'risidagi guvoxnoma bunday to'lovlarni olish uchun asos bo'ladi. To'lovlarni oluvchilar o'zlari mustaqil ravishda belgilaydigan muddat mobaynida

xar oylik jamg'arib boriladigan pensiyasini xoxlagan vaqtda olishni yoki jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini bir yo'la olishni tanlash huquqiga ega.

O'zbekiston pensiya ta'minotining muxim xususiyatlaridan biri, pensionerlarning aholi tarkibida kichik salmoqqa ega ekanligi hisoblanadi. Bu esa, pensiya tizimi rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Jamg'arib boriladigan pensiya jamg'armasi mablag'larini investitsiyalash xajmini oshirish imkoni yuzaga keladi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda pensiya yoshidagilar umr ko'rish davomiyligi o'rtcha 17 yildir, ya'ni bu – aholi pensiyaga chiqqach o'rtacha 17 yil yashashini bildiradi, demakdir. Aholi sonining deyarli 10 foizini pensionerlar tashkil etib turgan shu paytda, demografik olimlar statistik ma'lumotlariga qaraganda bu ko'rsatkich 2030 yilda 11,6 foizni, 2050 yilda esa 19,4 foizni tashkil etishi bashorat qilinmoqda, mamlakat aholisining 58% dan ortiq qismi mehnatga layoqatli hisoblanadi.

O'zbekistonda pensionerlarning aholi sonidagi ulushi past bo'lishiga qaramasdan, pensionerlarga pensiya to'lash xarajati salmog'i boshqa Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlarinikiga qaraganda yuqori su'ratlarda o'smoqda. Bu esa, jamg'arib boriladigan pensiya jamg'armasiga to'lanadigan badallar miqdorining oshishiga olib keladi.

Jamg'arib boriladigan pensiya jamg'armasiga 2005 yilda 18,9 mlrd. so'm mablag' tushgan bo'lsa, 2015 yilda mablag'lar miqdori 1500,1 mlrd. so'mdan o'tib ketdi.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'laridan jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlari to'lash uchun foydalaniladi. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini ko'paytirish hamda ularni pul qadrsizlanishidan himoya etish maqsadida bunday mablag'lardan investitsiya va kredit resurslari sifatida, shuningdek moliyaviy vositalarga joylashtirish uchun foydalanilishi mumkin.

Davlat tijorat Xalq banki ma'lumotlariga ko'ra, korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, fermer xo'jaliklari va boshqa yuridik shaxslar tashkil etgan boshqa xo'jalik yurituvchi subektlar tomonidan jamg'arib boriladigan pensiya badallarini

Xalq bankida ochilgan 5866,7 ming nafar fuqarolarning hisobvaraqlariga o'tkazilishi ustidan kunlik monitoring o'rnatilgan. Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag'lar qoldig'i 160,5 mlrd. so'mni tashkil etmoqda. Ushbu mablag'larning 158,5 mlrd. so'mini banklararo depozitlarga va 2,0 mlrd. so'mi O'zbekiston Temir yo'llari aktsiyadorlik kompaniyasiga kredit tarzida joylashtirilgan. Shuningdek tizimga ixtiyoriy a'zo bo'lgan 145,6 mingdan ortiq ishtirokchilarga xam ular tomonidan kirim qilib kelinayotgan badallarning hisobvaraqlariga muntazam hisobga kiritilishi ta'minlanib kelinmoqda.

Muayyan afzallikka ega bo'lishiga qaramasdan shartli-jamg'arish tizimi moliyaviy to'ldirishsiz taqsimlash tizimidir va bunga o'xshash tizimlar uchun xarakterli bo'lgan bir qator xavf-xatarlar bilan bog'liqdir. Mamlakatlar to'lo'vlarni badallarga uzviy boglab, amaldagi belgilangan to'lo'vlar mexanizimini o'zgartirishi mumkin. Bunga pensiya yoshini oshirish, nihoyatda yuqori qoplash ko'rsatimlarini pasaytirish va butun umr uchun ish haqiga asoslangan pensiyani hisoblashni kiritish orqali erishiladi.

Bu birinchi variant Vengriyada ko'p darajali tizimda qabul qilingan, hozirda u Makedoniyada qo'llash uchun tayyorlanmoqda va Ruminiyada pensiya ta'minoti tizimini isloh qilish dasturining tarkibiy qismi sifatida qo'llanilmoqda. Pensiya xarajatlarini kamaytirish maqsadida Vengriya, Polsha, Chexiya kabi mamlakatlar pensiya yoshini oshirdilar yoki Latviyadagi kabi pensiyaga chiqishning haqiqiy yoshida indeksatsiyalash tartibini o'zgartiradilar. Ushbu mamlakatlarda ish haqi bo'yicha indeksatsiyalash o'rniga ish haqi va baho darajasining o'zgarishini hisobga olgan holdagi indeksatsiyalash, Xorvatiyada esa baho bo'icha indeksatsiyalash yoki davlat sektoridagi ish haqi bo'yicha indeksatsiyalash qo'llanila boshlandi. Makedoniya va Sloveniyada qoplash ko'rsatimlari pasaytirilib, to'lo'vlarni hisoblash fo'rmulasi ham o'zgarishga uchradi¹¹.

¹¹ Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. (Public Administration and Public Policy) 0th Edition . USA: Publisher: Auerbach Publications (August 21, 2008). – P. 88.

Ikki holatda ham davlat tizimi oldingidagidek keksaygan shaxslarga minimal pensiya yoki kambag'allikdan himoyalash sifatida ijtimoiy yordam ko'rsatadi. Agar mamlakatda kambag'allar ulushi yuqori bo'lsa, davlat pensiya tizimining budjetga og'irligini kamaytirish muhim hisoblanadi.

Ushbu islohatlar ishlovchilarga ikki manba- bir xil to'lo'vli davlat tizimi va majburiy individual badallar asosida to'lo'vlar hisobidan pensiya olish imkonini beradi. Pensiya individual hisoblarda jag'ariladi va aktivlarning diversifikatsiyalashgan portfeliga investitsiyalanadi. Hisob- kitoblar xususiy boshqaruvda bo'ladi va davlat boshqaruviga nisbatan samaraliroq bo'ladi, bu borada davlat esa hisob kitoblar ustidan nazorat qilish va tartibga solishni amalgam oshiradi.

Majburiy individual badallarning bir qismini individual hisoblarda joylashtirish bir qator afzallikka ega. Birinchidan, bu islohat mohiyatan pensiya tizimining yashirin qarzini pensiya jamg'armasining ochiq kamomadiga aylantirishni nazarda tutadi. Ikkinchidan, u fuqorolarga jamg'armalarni bozor qaytimli badallarga jamg'arish imkonini beradi. Uchinchidan, individual badallarni davlat tizimiga va xususiy kompaniyalar boshqaruvida bo'lgan portfelga investitsiyalash vujudga kelib, portfelni xorijda joylashtirish tufayli fuqarolar riskini turli mamlakatlar aktivlaridan foydalangan holda diversifikatsiyalashlari mumkin.

Hozirgi vaqtda ko'p darajali pensiya tizimi Vengriya va Polshada joriy etilgan. Vengriyada 1,2 mln. 40 yoshgacha bo'lgan ishlovchilar o'zlarinig pensiya badallarini bir qismini xususiy pensiya xizmatiga o'tkazganlar. Barcha yangi ishlovchilarning xususiy pensiya tizimidagi ishtiroki majburiy. Polshada yangi xususiy pensiya jamg'armalarini litsenziyalash jarayoni amalga oshirilmoqda. 1999 yillar Polshada 30 yosdan 50 yoshgacha bo'lgan ishlovchilarga o'zlarining pensiya jamg'armalarining beshdan birini yangi jamg'armaga o'tkazish imkoniyati berilib, 30 yoshgacha bo'lgan ishlovchilar esa avtomatik tarzda yangi tizimining ishtirokchilari bo'ldilar. Ruminya, Xorvatiya, Latviya va Makedoniya kabi

mamlakatlar yaqin kelajakda ikkinchi darajali pensiya tizimini kiritishni rejalashtirmoqdalar.

Hozirda Qozog'istonda ko'p darajali pensiya tizimi amalga oshirilmoqda. Qozog'istondagi islohatlarning o'ziga xosligi shundaki, pensiya ta'minotining to'la xususiyashtirilgan tizimi amal qilmoqda. Mamlakatda davlat zimmasiga mehnat qobiliyatini yo'qotganlik holatlarida yoki keksalikdagi kambag'allik risklariga qarshi kurashish vazifasi yuklatilgan. Bu ma'noda Qozog'istondagi islohatlar Chili, Salvador, Perudagi islohatlarni eslatadi. 1997 yilning avgustida Qozog'iston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy himoyalash vazirligi zimmasiga jamg'arma pensiya jamg'armalarini faoliyati tartibga solish va litseziyalashni amalga oshirish vazifasi yuklatildi. Keyinchalik pensiya to'lo'vlari bo'yicha Davlat markazi tashkil etildi va umajburiy pensiya ajratmalari hamda pensiya to'lo'vlari ustidan nazoratni amalga oshira boshladi.

Qayta taqsimlovchi tizim, majburiy ishtirokni talab etuvchi jamg'arish tizimi va ixtiyoriy jamg'arish tizimi faoliyatlari – Qozog'istonda amalga oshirilayotgan pensiya tizimi islohatlarining mohiyatini tashkil etmoqda.

Davlat minimal pensiya to'lash va investitsiyalarning minimal daromadligini ta'minlash bo'yicha kafolat bermoqda. Pensiyaga chiquvchilar uchun birdamlik darajasida qoplash koeffitsiyenti o'rtacha ish haqining 60 foizini tashkil etmoqda. Bu miqdor har qo'shimcha staj yili uchun ayollar uchun 20 yildan, erkaklar uchun 25 yildan 1 foizga ortib boradi.

Ko'p darajali pensiya tizimiga o'tayotgan mamlakatlar yangi tizimga o'tishni moliyalashtirish davlatning nazorat sohasidagi ro'lini belgilash, ikkinchi darajani institSIONal jihatidan shakillantirish va ko'p darajali tizimni faoliyat ko'rsatishi uchun zarur parallel islohatlarni amalga oshirish kabi ko'plab vazifalarni hal qilishlari lozimdir.

I bob bo'yicha xulosa

XXI asrga kelib pensiya ta'minoti tizimini isloh etish dunyoning barcha mamlakatlari oldida turgan dolzarb va muhim vazifalardan biriga aylandi. Pensiya

ta'minoti tizimini isloh etishning asosiy sababi davlatning pensiyaga oid majburiyatlarini bajarish uchun moliyaviy resurslarning yetishmasligidir va bu muammo aholining keksayib borishiga muvofiq kuchayib murakkablashib boradi va mamlakatlarda vujudga kelgan iqtisodiy, ijtimoiy va demografik vaziyatlardan kelib chiqib alohida ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatlar uzoq muddatli istiqbolda pensiya tizimi barqarorligini yaxshilashga yo'naltirilgan bir qator muhim qadamlarni qo'ydilar. Pensiyaga chiqish yoshi oshirildi, to'lo'vlarni indeksatsiyalash qoidalari o'zgardi, ish haqiga bog'liqlik o'rniga iste'mol bahosi qimmatini indeksi va ish haqi o'zgarishii yoki faqat iste'mol bahosi indeksi o'zgarishini hisobga olgan holda indeksatsiyalash qo'llanila boshlandi.

Yuqori daromad darajasiga ega mamlakatlar o'zlarining majburiyatlarini muvaffaqiyatli bajarmoqdalar. Shu bilan bir qatorda, mamlakatlarda mehnatga haq to'lash jamg'armasidan to'lanadigan soliq miqdori ishlovchilarni rasmiy sohadan ketishlari uchun jiddiy sabab va rag'bat bo'lib xizmat qilmoqda. Bundan tashqari pensiya sug'urtasini ulushi mamlakat yalpi ichki mahsulotida qancha yuqori bo'lsa shuncha yaxshi hisoblanadi. Bundan tashqari xususiy pensiya tizimi yalpi ichki mahsulotda ham bir necha oizni tashkil qiladi. Masalan AQSHda xususiy pensiya sug'urtasi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 3,3 foizni tashkil etsa, Buyuk Britaniyada 4,6 foizni tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasida esa davlat pensiya sug'urtasi yalpi ichki mahsulotni 8,5 foizini tashkil etadi. Pensiya ta'minoti keksa yoshdagi kishilar o'rtasida kambag'alikni kamaytirishning ta'sirchan vositasi bo'lishi va hayoti mobaynida iste'molini barqarorlashtirishni kafolatlash mehanizmlaridan biri bo'lishi uchun kelgusi pensiya islohatlarini amalga oshirish zarurdir.

II BOB. JAHON AMALIYOTIDA PENSIYA TIZIMINI HOZIRGI ZAMON MODELLARI TAHLILI

2.1. Yevropa va Rossiya Federatsiyasining hozirgi kundagi pensiya tizimlari tahlili

Maburiy pensiya ta'minoti va mehnat pensiyalari to'g'risidagi qonunlar paketi qabul qilinishi bilan Rossiya Federatsiyasida pensiya ta'minoti tizimining quyidagi takrkibi yuzaga keldi:

Qarilik yoki nogironlik bo'yicha mehnat pensiyasini hamda qarovchisini yo'qotganlik uchun ehnat pensiyasini o'z ichiga oluvchi majburiy pensiya ta'minoti;

Ish beruvchilarning badallari va fuqorolarning mustaqil pensiya jamg'armalari hisobidan to'lanadigan pensiyalarni o'z ichiga oluvchi ixtiyoriy pensiya ta'minoti.

“Majburiy pensiya ta'minoti to'g'risida” gi Federal Qonunlarga binoan hozirgi vaqtda ish olib borayotgan va tegishli litsenziyalarga ega bo'lgan pensiya jamg'armalari Rossiya Federatsiyasi pensiya ta'minotining yuqorida sanab o'tilgan takibiy qisimlaridan har biri bo'yicha faoliyat ko'rsatishga haqlidir.

Pensiya tizimining tarkibiy qisimlaridan har birini mufassalroq ko'rib chiqamiz.

Majburiy pensiya ta'minoti. Pensiya islohati konsepsiyasiga binoan hozirgi davlat pensiyasi uch qisimdan tashkil topishi lozim.

1. Asosiy yoki ijtimoiy qonun bilan belgilanga, hamma uchun bir bo'lgan pensiyaning eng kam miqdori. U ilgari qonunlar, farmonlar bilan belgilangan pensiyaning eng kam miqdori, kompensatsiya to'lo'vlari va pensiyaga ustamalnri birlashtirgan. Uning miqdori maoshga ham, mehnat faoliyati davomida to'langan ta'minot badallari summasiga ham bog'liq emas. Umuman olganda, shaxsning

mehnat faoliyati qanday bo'lganidan qat'i nazar, davlat unga infilyatsiyga muvofiq indeksatsiya qilinadigan muayyan darajadagi daromad to'lanishini kafolatlaydi.

2. Taminot qismi pensiya stajiga, ya'ni korxona xodim uchun Pensiya jamg'armasiga ajratmalarni amalgam oshirgan davrga va bu ajratmalar summasiga bog'liq. Shaxsga har oyda to'lanadigan mehnat pensiyasi ta'minot qismini miqdorini hisoblash juda oson: pensiya tayinlan kungacha shakillangan pensiya kapitalni kutilayotgan pensiya to'lo'vlari davridagi oylar soniga bo'lish kifoya. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida mehnat pensiyalarini hisoblash uchun 19 yildan iborat davr qonuniylashtirilgan. Pensiya kapitali pensiya tayinlangunga qadar narx-navo hamda mamlakatdagi o'rtacha oylik maoshining o'sishiga qarab indeksatsiya qilib boriladi.

3. Jamg'arib boriladigan tizim ham pensiya jamg'armalari miqdoriga bog'liq. Biroq ta'minot qismidan farqli o'laroq mazkur pensiya jamg'armalari nafaqat ish beruvchi to'lagan soliqlar summasidan tarkib topadi, balki bu mablag'larni har xil investitsion vositalar yordamida ko'paytiradigan nodavlat pensiya jamg'armasi yoki boshqaruvchi kompaniyaning tanlanishiga ham muayyan darajada bog'liq bo'ladi. Pensiya tayinlangandan so'ng jamg'arib boriladigan qismining miqdori har yili investitsiyalashdan olingan daromadlarni hisobga olgan holda indeksatsiya qilinadi.

“Rossiya Federatsiyasida majburiy pensiya ta'minoti to'g'risida”gi Federal qonunga binoan pensiyaning bu qismini shakillantirish uchun kiritiladigan badal miqdori maoshning 26%ni tashkil etadi. “Nodavlat pensiya jamg'armalari to'g'risida”gi Federal qonunga binoan, yuqoroda ko'rsatilgan badallar kimning foydasiga kiritilayotgan yoki ilgari kiritilgan bo'lsa, shu shaxs Rossiya Federatsiyasining Pensiya jamg'armasining o'z pensiyasining jamg'ariladigan qismini nodavlat pensiya jamg'armasiga yoki boshqaruvchi kompaniyasiga o'tkazish mumkin. Buning uchun mijoz tomonidan jamg'arma yozma ravishda ariza oladi.

Ixtiyoriy pensiya ta'minoti. Ixtiyoriy pensiya ta'minot Rossiya pensiya tizimining uzviy tarkibiy qismi hisoblanadi va nodavlat pensiya jamg'armalarida pensiya jamg'armalrini faqat ish beruvchilar yoki fuqorolarning qo'shimcha ixtiyoriy badallari hisobidan shakllantirishni nazarda tutadi.

Rossiya Federatsiyasi hozirgi vaqtda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar kompleksining muxim tarkibiy qismlaridan biri pensiya islohotlaridir. Bugungi kunda pensiya islohotlari pensiya hisoblashning taqsimlash tizimini, uni jamg'arma qismi bilan to'ldirgan va davlatning xar bir fuqaro oldidagi sug'urta majburiyatlarini alohida hisobini olib borgan holda, o'zgartirishga yo'naltirilgan. Islohotlarning asosiy vazifasi pensiya tizimining uzoq muddatli moliyaviy muvozanatiga erishish, fuqarolarning pensiya ta'minoti darajasini oshirish va ijtimoiy tizimda qo'shimcha daromadlar uchun barqaror manbani shakllantirishdan iborat.

Islohotlarning maqsadi xodim bilan ish beruvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tubdan o'zgartirishdan iborat: xodimlarning o'z sharoitini keksaligida ta'minlash uchun javobgarligini oshirish, shuningdek ish beruvchining xar bir xodim uchun sug'urta badallarini to'lashni yuzasidan javobgarlikni oshirish. Pensiya tayinlashning ilgaridan mavjud bo'lib kelgan tizimi xodimga normal pensiya uchun ishlash imkonini bermasdi, u faqatgina daromad darajasi turlicha bo'lgan guruxlar o'rtasida va bir regiondan boshqasiga mablag'larni taqsimlardi. Rossiya Federatsiyasida yangi pensiya modeli ko'proq sug'urta tizimi bo'lib, fuqarolarning ish xaqlari miqdori va to'lab boriladigan pensiya badallaridan kelib chiqqan holda ularning pensiya huquqlarini hisobga oladi.

Ushbu islohot hal qilishi kerak bo'lgan asosiy vazifalardan biri – pensiya tizimining shaffofligini ta'minlashdan iborat. Uning ilk natijalarini rossiyaliklar 2003-yilda baxolash imkoniga ega bo'ldilar. Sug'urtalangan shaxslar yildan-yilga pensiyalarning jamg'armalar hisobiga moliyalashtirilishi natijalarini, aniqrog'i pensiya tizimining qo'shimcha daromadlarini xajmini xam kuzatib borishlari mumkin.

2002 yilda Rossiya Federatsiyasida, pensiya islohotlariga yo'l ochilganidan keyin xar bir fuqaro o'z pensiya jamg'armasini qaerga – xususiy yoki davlat boshqaruv kompaniyasiga yo'naltirishini hal qilishi mumkin bo'ldi. Qanday tanlov qilishni bilmaganlar yoki bir qarorga kela olmaganlar uchun davlat o'zi bunday qarorni qabul qiladi, ya'ni pulni avtomatik ravishda Tashqi iqtisodiy bank davlat kompaniyasiga jo'natadi. Biroq, "Majburiy pensiya sug'urtasi to'g'risida"gi Federal qonunga ko'ra nafaqat davlat Pensiya jamg'armasi, balki xususiy moliya institutlari xam sug'urtachi sifatida chiqishi mumkin, shu sababli Rossiyaning istalgan fuqarosi o'z ixtiyoriga ko'ra o'zining jamg'arib boriladigan pensiyasini Tashqi iqtisodiy bankdan istalgan nodavlat pensiya jamg'armasiga va xususiy boshqaruv kompaniyasiga, ularning joylashgan o'rnidan qat'i nazar, o'tkazishi mumkin. Buning uchun nodavlat pensiya jamg'armasi bilan majburiy pensiya sug'urtasi haqida shartnoma tuzish va pensiya jamg'armasiga boshqa jamg'armaga o'tayotganligi haqida ariza berishi kerak.

Nodavlat pensiya jamg'armasi – notijorat moliyaviy ijtimoiy ta'minot tashkiloti bo'lib, pensiya miqdori jamg'arilgan summaga mutanosib yoki fuqaro pensiya yoshiga yetganida belgilab qo'yilgan miqdordagi pensiyani to'lash printsipli bo'yicha ishlaydigan omonat-jamg'arma sxemasi bo'yicha faoliyat olib boradi. Nodavlat pensiya jamg'armasining faoliyati Pensiya jamg'armasi faoliyatiga juda xam o'xshash. Xuddi Pensiya jamg'armasi singari nodavlat pensiya jamg'armasi xam pensiya jamg'armalarini to'playdi, ularni investitsiya qilinishini, hisobga olinishini, mehnat pensiyasining jamg'arib borilgan qismini tayinlash va to'lashni tashkillashtiradi.

Nodavlat pensiya jamg'armalarini tuzishdan maqsad:

- sug'urtalangan shaxslar va pensionerlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish;
- pensiya tizimi samaradorligini oshirish.

Qabul qilingan qonunlarga asosan NPJ faqatgina pensiya faoliyati– pensiya badallarini yig'ish va kelgusida bu vositalarni tasarruf etish va pensiya to'lash

bilan shug'ullanishi mumkin. NPJga kelib tushadigan badallar ularni ko'paytirish maqsadida turli qimmatbaho qog'ozlarga sarflanadi. Shubxasiz, ko'paygan pensiya miqdori o'tkaziladigan badallar summasiga va bo'lg'usi pensioner xizmatlaridan foydalanayotgan NPJga bog'liq bo'ladi. NPJ faoliyati davlat tomonidan qattiq tartibga solinadi, undan tashqari, jamg'armalarning o'z nazorat organlari ham mavjud bo'ladi, ular hozirgi va bo'lg'usi pensionerlarning manfaatlari haqida qayg'uradi. Nodavlat pensiya jamg'armalariga xavfli moliyaviy operatsiyalarni o'tkazish taqiqlanadi, har yili ularning ishi mustaqil auditorlik tekshiruvidan o'tkaziladi.

Pensiya ta'minoti masalalari har bir kishiga taalluqlidir. Biroq hozirgi vaqtda aholining aksariyati nodavlat pensiya jamg'armalari haqida xanuzgacha aniq tasavvurga ega emas, ularning mavjudligi va ular taklif etadigan xizmatlar haqida bilmaydi. Vaxolanki, nodavlat pensiya jamg'armalari 15 yildan oshiq vaqt davomida faoliyat yuritib kelmoqda.

Nodavlat pensiya ta'minoti bo'yicha xizmatlar bozori nodavlat pensiya jamg'armasining unga mablag' qo'yuvchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) bilan pensiya shartnomalari tuzish va pensiya badallarini o'tkazish bo'yicha o'zaro munosabatlari nuqtai nazaridan nodavlat pensiya ta'minotini amalga oshirishda mavjud bo'lgan talab va taklifga qarab aniqlanadi.

Rossiya Federatsiyda 2001-yil 8-avgustdagi "Alohida faoliyat turlarini litsenziyalash to'g'risida"gi 128-FZ-sonli Federal qonunga muvofiq, shuningdek Rossiya Federatsiya hukumatining 2006-yil 14-iyuldagi 432-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Nodavlat pensiya jamg'armalarining pensiya ta'minoti va pensiya Sug'urtasi bo'yicha faoliyatini litsenziyalash to'g'risidagi Nizom" ga muvofiq nodavlat pensiya jamg'armalarining pensiya ta'minoti va pensiya sug'urtasi bo'yicha faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya olish zarur, bu Moliyaviy bozorlar bo'yicha operatsiyalarni federal xizmat tomonidan amalga oshiriladi.

Nodavlat pensiya jamg'armalarining faoliyati deganda yuridik va jismoniy shaxslarning maqsadli pul badallarini ixtiyoriy jalb qilish yo'li bilan aktivlarni

shakllantirish, bu mablag'larni nodavlat pensiya jamg'armalarining aktivlarini boshqarish bo'yicha kompaniyalarga berish, fuqarolarga umr bo'yi yoki uzoq muddat mobaynida muntazam ravishda pul shaklidagi to'lovlarni amalga oshirish, shuningdek fuqarolar oldidagi majburiyatlarni bajarish bo'yicha boshqa xattixarakatlar singari notijorat faoliyat tushuniladi.

Nodavlat pensiya jamg'armasi va nodavlat xususiy boshqaruv kompaniyasi aholi pensiyasining jamg'arib boriladigan qismini jalb qiladi, biroq bu tuzilmalarning maqsadi turlicha. Masalan; xususiy boshqaruv kompaniyasi aktivlarni ishonchli boshqarish uchun tuzilgan bo'lsa, nodavlat pensiya jamg'armasi pensiya to'lovini amalga oshiradi. Yuqorida bayon etilganlarga asoslangan holda aniqlandiki, tadqiq etilayotgan bozorda faqatgina nodavlat pensiya jamg'armalari sotuvchi bo'lib hisoblanadi. Nodavlat pensiya jamg'armalari xizmatlarining iste'molchilari esa jismoniy va yuridik shaxslar timsolidagi jamg'armaga mablag' qo'yuvchilar hisoblanishadi.

Aksariyat rivojlangan mamlakatlarda fuqarolarning umumiy pensiya ta'minotidagi davlat pensiyasi ulushi 40 - 50% dan oshmaydi. Qolgan 50 - 60% xususiy pensiya tizimlari orqali ta'minlanadi. Rossiyada nodavlat pensiya infratuzilmasini rivojlantirish pensiyaning ish haqi o'rnini bosishi koeffitsientini oshirish masalasini hal qilishga yordam bergan bo'lur edi, hozirgi kunda bu koeffitsient juda past bo'lib, taxminan 25% ni tashkil etadi. Xalqaro mehnat tashkilotining tavsiyalariga ko'ra esa qarilik bo'yicha nafaqa miqdori pensiya oluvchining yo'qotilgan umumiy daromadlari summasining kamida 40%ni qoplashi lozim.

Jamg'armalarning katta qismi o'z faoliyatini litsenziyalar asosida olib boradi, ularning amal qilishi "Nodavlat pensiya jamg'armalari to'g'risida"gi Federal qonunga ko'ra 2009-yil 1-iyulda tugadi. Yangi litsenziya olish uchun nodavlat pensiya jamg'armalari bir qator yangi rasmiy talablarga javob berishi kerak, xususan har bir jamg'arma ta'sischilarining umumiy ulushi 30 mln.rubldan

kam bo'lmasligi kerak, jamg'arma ustav faoliyatini ta'minlash uchun mo'ljallangan mol-mulkning puldagi bahosi miqdori kamida 50 mln.rubl bo'lishi lozim.

Jamg'armalar moliyaviy ko'rsatkichlariga bunday talablar 2007-yilda o'rnatilgan bo'lib, boshqa chora-tadbirlar singari NPJ moliyaviy barqarorligini oshirishga qaratilgan. Haqiqatan ham davlat, qonunchilik va ijro organlari timsolida mamlakat pensiya tizimining ushbu qismi ishonchli bo'lishi lozimligi haqidagi masalani e'tiborsiz qoldirishi mumkin emas, zero jamg'armalarning pensiya ta'minoti bo'yicha o'z zimmlariga olgan majburiyatlarini bajara olmasliklari aholi o'rtasida katta ijtimoiy taranglikni keltirib chiqarishga qodir.

Shunday qilib, qonunchilik avval boshdanoq ustav faoliyatini ta'minlashi uchun jamg'armalarning mablag'iga o'ta yuqori daraja o'rnatadi va bunday mablag'larning bo'lishiga jamg'armalarning pensiya ta'minoti bo'yicha o'z zimmlariga olgan majburiyatlarini bajarishlarining qo'shimcha kafolati sifatida qaraydi.

“Nodavlat pensiya jamg'armalari to'g'risida”gi Federal qonunga muvofiq “jamg'arma o'z majburiyatlari bo'yicha o'ziga tegishli butun mol-mulki bilan javob beradi”, shu jumladan ta'sischilik ulushlari hisobiga tashkil topgan mol-mulki bilan javob beradi. Bunda albatta, jamg'arma tomonidan o'z pensiya majburiyatlarini bajarishi uchun ustav faoliyatini ta'minlash uchun mo'ljallangan mol-mulkidan foydalanishi majburiyatlarini NPJning biror-bir boshqa xususiy resurslari hisobiga bajara olishning umuman iloji bo'lmagan sharoitdagina qo'llaniladigan eng so'nggi chora sifatida qaralishi lozim.

Xorijiy amaliyotda pensiya jamg'armasi ta'sischisi odatda jamg'armaning moliyaviy barqarorligi kafolati rolini o'z zimmasiga oladi va zaruriyat bo'lganda, agar jamg'arma faoliyati natijalari dastlab taxmin qilinganidan ko'ra yomonroq bo'lsa yuzaga kelgan defitsitni qoplash uchun mablag' kiritadi. Biroq bazi bir mamlakatlarda xech qanday tashkilot uchun, va xattoki yirik tashkilot uchun ham u ta'sis etgan NPJni pensiya shartnomalari amal qilishi davri bilan solishtiradigan davr mobaynida moliyaviy qo'llab-quvvatlashga qodir bo'la olishiga kafolat berib

bo'lmaydi. Shu sababli, kafolat mablag'lari pensiya jamg'armasi ta'sis etiladigan vaqtda biratula kiritilgan bo'lishi lozim.

Bundan tashqari, shuni tushunib olish muximki, bu jamg'armalarning salmoqli qismi mahalliy ahamiyatga ega va ularning faoliyatini to'xtatish regionlarda nodavlat pensiya ta'minotini amalga oshirishni ancha vaqtgacha qiyinlashtirib qo'yadi, bunday regionlarda yirik NPJ ish boshlashiga hali ancha vaqt bor. Litsenziyasining amal qilish muddati tugagundan so'ng esa bunday jamg'armalar o'z resurs bazalarini zarur xajmlargacha oshiradilar deyilgandi.

Ustav faoliyatini amalga oshirish uchun mol-mulkleri miqdorini bunday keskin oshirishning imkoni yo'qligi ularga nisbatan tegishli huquqiy sanksiyalar qo'llanilishiga, yuz minglab Sug'urtalangan shaxslarning huquq va manfaatlari buzilishiga, va oqibatda jamiyatning nodavlat pensiya jamg'armalariga ishonchi yo'qolishiga olib kelishi mumkin.

Aytib o'tilgan talablarning NPJ bilan yaqin o'zaro munosabatlarda bo'ladigan, pensiya rezervlari va pensiya jamg'armalari mablag'lari bilan ishlaydigan, ya'ni boshqaruv kompaniyalari va amalga oshiradigan faoliyatining o'ziga xos jihatlari tufayli –“investitsiya jamg'armalari, payli investitsiya jamg'armalari va nodavlat pensiya jamg'armalari” - deb ataladigan tashkilotlarga qo'yiladigan shu singari talablari bilan solishtirilganda pensiya jamg'armalari moliyaviy ko'rsatkichlariga xaddan ziyod talablar qo'yilganligi ko'rinadi. Ko'rsatilgan tashkilotlar uchun Moliyaviy bozorlar bo'yicha federal xizmat tomonidan bugungi kunda xususiy mablag'larning yetarlilik normativi o'rnatilgan.

Shuni esda tutish kerakki, jamg'armalarga pensiya jamg'armalari mablag'larini mustaqil ravishda investitsiya qilish huquqi berilmagan va pensiya zaxiralari mablag'larini mustaqil ravishda joylashtirish huquqlari ham anchagina cheklangan. Shu tarzda pensiya resurslarini investitsiya qilish jarayoni amalda NPJ nazoratidan chiqarilgan, natijada nodavlat pensiya jamg'armalarining pensiya soxasiga tegishli bo'lgan eng katta xavf - investitsiya xavflariga qarshilik ko'rsatish imkoniyatlari cheklangan. Nodavlat pensiya jamg'armalariga nisbatan

faqatgina pensiya resurslarini tashkil etuvchi mablag'larni ko'chirish vaqtida suiste'mol etish xavfi haqida gapirish mumkin xolos. Bunday suiste'molchiliklarni bartaraf etish uchun ixtisoslashtirilgan depozitariy va nazoratchi organlar nazorati ostidagi pensiya resurslarini boshqarishning mavjud sxemasi butunlay yetarli bo'ladi. Investitsiya xarakteriga ega bo'lgan xavflar esa boshqaruvchi kompaniyalar faoliyatiga xos va ushbu tashkilotlarga nisbatan ko'riladigan chora-tadbirlar kompleksi orqali kafolatlanishi kerak, buning ustiga boshqaruvchi kompaniyalarning har biri cheklanmagan miqdordagi nodavlat pensiya jamg'armalarining mablag'lari bilan ishlashi mumkin.

Ta'sischiylarning nodavlat pensiya jamg'armalariga kiritadigan ulushlarini ko'paytirishning muammoligi yana shu bilan bog'liqki, qonunga ko'ra bu mablag'lar NPJlariga qaytarib olish va ta'sischiya uning uchun biror-bir shaklda kompensatsiya to'lash huquqisiz beriladi.

Yangi jamg'armalarni tuzish va mavjud jamg'armalarning resurs bazasini kuchaytirishda bu muammoni hal qilishning iloji yo'qligi shunchalik aniq ko'rinib turibdiki, pensiya soxasi mutaxassisarlari o'rtasida NPJ faoliyatini tijoratlashtirishga yo'l qo'yish, pensiya ta'minoti va Sug'urta tashkilotlarining tashkiliy-huquqiy shaklini o'zgartirish zarurligi haqidagi fikrlar yuzaga kelmoqda. Bundan nuqtai-nazar, shubhasiz, yuridik shaxslar-jamg'arma ta'sischiylarining manfaatlarini ifoda etadi va bu g'oyalarni amalga oshirish nodavlat pensiya tizimini yanada rivojlantirishga yordam bergan bo'lur edi. NPJlarini tuzish va ularning faoliyatining avval boshdanoq ko'zda tutilgan maqsadlarini hisobga olganda ularni foydalantirish anchagina munozarali masala hisoblanadi. Jamg'armalarning moliyaviy ko'rsatkichlariga qo'yiladigan rasmiy talablarni qo'yishga tadbirkorlik bilan yondoshish, bu talablarning turli darajalarini kiritish, boshqaruvchi kompaniyalarning ishonchliligini oshirish hisobiga nodavlat pensiya tizimining barqarorligini kuchaytirish undan ko'ra ko'proq maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Jamg'armalarning moliyaviy ko'rsatkichlariga qo'yiladigan talablarning xaddan ortiqligi qisman o'tgan davr ichida NPJ tizimining rivojlanish sur'atlari yetarlicha emasligi bilan ham tushuntiriladi.

Bu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, tizimga jalb etilgan pensiya resurslari miqdori NPJ ustav faoliyatini amalga oshirish uchun mol-mulk miqdoriga nisbatan ancha ilgarilab ketgan. Bu davrda jamg'armalarning soni soni esa ko'paymagan, aksincha kamaygan. Keyingi qonunchilik yangiliklari esa tizim rivojlanishini yanada sekinlashtirishi ko'rinib turibdi.

Va nixoyat yana shuni ham ta'kidlash joizki, NPJ tizimi resurs bazasini o'stirish jaxonda yuz berayotgan global muommolar ko'paygan davriga to'g'ri keladi. Rossiya iqtisodining eksportga yo'naltirilganligi munosabati bilan va uning moliyaviy bozorlari yetarlicha rivojlanmaganligi tufayli dunyoning yetakchi davlatlari iqtisodi hozirgi kunda Rossiya Federatsiyasiga kuchli ta'sir o'tkaza olmadi.

Hozirgi vaqtda qonun hujjatlariga binoan nodavlat pensiya jamg'armalriga kiritiladigan badallar va nodavlat pensiya jamg'armalaridan olinadigan pensiyalariga hech qanday soliq solinmaydi. Korxonalar uchu esa, xodimlar foydasiga badallar kiritish soliq solinadigan bazani kamaytiradi. Shunday qilib nodavlat pensiya jamg'armalriga mablag'lar kiritish chindan ham foydali bo'lib qoldi.

Rossiyada pensiya ta'minotida ba'zi bir muommolarga to'qnash kelmoqda. Birinchi o'ringa "avlodlar to'qnashuvi" muommasini qo'yish mumkin. Xalqaro mehnat byurosi ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi vaqtda Yelga a'zo mamlakatlarda pensiya yoshidagi aholi qariyb 100 mln kishini tashkil etadi. Pronozlarga qaraganda, 2025-yilga kelib 65 yoshdan katta shaxslar soni 21 mln. Kishiga ko'payadi, potrsial faol aholi soni esa 15 mln. Kishidan ko'proqqa kamayadi. Rossiyada bu nisbatan quyidagi ko'rinishga ega; mehnatga qobilyatli yoshdagi har ming kishiga 350 dan ko'proq pensiya yoshidagi shaxslar tug'ri keladi. Bu sharoitda pensiya yoshini oshirish masalasining qo'yilishi bir qarashda tibiiy

holdek bo'lib tuyuladi. Darhaqiqat, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda yosh senzining umumiy chegaralari Rossiyadan ancha yuqori hisoblanadi. Ayrim mamlakatlarda fuqoro qaysi jinsga munosibligidan qat'iy nazar, yagona yosh senzi belgilangan. Buyuk Britaniyada pensiya yoshi erkaklar uchun 65 va ayollar uchun 55 yosh. Biroq pensiya yoshini yanada oshirish muommosi xatto shu davlatlar uchun ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Shuni takidlash lozimki, hozirgi pensiya yoshi ancha past bo'lgan mamlakatlarini yosh senzining sezilarli darajada oshishi kutilmoqda. Masalan, Fransiyada 2040-yilga kelib u 61-62 yoshgacha oshsa, Italiyada 65 yoshgacha ortadi, lekin bu erkaklar uchun 2010-yilda, ayollar uchun esa 2016-yilda yuz berishi mumkin.

Pensiya yoshini oshirish muommosi kelajakda Rossiyaning ham chetlab o'tmasa kerak. Mehnat bozoridagi tarkibiy o'zgarishlar demografik muommolarni yanada kuchaytirmoqda; ish bilan ta'minlangan aholi soni, ayniqsa ijtimoiy ishlab chiqarish sohasida kamaymoqda, soliq intizomining buzilishi ko'piroq darajada iqtisodiyotning nodavlat sektorida band bo'lganlar soni hisobiga ko'payib borayotir. Tegishli ravishda, umumiy qoidaga ko'ra Pensiya jamg'armasiga ta'minot badallari undiriladigan ish haqining ulushi kamayib bormoqda. Masalan 2002- yilda u aholi umumiy daromadining 69,9 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2005-yilda 40 % ni tashkil qilgan. Bundan tashqari, majburiy pensiya ta'minoti fuqorolik huquqiy xususiyatga ega bo'lgan tegishli shartnomalar bo'yicha ishlarni bajaruvchi va xizmatlar ko'rsatuvchi shaxslarga nisbatan tatbiq etiladi; bunda ta'minot badallari xodimlarga to'lanishi lozim bo'lgan to'lo'vlarga nisbatan 28 foizni tashkil etadi. Shunday qilib, Rossiyada pensiya tizimi qayta taqsimlash va avlodlarning birdamligi prinsipiga asoslanadi. Bugungi kunda ishlayotgan fuqorolar qariyalar, nogironlar, qarovchisini yo'qotgan oilalarga pensiyalar to'lanishin ta'minlaydi, biroq kelajakda ularning pensiya sohasidagi shaxsiy rejalarining ro'yobga chiqarish iqtisodiy, demografik yoki boshqa sabablarga ko'ra xavf ostida qolishi mumkin. Odatda, bu miqdor mamlakat bo'yicha ish haqining o'rtacha darajadagi teng yoki undan biroz katta bo'ladi. Rossiyada Pensiya

jamg'armasining ta'minot badallari mehnatga haq to'lash jamg'armasiga ta'minot badallari mehnatga haq to'lash jamg'armasiga biron-bir cheklashlarsiz qabul-qilinadi, biroq bunda pensiyalar sun'iy ravishda eng kam haqining uch baravari miqdorida belgilangan va pensionerning yashash minimumidan atigi 10-15 % ortiq bo'lgan eng ko'p miqdordan oshishi mumkin emas. Pensiya ta'minlash uchun o'rtacha maosh yo pensiyaga chiqish haqida ariza berishdan oldingi mehnat faoliyatining 24 oyi uchun, yo arizachi tomonidan o'z hohishiga ko'ra butun faoliyati davridagi har qanday uzliksiz 60 oy uchun hisoblanadi. Pensiya ta'minoti tizimini isloh qilish o'rtacha ish haqini hisoblashning uzoqroq davriga o'tishni nazarda tutadi.

Rossiya Federatsiyasida pensiya ta'minoti tizimini isloh qilish konsepsiyasi uch darajali pensiya tizimini tashkil etishni nazarda tutadi. Birinchi daraja asosiy yoki ijtimoiy pensiyani o'z ichiga oladi; ikkinchi darajaga menat pensiyasiga kiradi, uchinchi daraja fakultativ, qo'shimcha bo'ladi. Qo'shimcha pensiya ta'minotini professional pensiya tizimlari yoki nodavlat pensiya jamg'armalari beradi. Rossiya qonunchiligi G'arb mamlakatlariga xos bo'lgan pensiya ta'minoti andozalarini qabul qilishga tayyorgarlik ko'rmoqda. Ma'lumki, bu pensiya ta'minoti tizimlariga asosan ayrim turdagi pensiyalarni xususiylashtirish. To'lo'vlar miqdori nuqtayi nazarida pensiya qo'shimcha shakillarining ustunligi, davlat tizimlarida ta'minlashning eng kam darajasi kafolatlanishi xosdir.

Shuni takidlash lozimki, pensiya ta'minotining xorijiy andozalarining o'zlashtirish faqat iqtisodiy o'sish yuz bergan, davlat tizimida mablag'lardan foydalanishning samaradorligi oshgan va bu sohada tegishli nazorat amalga oshirilgan, qo'shimcha pensiya ta'minoti avvalo soliq imtiyozlari hisobidan rag'batlantirgan sharoitdagina muvaffaqiyat qozonishi mumkin.

Rossiya pensiya jamg'armasi byudjetdan keksalik gashtini surayotganlar katta miqdorda mablag' to'layotgani eslab o'tar ekan, 2015-yilda byudjed difitsiti 623 mlrd.rubl, 2016-yilad esa 1.6 trillion rublga yetishini aytdi. Iqtisodiy retsetsiya sharoitida, qolaversa, neft narxi tushi borayotgan bir sharoitda davlat hisobidan

mablag' ajratishining o'zi bo'lmaydi. Kelgusida pensiya jamg'armasidagi 342 milliard rubl muzlatib qo'yilib, u taqsimlash tizimiga yo'naltiriladi.

1991 yilda Rossiyada pensionerlar soni 25.7 million nafarni tashkil etgan bo'lsa, o'tgan 25 yil davomida ular soni uchdan biriga ko'payib, 34.4 million kishiga yetdi. Aholi soni esa o'tgan qariyb chorak asr davomida 5 million kishiga kamaygan. 2018-yilga borib, Rossiya Federatsiyasida o'rtach umr kechirish 74 yoshdan kam bo'lmaydi, deyilgan statistic ma'lumotlarda. Tan olish kerak, Rossiyada pensiyaga chiqish muddati dunyo miqiyosidagi eng past ko'rsatkichlaridan biri desak xato bo'lmas. Ularda hozirgi kunda erkaklar 60, ayollar 55 yoshdan pensiyaga chiqariladi.

Islandiyani oladigan bo'lsak, u yerda aksini ko'ramiz. Erkak va ayollar bir xil vaqtda 67 yoshdan keksalik nafaqasiga chiqariladi. Fransiyada hozircha 65 yosh, 2023- yilga borib 67 yoshgacha uzytiriladi. Yana Rossiyaga qaytadigan bo'lsak, pensiya yoshini uzaytirish masalasini Hukumat tarkibidagi iqtisodiy soxada ish yuritayotganlar, masalan moliya vaziri Anton Siluanov, iqtisodiyotni rivojlantirish vaziri Aleksey Ulyukayev, xatto bosh vazir Dmitriy Medvedev xam qo'llab-quvvatlamogda.

Jahon banki hisob-kitobiga ko'ra, 2030-yilgacha demografik xarajatlar uchun sarflanadigan mablag' Rossiya yalpi ichki maxsulotning ikki fozini tashkil etdi. Xullas, yaqin yillarda mamlakat rasmiylari pensiyaga chiqish muddatini oshirishlari xech gap emas.

Konservativ model ijtimoiy yo'naltiriladigan bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlarga xosdir. Ularning orasida continental Yevropaning Avstriya, Germaniya, Italiya kabi mamlakatlari bor. Bu yerda davlat mavqei ancha kuchli; ijtimoiy tadbirlarga budjetdan ajratiladigan mablag'lar xodimlar va ish beruvchilarning ta'minot badallariga taxminan teng, qayta taqsimlashning asosiy kanallari yo davlat ixtiyorida, yo uning nazorati ostida. Ayni vaqtda davlat fuqorolarni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash vazifasini ta'minot himoyasi tizimiga topshirishga harakat qiladi. Shu tufayli ijtimoiy nafaqalar miqdori

mehnatdan olingan daromadlarga va tegishli ravishda ta'minot to'lo'vchilarga qilingan aratmalarning miqdorlariga bog'liq bo'ladi. Korxonalarning egalari hamda yollanma xodimlarning manfaatlarini ifoda etuvchi nufuzli kasaba uyushmalari birgalikda boshqaradigan ta'minot kassalarining "o'zini o'zi boshqarish" mazkur modelining o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Ishsizlik yuz bergan holda kafolatlangan to'lo'vlar miqdori mehnat stajiga, to'lo'vlar muddati esa ta'minot badallarini to'lashning davomiyligi, ularning miqdori va xodimning yoshiga bog'liq bo'ladi. Ko'pgina mamlakatlarda ishsizlik bo'yicha nafaqa to'lash davri 50 yoshdan katta shaxslar uchun oshirilgan.

Ijtimoiy-demokratik model (u ba'zan solidar model, deb ham ataladi) aholini himoya qilishda davlat yetakchi ro'l o'ynashini nazarda tutadi. Aholining daromadlari darajasini tenglashtirish va aholini yalpi ish bilan ta'minlash davlat ijtimoiy siyosatining ustuvor vazifalari hisoblanadi. Bu model shimoliy Yevropa mamlakatlari Shvetsiya, Norvegiya, Finlandiya o'zining amaliy ifodasini topgan. Iqtisodiyotning rivojlangan davlat sektori ijtimoiy sohani moliyalashtirish negizi bo'lib xizmat qiladi. Bu negizni mustahkamlashga soliq solish darajasi juda yuqori ekanligi ham ko'maklashadi. YAIMda davlat xarajatlarining ulushi Shvetsiyada 66%, Finlandiyada 56%ni tashkil etadi. Bu xarajatlarining asosiy qismi ijtimoiy ahamiyatga molik obyektlarning ehtiyojlarini qondirishga yo'naltiradi. Bu xarajalar orasida transfert to'lo'vlarining ulushi ham amcha katta bo'lib, ularning yordamida milliy mahsulotning aholining kam ta'minlangan tabaqalari foydasiga qayta taqsimlash amalga oshiriladi.

Ushbu modelning boshqa o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardir ;

- ishlab chiqarish demokratiyasining rivojlangan tizimi;
- mehnat munosabatlari ayrim korxonalar yoki tarmoqlar darajasida emas, balki umummilliy miqiyosda tartibga solinishi;
- ishsizlik darajasini mumkin qadar kamaytirishga imkoniyat yaratadigan ta'sirchan vositalaridan foydalanilishi.

Dunyo mamlakatlarida 2008 yilda boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroziga qadar birdamlik qoplash koeffitsienti quyidagi ko'rinishga ega bo'lgan.

2.1-jadval

Jahonda turli mamlakatlar guruhlarida birdamlik qoplash koeffitsienti holati, foiz hisobida¹²

Mamlakatlar	Birdamlik qoplash koeffitsienti	Mamlakatlar	Birdamlik qoplash koeffitsienti
Taraqqiy etgan mamlakatlar		Rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyoti mamlakat	
Avstraliya	42	Rossiya (2010)	35
Avstriya	72	O'zbekiston	37,5
Belgiya	39	Bolgariya	44
Buyuk Britaniya	29	Vengriya	72
Germaniya	41	Meksika	38/34
Gretsiya	94	Polsha	56
Irlandiya	34	Ruminiya	29
Ispaniya	73	Slovakiya	56
Italiya	69/54	Turkiya	86
Kanada	42	Chexiya	47
Niderlandiya	89	Korea Respublikasi	40
Norvegiya	54	Ushbu mamlakatlar bo'yicha o'rtacha daraja (Rossiyasiz)	50/51,6
Portugaliya	54		
Frantsiya	51		
AQSh	37	Evropa Ittifoqi bo'yicha o'rtacha daraja	49,7
Yaponiya	34		
Ushbu mamlakatlar bo'yicha o'rtacha daraja	53,4/52,4	IHTT bo'yich o'rtacha daraja	57,6/56,4

Ushbu ko'rsatkichni o'zgarishi har bir mamlakatning tarixan shakllangan xususiyatlari va iqtisodiy imkoniyatlari asosida sodir bo'ladi. "Hozirgi vaqtda O'zbekistonda pensiyalarning o'rtacha miqdori o'rtacha ish haqiga nisbatan 37,5 foizni tashkil etmoqda. Bu ko'rsatkich Rossiyada 25,7 foizdan, Markaziy Osiyo mamlakatlarida 23-28 foizdan iboratdir. Joriy 2014 yilda bu ko'rsatkichni 41 foizga etkazish ko'zda tutilmoqda"¹³.

¹² Гурвич Е.Т. Пенсионная реформа: общие принципы и необходимые меры. Февраль 2011. <http://www.gosbook.ru/document/16883/16915/preview>.

¹³ Каримов И.А. 2014 йил юкори ўсиш суръатлари билан ривожланиш, барча мавжуд имкониятларни сафарбар этиш ўзини оқлаган ислохотлар стратегиясини изчил давом эттириш йили бўлади. –Т.: "Ўзбекистон", 2014. 22-б.

Shvetsiyada qabul qilingan ijtimoiy davlat doktrinasi ayniqsa mashhurdir. U ko'pincha egalitar doktrina deb ataladi. U davlatning o'z fuqorolariga g'amxorligini milliy siyosat darajasiga ko'taradi, ularga "xavfsizlik va ishonchlilikni, xavf tugilgan hollarda himoya qilishni, shuningdek, himoyani tashkil etish va unga rahbarlik qilishni va'da qiladi. Shvedlar qarindosh urug'lari, xayriya faoliyati yoki bozorga qaram bo'lishlariga hojat yo'q. Bu maqsadlarni ro'yobga chiqarish uchun 1977-yilda Shvetsiyada ijtimoiy idora qayta tashkil etildi va ijtimoiy xizmatning ancha keng qamrovli, biroq aniq va aholiga tushunarli vazifalarni ta'riflandi. Ularning orasida to'rt asosiy yo'nalishni qayd etish mumkin;

- daromad olishni kafolatlash,
- atrof-muhitni muhofaza qilish,
- aholiga xizmatlar ko'rsatish,
- mehnat muhitini muhofaza qilish.

Hozirgi vaqtda Yelning ko'pgina mamlakatlarida oila daromadini himoya qilish dasturi o'z rivojlanishining yuksak darajasiga yetgan. Skandinaviya mamlakatlarida bunday dasturlar mintaqaviy va mahalliy darajalarda amal qiladi. Yevropa janubidagi mamlakalarda ular deyarli mavjud emas.

Fransiyada majburiy pensiya ta'minoti rejimlaridan tashqari, kapitallashtirish prinsiplariga asoslangan va korxonalar tomonidan muayyan toifadagi xodimlar uchun tashkil etiladigan nomajburiy qo'shimcha dasturlar ham mavjud. Xususiylar pensiya jamg'armalari yoki qo'shimcha kapitallashtirish jamg'armalarida ixtiyoriy shaxsiy ishtirok keng tarqalmaganing sabablaridan biri shundaki, majburiy ta'minot tizimi mehnat daromadlari o'rnini bosishning yuksak darajasini ta'minlaydi.

Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari o'z pensiya tizimlarini isloh qilishga jahonda pensiya ta'minotining rivojlanish imkoniyatlari haqida qizg'in munozaralar boshlangan va shakllangan, pensiya sxemalarini yangi demagrafik va ijtimoiy –iqtisodiy sharoitlarga moslashtirish amalgam oshirilayotganiga 20 yildan oshgan bir sharoitda kirishdilar. Shu sababli, Markaziy va Sharqiy Yevropa

malakatlari jahon tajribasidan saboq olish va nazorat qilishga qodir qonun-qoidalarining kelajakka qaratilgan izchil va o'zaro bog'langan majmuini ishlab chiqish imkoniyatiga ega edilar.

Vengiryada amaldagi taqsimlovchi pensiya tizimini modernizatsiya qilishning mohiyati quyidagilardan iborat;

- pensiyaga chiqish yoshi asta sekinli bilan erkaklar uchun ham, ayollar uchun ham 62 yoshgacha oshirildi.

- pensiya olish uchun kerak bo'ladigan eng kam ish staji 15 yidan 20 yilga ko'paytirildi, muddatidan ilgari pensiyaga chiqish uchun zarur ish staji 10 yilni tashkil etdi.

- pensiyalrni hisoblash mehanizimiga o'zgartirishlar kiritildi.

Ushbu tizim doirasida o'rtacha ish haqi olinadigan xodim o'rtacha sof ish haqining 60 foizi darajasida pensiyaga umid qilishi mumkin. Mehnat faoliyatini boshlayotgan va ish stajiga ega bo'lmagan shaxslar yangi uch darajali pensiya tizimida ishtirok etishlari shart. Mehnat faoliyatiga islohatlar boshlagan davrga qadar kirishgan shaxslar uchun yangi tizimga o'tish ixtiyoridr. Hisob kitoblar 35-40 yoshdan kichik shaxslar uchun yangi tizimga o'tish foydali bo'lishini ko'rsatadi.

Chexiyadagi pensiya islohatida asosiy e'tibor amaldagi taqsimlovchi pensiya tizimini modernizatsiya qilish va ixtiyoriy xususiy pensiya jamg'armalari faoliyatini tartibga solish masalalariga qaratilgan. 1995-yilda qabul qilingan asosiy davlat pensiya tizimi to'g'risidagi qonunda avvalo pensiya yoshini asta sekin oshirib borish nazarda tutulgan edi.

2006- yilga kelib pensiya yoshi erkaklar uchun 62 yosh va ayollar uchun 57-61 yoshga yetdi. Avvalgi tizimda pensiya yoshini hisoblashda eng ko'p ish haqi to'langan 10 yi asos qilib olinar edi, bu davr asta sekin 30 yilgacha oshirildi, barcha pensiya imtiyozlari bekor qilinadi.

2.2. Shimoliy va Janubiy Amerika pensiya tizimlarini tahlili

AQSHda davlat pensiya tizimida davlat pensiya jamg'armalari daromadlarini shakllanishida yollanib ishlaydigan shaxslarning deyarli hammasi mehnatdan olingan barcha daromadlaridan davlatning federal zahirasiga soliq to'laydi.

Xodimlar o'zi to'laydigan bu soliqda qo'shimcha ravishda ish beruvchi davlatga yana 7.65 foiz miqdorida soliq to'laydi. Shunday qilib, to'langan ish haqining har 100 dolliriga Social Security Administration 15 dollirga yaqin soliq oladi. Yakka tarribda mehnat faoliyati bilan shug'ullanadigan, ya'ni ish beruvchiga ega bo'lmagan shaxslar pensiya solig'ining ikkala yarmini, ya'ni jai 15 dollarni o'zi to'laydi.

Mehnatsiz daromadlar yani bank omonatlari va obligatsiyalar, dividendlar, qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalardan olingan daromad va boshqalarga pensiya solig'i solinmaydi.

Mamlakat ijtimoiy ta'minot boshqarmasi bo'lmish Social Security Administration har bir mehnatkash o'zining butun mehnat faoliyati davrida to'lagan pensiya solig'i haqidagi axborotni saqlaydi.

65 yoshga to'lgandan keyin yoki nogironlik tufayli to'lanadigan davlat pensiyasi quyidagich tavsiflash mumkin bo'lgan qoidalarga muvofiq tayinlanadi;

- o'tgan yillarda olingan daromadlar va to'langan soliqlar pensiyaga chiqish yiliga nisbatan infilatsiyani hisobga olgan holda indeksatsiya qilinadi.

Masalan; 1950-yilning 1 dollir 2005- yilga 7,51 hisobiga o'tadi. Ish staji pensiya soigi'i solingan maosh yiliga 1600 dollirdan kam bo'lmagan yillar soni 10 yildan kam bo'lsa, pensiya tayinlanmaydi.

20 yoshdan 62 yoshgacha yoki xodim 62 yoshga to'lgunga qadar nogiron bo'lib qolgan bo'lsa, nogironlikkacha o'tgan yillar soni hisoblanadi.

Odatda oylik pensiya 65 yoshdan kechroq pensiyaga chiqqanlarga oshirilgan pensiya 62-65 yosh oralig'ida pensiyaga chiqqanlarga kamaytirilgan pensiya,

bevalar va yetimlar uchun pensiyalar, dafn marosimi uchun nafaqa va shu kabilar PIA asosida, uni tegishli ko'fsentlarga ko'paytirish yoli bilan hisoblanadi.

Yuqorida zikr etilgan "Hospital insurance" soligi'idan Medicare dasturini moliyalashtirish 65 yoshdan katta shaxslarning tibbiy xarajatlarini qisman qoplash uchun foydalaniladi.

AQSH congress a'zolari, federal xizmatchilar va xususiy sector xodimlarining pensiya ta'minotida haqida gapiradigan bo'lsak, AQSH Kongresi a'zolari, federal xizmatchilar hamda iqtisodiyotning xususiy sektori xodimlari har xil pensiya tizimlari bo'yicha pensya oladilar.

AQSH KONGressi a'zolari Kongress pensiya tizimi doirasida Kongressda besh yil ishlaganidan keyinroq eng ko'p maoshli ketma-ket kelgan uch yil uchun o'rtacha yillik maoshning 8.5 foiz miqdorida pensiya olishlari mumkin. Staj 20 bo'lsa, kongressmen 50 yoshida pensiyaga chiqishi va yuqorida ko'rsatilgan maoshning 34 foizi miqdorida pensiya olish, staj 25 yil bo'lgan taqdirda istalgan yoshda pensiyaga chiqishi mumkin. Bu holda pensiya maoshining 39 foizini tashkil etadi.

2.2-jadval

AQSh kongresi a'zolari, federal xizmatchilar va xususiy sektor xodimlarining pensiya ta'minoti¹⁴

Band bo'lganlar toifasi	Qo'llaniladigan pensiya tizimi
Kongressmenlar	Kongress a'zoliri uchun mo'ljallangan pensiya tizimi; ijtimoiy ta'minot tizimi; Kongressmenlar va hukumat tomonidan mablag' bilan ta'minlanadigan pensiya jamg'armasi
Federal xizmatchilar	Federal xizmatchilar uchun mo'ljallangan pensiya tizimi; Ijtimoiy sug'urta tizimi; Federal xizmatchilar va Hukumat tomonidan mablag'alar bilan ta'minlanadigan pensiya jamg'armasi.
Xususiy sektor xodimlari	Firma pensiya tizimlari; Ijtimoiy ta'minot tizimi Xususiy sektor xodimlari va ish beruvchilar tomonidan mablag bilan ta'minlanadigan pensiya jamg'armasi.

¹⁴ www.pensionfundsonline.co.uk.

Kongresda 10 yil ishlagan va 55 yoshga tulgan Kongress a'zosi eng ko'p maoshli ketma-ket kelgan uch yil uchun o'rtacha yillik maoshning 11.1 foiz miqdorida pensiya olishi mumkin. 60 yoshida va 15 yil staj bilan pensiyaga chiqqan kongressmenning pensiyasi yuorida ko'rsatilgan maoshning 23 foizini tashkil etadi.

Federal xizmatchilarning pensiya ta'minoti. Federal xizmatchilar uchun mo'ljallangan pensiya tizimi, ijtimoiy ta'minot tizimi hamda federal xizmatchilar va hukumat tomonidan mablag' bilan ta'minlanadigan pensiya jamg'armasidan pensiya oladilar. Federal xizmatchilar uchun mo'ljallangan pensiya ta'minoti tizimidan ular chiqqan paytdan to'liq yoki to'liq bo'lmagan pensiya olishlari yoki tayinlangan pensiyani olish muayyan yoshgacha kechiktirilishi mumkin.

2.3-jadval

AQSHda Federal xizmatchilarga to'liq pensiya berish shartlari va ular oladigan to'liq pensiya miqdori¹⁵

To'liq pensiya berish shartlari	Ish staji
62 yosh va undan kattalar, ish staji kamida 5 yil bo'lsa	5 yil 10 yil
60 yosh, ish staji kamida 20 yil bo'lsa	20 yil 24 yil
Tug'ilgan yiliga qarab 55-57 yosh, ish staji 30 yil bo'lsa 1948-yilgacha tug'ilganlar uchun 55 yosh va undan katta, u 1970-yilda va undan keyin tug'ilganlar uchun asta sekin oshib borilishi	30 yil 35 yil

Xususiy sektor xodimlarining pensiya ta'minot. Xususiy sektor xodimlarining ijtimoiy ta'minot tizimi bo'yicha pensiya ta'minoti kongressmenlar va federal xizmatchilarning ijtimoiy ta'minot tizimi bo'yicha pensiya ta'minoti bilan bir xil shartlarda amalga oshiriladi. Firmadagi ish staji 5 yil bo'lsa, xodim 65 yoshda, ish staji 10 yil bo'lsa, 55 yoshda pensiyaga chiqishi mumkin. 65 yoshgacha pensiyaga chiqilgan taqdirda, pensiyaga chiqish va 65 yoshga to'lish oralig'idagi davrning har bir yili uchun pensiya 4% kamayib boradi. Pensiyani hisoblash uchun asos sifatida eng ko'p maoshli ketma – ket kelgan besh yida olingan o'rtacha yillik maoshdan foydalaniladi.

¹⁵ www.pensionfundsonline.co.uk.

Rivojlangan mamlakatlarda nodavlat pensiya jamg'armalari yuqori darajada rivojlangan. "Mazkur jamg'armalari dastlab AQSh, Kanada hamda Buyuk Britaniyada shakllangan bo'lsa, XX asrning oxiriga kelib boshqa davlatlarda tarqaldi"¹⁶. Nodavlat pensiya jamg'armalari moliyaviy resurslari ham muddati jihatidan uzun moliyaviy resurs hisoblanadi. "Tahlil ma'lumotlari asosan AQShda 2006 yilda nodavlat pensiya jamg'armalari aktivlari YaIMga nisbatan 78,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2010 yilga kelib ushbu ko'rsatkich 51,6 foizga pasaygan. Kanadada ham nodavlat pensiya jamg'armalarining moliyaviy resurslari yuqori bo'lib, lekin tahlil qilingan 2006-2010 yillarda YaIMga nisbatan mos ravishda 64,9-39,1 foiz atrofida o'zgargan. Germaniyada esa, tahlil qilingan davrda ushbu ko'rsatkichlar 12,9-12,3 foiz atrofida bo'lgan"¹⁷. Ukraina iqtisodiyotida esa ushbu tashkilotlar 2005 yildan amal qila boshladi.

2.4-jadval

Xorijiy davlatlarda nodavlat pensiya jamg'armalari mablag'larining YaIMdagi ulushi¹⁸

Davlatlar	2006 yil		2007 yil		2008 yil		2009 yil		2010 yil	
	aktivlar		aktivlar		aktivlar		Aktivlar		Aktivlar	
	mlrd. dol.	YaIM % da	mlrd. dol.	YaIM % da	mlrd. dol.	YaIM % da	mlrd. dol.	YaIM % da	mlrd. dol.	YaIM % da
AQSh	10259,6	78,2	10805,3	78,6	8148,4	57,4	7333,3	51,4	7503,5	51,7
Kanada	781,5	64,9	972,0	76,6	682,6	48,8	534,4	40,3	522,6	39,1
Germaniya	348,1	12,9	418,3	14,8	401,5	13,7	363,4	12,9	362,6	12,3
Polsha	40,7	7,2	57,4	9,4	47,1	7,0	42,5	5,8	40,4	5,1
Ukraina	0,037	0,02	0,061	0,04	0,079	0,06	0,082	0,07	0,11	0,07
Rossiya	19,4	1,1	24,2	1,2	19,5	0,9	18,5	0,9	19,3	1,1

Tahlil uchun olingan mamlakatlarda nodavlat pensiya jamg'armalari aktivlarining YaIMdagi ulushi past darajada qayd etilmoqda. Masalan, 2006-2010 yillarda Polshada ushbu ko'rsatkich 7,2-5,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, Ukraina va Rossiyada bu ko'rsatkich nisbatan past ekanligini ko'rish mumkin. Agar ushbu

¹⁶ Мошенский С.З. Рынок ценных бумаг: трансформационные процессы. Учебное пособие. – М.: "Экономика", 2010. – Стр. 114.

¹⁷ Ахмедов М. Иқтисодиётда "узун" молиявий ресурслар салмоғини оширишда нодавлат пенсия жамғармасининг аҳамияти. // Молия. -Тошкент. 2012. №2. 130-6.

¹⁸ Ахмедов М. Иқтисодиётда "узун" молиявий ресурслар салмоғини оширишда нодавлат пенсия жамғармасининг аҳамияти. // Молия. -Тошкент. 2012. №2. 130-6.

davlatlarda 2006 yilda nodavlat pensiya jamg'armalari aktivlarining YaIMga nisbatan ulushi 002-1,08 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2010 yiga kelib , 0,07-1,1 foizga etganini ko'rish mumkin. Tahlil uchun olingan davrning 2006-2007 yillarida barcha mamlakatlarda ushbu ko'rsatkich o'sish tendentsiyasiga ega. 2008 yilda pasayish tendentsiyasiga ega ekanligi bevosita jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi va uning salbiy oqibatlari bilan bog'lik.

AQSH kongressi a'zolari, federal xizmatchilar hamda AQSH iqtisodiyotining xususiy sektori xodimlari pensiya ta'minotining qisqacha tahlilidan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- kongressmenlar Federal hukumat xizmatchilariga qaraganda imtiyozliroq shartlarda pensiyaga chiqadilar;
- kongressmenlar ish haqiga nisbatan oladigan pensiya miqdorlari federal xizmatchilarnikidan katta;
- xususiy sektor xodimlari 62-65 yoshda firmadagi ish staji 5 yil bo'lgan holda firmadan to'liq pensiya va ish staji 10 yil bo'lgan holda kamaytirilgan pensiya oladi.

Pensiyalar bilan bir qatorda mehnat uchun to'langan har xil haqlar pensionerlar daromadining muhim manbalari hisoblanadi. Bunday haqlar umumiy daromadlarining 17 foizini, jamg'armalar esa 25 foizini tashkil qiladi.

Hozirgi vaqtda keng e'tirof etilgan G.Esring Andersen tasnifi ijtimoiy himoyaga nisbatan jahonda mavjud yondashuvlardagi jiddiy farqlar haqida tasavvur hosil qilish imkonini beradi.

Muallif ijtimoiy davlatlarning uch asosiy modeli: liberal, konservativ (korporativ) va ijtimoiy-demokratik modekratik modellari bir biridan farqlagan.

AQSh, Kanada, kabi mamlakatlarga xos bo'lgan liberal modelning shakllanishi xususiy mulk hukm surgan, bozori munosabatlari yetakchilik qilgan sharoitda, liberal mehnat axloqi ta'sirida amalga oshirgan. Bu model faoliyatining asosiy shartlari quyidagilardir:

- bozor munosabatlarida davlatning mumkin qadar kam aralashuvi;

– davlat tomonidan tartibga solish choralarning kam qo'llanilishi, bunda makroiqtisodiy siyosatni ishlab chiqish doirasidan chetga chiqmaslik;

– yalpi ichiki mahsulotda davlat sektori ulushining ozligi.

Fuqorolarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash rivojlangan ta'minot tizimlari hisobidan amalga oshiriladi. Bu jarayonga davlat mumkin qadar kam aralashadi, u asosan muayyan kafolatlarni tartibga solish bilan shugullanadi. Ta'minot to'lo'vlarning miqdorlari, odatda uncha katta bo'lmaydi. Transfert to'lo'vlari, ya'ni davlat byudjetidan aholining har xil guruxlariga nafaqalar v subsidiyalar tarzida bevosita o'tkaziladigan soliqlardan olingan moliyaviy mablag'larmiqdori ham ko'p emas.

Ishlab chiqarish munosabatlari sohasida tadbirkorlik faolligining rivojlanishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Korxonalarining egalari ishlab chiqarishni rivojlantirish va unda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, shu jumladan, keraksiz bo'lib qolgan xodimlarni ishdan bo'shatish huquqlari biron bir tarzda cheklanmaydi. Bunday holatning o'ta liberal shakli AQSHga xosdir. Bu yerda 1948-yildan beri amal qiladigan mehnat bitimlari to'g'risidagi qonun yoki "Vagner qonuni" ga binoan, korxona ma'muriyati ishlab chiqarish qisqargan yoki modernizatsiya qilingan holda xodimarni ogohlantirishsiz yoki ikki uch kun oldin ogohlantirish yo'li bila, mehnat staji va malakasini hisobga olmasdan bo'shatishga haqli.

Bu model iqtisodiy barqarorlik yoki o'sish sharoitida o'zining asosiy vazifasini bajaradi, biroq ishlab chiqarish pasaygan va majburiy qisqartirilgan, ijtimoiy dasturlarining aksariyat qismidan voz kechgan sharoitda ko'pgina ijtimoiy guruhlar, avvalo xotin-qizlar, yoshlar va qariyalar og'ir ahvolga tushib qoladi.

Xorijiy davlatlar pensiya jamg'armalari modellariga odatda;

- davlat ijtimoiy sug'urta jamg'armalari,
- majburiy tibbiy sug'urta jamg'armalari,
- jamg'arib boriladigan xususiy pensiya jamg'armalari,
- aholi bandligi jamg'armalari.

Yuqorida qayd etilgan modellar jahonning biron bir mamlakatida deyarli sof uchramaydi. Ijtimoiy davlatning “ideal tiplari” sifatida qaraladigan bu modellarning har biri o‘z afzalliklari va kamchiliklariga ega. Amalda liberal, korporativ va sotsial-demagratik modellar unsurlarining muayyan uyg‘unligi ko‘p kuzatiladi. Masalan, Kanadada ta‘minot pensiyasi bilan bir qator “Xalq pensiyasi” ham mavjud. Shunga o‘xshash pensiya Avstraliyada ham joriy etilgan. AQSHda ijtimoiy ta‘minot kassalaridan tashqarida to‘lanadigan juda ko‘p nafaqalar mavjud. Ko‘pgina mamlakatlarda eng kam ish haqi miqdori va uni iste‘mol narxlarining o‘rishiga qarab vaqti vaqti bilan indeksatsiya qilish to‘g‘risidagi qonun kam ta‘minlangan fuqorolarni himoya qilish to‘g‘risidagi qonun kam ta‘minlangan fuqorolarni himoya qilish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Italiyada indeksatsiya mexanizimi narxlar indeksi bir foizga o‘sgan holda, Daniyada uch foizga, Belgiyada ikki foizga, Lyuksemburgda ikki yarim foizga o‘sganida ishga solinadi. Ayrim mamlakatlar AQSH, Kanada, indeksatsiya mehnat qiladigan butun aholini emas, balki yollanma xodimlarni bir qismini qomrab oladi.

Pensiya islohatining Chili 1981-yilda, A.Pinochet hukumronligi davrida o‘tkazildi. Chili tajribasidan foydalanish masalasini muhokama qilishda Chili islohati iqtisodiyot sezilarli darajada jonlangan sharoitda amalga oshirilishini e‘tiborga olish lozim. Bu hukumatga pensiya islohatini yahshi moliyalashtirish imkonini berdi. Shu davrdan Chili jamg‘arma bozoriga yuz bergan katta o‘rish pensiya jamg‘armalarining yuksak darajada rentabilligini ta‘minladi. Islohatning muvaffqqiyatiga qulay demagrafik vaziyat ham imkoniyat yaratdi.

Chilida aholining atigi 8% pensiya yoshida bo‘lib, bir pensionerga 12,8 ta ishlovch to‘g‘ri keladi.

Yangi pensiya tizimi yollanma xodimlarni majburiy ta‘minot qilishga asoslanadi. Xodimlar o‘z maoshining 10 foizii penisiyani ta‘minot qiluvchi jamg‘armalardan biriga to‘lashlari shart. Majburiy ta‘minot yoshi erkaklar uchun 65 yoshdan, ayollar uchun 60 yosh qilib belgilandi. Ta‘minotlangan shaxslar u yoki bu jamg‘armani almashtirish huquqiga ega, bunda ular jamg‘arilgan kapitalga

bo'lgan huquqni o'zi bilan olib ketadi. O'zini o'zi band qilgan aholi bu jamg'armalarda ixtiyoriy ravishda ta'minotlanishi mumkin. Pensiya ta'minotiga qo'shimcha ravishda xodimlar nogironlik va boquvchisini yo'qotganlik uchun ehtiyot shart ta'minlanishi shart. Bunga maoshdan yana 3 % ajratiladi. Ta'minotlanuvchi pensiya yoshiga to'lgach, jamg'arilgan kapitaldan ta'minot kompaniyasidan umrbod shaxsiy pensiya olish uchun foydalanishi yoki kompaniya bilan hisob varaqda mablag'larni rejali ravishda olish haqida kelishishi mumkin.

Badal miqdori belgilangan boshqa tizimlardagi kabi Chili tizimida ham pensiya ta'minoti darajasini oldindan baholash qiyin. Jamg'armalar amalga oshiradigan to'lo'vlar maosh bilan bog'liq ta'minot badallaridan, shuningdek, kapital jamg'arish yo'li bilan olingan daromadlar va yaratilgan zahiralar hisobidan moliyalashtiriladi. Natija o'rtacha maoshning o'sishi va ssuda kapitali bozoridagi foiz stavkasining o'zaro nisbati bilan bekgianadi. Foiz stavkasi maoshining foiz hisobida ko'payishidan qancha ortiq bo'lsa, boshqa teng shartlarda pensiya ta'minoti darajasi shuncha yuqori bo'ladi. Pirovardida oxirgi daromadning 20-70% miqdorida pensiya olish mumkin.

Chilida amal qiluvchi pensiya ta'minoti tizimi yollanib ishlaydigan aholining taxminan 60 foizigina qamrab oladi. Norasmiy mehnat faoliyati sektorida o'zini o'zi band qilgan aholi, to'liq bo'lmagan stavka bo'yicha ishlovchi shaxslar hamda ishsizlar tomonidan ta'minot badallari, ko'pincha, to'lanmaydi, chunki ular ta'minot badallarini to'lash uchun yetarli mablag'larga ega bo'lmaydi. Shunday qilib, ular pensiya ta'minoti tizimidan chetda qoladi.

Chilida shunday bir amaliyot keng tarqalganki, xodimlar ish beruvchilar bilan soliq organlariga taqdim etiladigan hujjatlarda maoshning bir qismini ko'rsatish haqida kelishib oladi. Natijada ijtimoiy ta'minotga chegirmalar maoshning shu qismidagina amalga oshiradi. Pirovard natijada bu jamg'armalarda ishtirok etayotgan aholining uchdan bir qismigina qashshoqlik chegarasidan pastda yashashi bilan belgilanadi.

Chet davlatlarda pensiya yoshi¹⁹

Davlatlar nomi	Erkak	Ayol
AQSh	65	65
Chili	65	60
Fransiya	60	60
Finlandiya	65	65
Shvetsiya	65	60
Slovakia	60	57
Vengriya	62	60
Polsha	62	62
Latviya	62	62
Rossiya	60	55

Ijtimoiy himoya va ijtimoiy ta'minot bir ma'noli emas, balki turdosh tushunchalaridir. Ulardan ilmiy ta'rflar sifatida foydalanilganda ijtimoiy himoya ijtimoiy ta'minotni tarkibiy qismi sifatida o'z ichiga oladi, bundan tashqari, u inson hayot faoliyatining normal shart-sharoitlarini ta'minlovchi mehnat, sog'liq va tabiiy muhitni muhofaza qilish, mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori kabi kafolatlarni qamrab oladi.

II bob bo'yicha xulosa

Aholini umur ko'rish yoshini uzayishi, pensiyaga chiqqandan so'ng qanchalik uzoq umur ko'rishni hohlaymizmi yo'qmi pensiya tizimida turli hil islohatlarni talab qiladi.

Pensiya ta'minoti tizimini isloh qilish yo'llarini tanlash uchun Xitoy Hukumati boshqa mamlakatlar tajribasini 10 yillar davomida o'rgandi. Buning natijasi o'laroq Xitoy hukumati 1997-yilda "Korxonalarida pensiyani ta'minot qilish yogana tizimini shakillantirish to'grisida" qaror qabul qilindi. Hujjat "shaxsiy" va "ijtimoiy" hisob varaqlarni joriy etish zarurligi ko'rsatildi. Bu tizim umummilliy miqyosda 1998-yildan amal qila boshladi. Uning asosiy mazmunini muhtasar tarzda quyidagi to'rt qoida bilan tavsiflash mumkin.

¹⁹ www.pensionfundsonline.co.uk.

Yangi pensiyani ta'minot qilish tizimi shaharlaridagi barcha korxonalarga va barcha shahar aholisiga nisbatan tatbiq etiladi. Shahar korxonalari deganda nafaqat davlat mulkiga mansub korxonalar, balki kollektiv, xususiy korxonalar, xorijiy capital ishtirokidagi korxonalar, shuningdek, chet ellik vatandoshlar, Tayvan, Gonkong, Makao kompaniyalari tomonidan investitsiyalashtiriladigan korxonalar tushiniladi. Bu ijtimoiy ta'minot jamg'armani sezilarli darajada oshirish imkonini beradi. Eng muhimi, barcha shahar korxonalari bir xil boshlang'ich shart sharoitlarga, shuningdek, raqobat uchun odilona shart sharoitlarga ega bo'ladi.

Yangi pensiya tizimi shahar iqtisodiyotida band bo'lgan aholining barcha toifalari, shu jumladan, xususiy korxonalarning mulkdorlari, o'zini o'zi band qilgan ayrim ishlovchilarga nisbatan qo'llaniladi.

Mamlakatning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishida, aholining qarish sur'atlarida mintaqaviy farqlar mavjudligi sababli hukumat pensiyani taminot qilish dasturini amalga oshirishning ayrim hududlar bo'yicha har xil rejimini nazarda tutgan. Markazga bo'ysinuvchi shaxarlar, janubi-sharqiy dengiz oldi hududlari, Markaziy Xitoyda yangi dasturni joriy etishning asosiy ko'rsatkichlariga 1998-yilda boshqa hududlarda esa 1999-yilda erishildi.

Pensiya shasiy hisobvaragi xodimni o'z mahoratini va ko'nikmalarini oshirish, ko'proq maosh olish va ko'proq maosh olish va ko'proq sug'urta badali to'lash, binobarin, qarilikda ko'proq pensiya olishga rag'batlantiradi. Boz ustiga, shaxsiy hisob-varaqlarning mavjudligi xodimda himoyalangan, shuningdek, o'z korxanasi, davlatiga elkadoshlik hissini uyg'otadi.

Yaponiyada ijtimoiy ta'minot kompleks xususiyatga ega. U daromadning eng kam miqdori, sog'liqni garovlash, muhtojarga yordam ko'rsatishni kafolatlovchi to'lo'vlarni o'z ichiga oladi. Ijtimoiy ta'minot tizimining konsepsiyasi shunga asoslanadiki, u normal faoliyat ko'rsatishi uchun nafaqat 7davlat va biznesning, balki har bir fuqoraning sa'y-harakati zarurdir.

Ijtimoiy ta'minot tarkibida eng ko'p summalar pensiya to'lo'vlariga yo'naltiradi. 1980 yillarnig o'rtalaridan pensiya tizimi asta-sekin isloh qilinmoqda. U ancha murakkab va serqatlamdir.

Yaponiya hukumati ijtimoiy ta'minot muommolari orasida qariyalarga munosib turmush darajasini yaratishga katta etibor beradi. Bu mazkur toifadagi shaxslar soni oshib borayotganligi va 2025 yilga borib 5,2 mln. kishiga yetishi bilan bog'liqdir. Yaponiya Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan tuzilgan "qari jamiyatlar" ro'yhatini boshqarishi bejiz emasdir. Bundan tashqari, hayotning davomiylik o'sayotgani va mazkur toifaga mansub aholining mehnat faolligi davri oshayotgani, shuningdek, yosh ishchi kuchi taqchilligi tufayli qariyalar mehnat bozorining muhim tarkibiy qismiga aylanadi.

Jahonning iqtisodiy jihatidan qudratli mamlakatlaridan biri sanalgan Yaponiya, Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, hayot sifatining umumiy ko'rsatkichi jihatidan birinchi o'ringa chiqqan mamlakat Yaponiyaning ijtimoiy ta'minot tizimi, uning aholisi pensiyalar hamda sog'liqni ta'minlash bilan keng qamrab olingani, kam ta'minlangan va ijtimoiy yordamga muhtoj aholi qatlamiga manzilli tez va sifatli yordam ko'rsatilishi, ijtimoiy ta'minot tizimiga mamlakatdagi vaziyatda yuz berayotgan o'zgarishlarga qarab tuzatishlar kiritib borilishi va bu sohadagi asosiy vazifalar belgilanishi kabi jihatlari alohida diqqatga sazovordir.

III BOB. JAHON AMALIYOTIDA MAVJUD PENSIYA TIZIMI MODELLARIDAN O'ZBEKISTON AMALIYOTIDA FOYDALANISH MASALALARI

3.1. O'zbekiston amaliyotida pensiya tizimini tashkil etishning hozirgi zamon modellarining ustuvor jihatlari va xususiyatlari

Taraqqiy etgan davlatlarda XX asrning 1990 yillarida pensiya tizimini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar amalgam oshirildi. Bunda asosiy etibor amaldagi taqsimlovchi pensiya ta'minotini takomillashtirishga, majburiy jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotini asta sekinlik bilan bosqichma - bosqich joriy etishga qaratdi. Dunyoning ko'pgina mamlakatlarida taqsimlanuvchi va jamg'ariladigan pensiya tizimlariga asoslangan pog'onali tizim amal qilmoqda. Qator mamlakatlarda taqsimlanuvchi pensiya tizimi takomillashtirilib, unga shartli – jamg'ariladigan schotlar kiritiladi. Shu yo'l bilan individ tomonidan o'tkazilgan pensiya badali va to'lanadigan pensiya miqdori o'rtasidagi uzviy aloqadorlik ta'minlanadi.

Pensiya ta'minotining jamg'arish prinsipiga o'tish borasidagi dastlabki tadbirlar Lotin Amerikasi mamlakatlarida amalga oshirilgan. Lotin Amerikasi mamlakatlari o'zlarining taqsimlanuvchi pensiya ta'minotini saqlab qolganlari holda, jamg'arib boriladigan pensiya tizimini ko'p pog'onali pensiya tizimini joriy qilish maqsadida qo'llashdi. Bunday davlatlar sifatida birinchi navbatda Chili davlatini ko'rsatib o'tish joiz undan so'ng Argentina, Kolumbiya, Peru va Urugvayni ko'rsatish mumkin.

Taraqqiy etgan mamlakatlarda aholining barcha qatlamlarini to'liq qamrab olgan universal taqsimlanuvchi pensiya tizimi mavjud. Bundan tashqari, xususiy sektorda saxsiy sug'urtaga asoslangan ixtiyoriy pensiya ta'minoti mavjud.

Islxotlarning dastlabki bosqichida AQSH, Germaniya, Yaponiya va Italiya pensiya tizimining daromaadlarini oshiris maqsadida pensiya badallarini oshirishga

xarakat qilishdi. Bu esa xususiy sektorda ishlovchilarni va tadbirkorlarni qattiq noroziligiga olib keldi.

Muvaffaqiyatli pensiya ta'minoti isloxlari Buyuk Britanyada va Shvetsiyada amalga oshirildi. Ushbu ikkala mamlakat o'zlarining pensiya tizimlarining sezilarli qismini jamg'arilish prinsiplari asosida qayta tashkil qildilar.

Buyuk Britanyada ikki pogonali pensiya tizimi shakllantirildi. Birinchi pog'ona – pensionerga minimal daromad olishni ta'minlaydigan, umumiy soliq tushumlari hisobidan moliyalashtiriladigan majburiy davlat sug'urta ta'minoti. Ikkinchi pog'ona – ishlovchining ish haqiga bo'liq bo'lgan pensiya ta'minoti. Bu yerda ikkinchi pog'onadagi davlat jamg'aradigan tizimi yoki xususiy jamg'ariladigan pensiya tizimida ishtirok etishni ishlovchi xodimning o'zi tanlaydi.

Shunisi xarakterliki, Buyuk Britanyada ishlovchilarning xususiy jamg'ariladigan pensiya tizimida ishtirok etishi davlat tomonidan turli soliq imtiyozlari qo'llash orqali rag'batlantiriladi. Mutaxasislarning hisob- kitoblariga ko'ra, ishlovchilarning qariyb 50 foizi xususiy jamg'ariladigan pensiya tizimida ishtirok etadi. Buning natijasida davlatning pensiya bo'yicha majburiyatlari 30 foizdan ortiq summaga qisqardi.

Buyuk Britanya pensiya bozori Yevropadagi eng katta bozor bo'lib, jami pensiya jamg'armalarining 40 foiziga teng. Mehnatga layoqatli 33 mln. inglizdan 22 millioni yollanib ishlaydi. Ularning yarmi, yani 10,5 mln. kishi korxonalar tomonidan tashkil etilgan xususiy sxemalarida ishtirok etadi, 4.5 million kishi individual pensiya schotlariga pul o'tkazishadi, ishlovchilarning uchdan bir qismi pensiya sxemalarida ishtirok etmaydi.

Buyuk Britanyada xususiy pensiya fonlariga to'lanadigan yillik badallar miqdori 37 mlrd. funt sterlingni, ularning to'plangan aktivlari 640 mlrd.funt sterlingni tashkiletadi. Bunga 15 mlrd.funt sterling miqdoridagi individual pensiya jamg'armalariga o'tkaziladigan badallar qo'shiladi. Pensiya fondi pensiya sxemalarini ishlab chiqadi, badallar va to'lo'vlarning hisobini olib boradi,

boshqaruvchi kompaniya mablag'larni qaytarish bo'yicha shartlar qo'yadi. Pensiya fondining o'zi investitsiyalash bilan shug'ullanmaydi, balki shartnoma asosida boshqaruvchi kompaniya shug'ullanadi.

Shvetsiyada ishlovchilar va ish beruvchilarning pensiya badallari ish haqiga nisbatan 18,5 foizni tashkil qiladi. Ushbu ajratma esa ikki qismga ajratiladi;

1. Uning 16,5 % joriy yilda taqsimlanuvchi pensiya tizimi asosida to'lanadigan pensiyalarni moliyalashtirishga sarflanadi. Bunda individual jamg'arma schotlari ochiladi va unda ishlovchilarning pensiya badallari aks etadi. Ammo ushbu mablag'lar kapitalizatsiya qilinmaydi va shaxsning mulkiga aylanmaydi.

2. Badallarning qolgan 2,0 % maxsus individual jamg'arma schotiga o'tkaziladi. Ushbu schotdagi mablag'lar sug'urtalangan shaxsning tanloviga ko'ra xususiy fondlardan biriga yoki davlat boshqaruvida bo'lgan fondga berilishi mumkin. Xodim pensiyaga chiqishi bilan kapitallashgan jamg'armasi qaytarib beriladi.

Amalda Shvetsiyada taqsimlanuvchi pensiya tizimi aralash taqsimlanuvchi – jamg'ariluvchi pensiya tizimi bilan almashtirilgan.

Germaniyada taqsimot pensiya tizimi 1891 yilda joriy qilingan bo'lib, o'sha davrdan hozirgacha uning turli ko'rinishlari Yevropa mamlakatlarida, Vengriyada va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlarida qo'llanilmoqda. Germaniyaning pensiya tizimidagi taqsimot tortiluvchi modeli sxemasiga ko'ra aholining iqtisodiy faol qatlami tomonidan to'langan majburiy pensiya badallari hisoblangan pensiya xarajatlari shakllanadi va aholininig iqtisodiy faol qatlamlari o'rtasida taqsimlanadi. Boshqacha qilib aytganda, joriy pensiya xarajatlari joriy daromadlar hisobidan qoplanadi. Ushbu tizim avlodlar birdamligi asosida qurilgan. Bir avlod ichida esa, daromadlar aholining alohida ijtimoiy guruxlari o'rtasida tabaqalanadi.

Germaniyada to'lo'v intizomini rag'batlantiruvchi ball tizimi taqsimot modelini to'ldiradi.

Pensiya ta'minotining ikki bazaviy modeli taqsimot-tortiluvchi va kapitallashgan modellaridir. Mashhur venger iqtisodchisi Y.Kornai taqsimot va kapitallashgan pensiya tizimlari o'rtasidagi farqlar mohiyatini asoslab berdi. Ular o'rtasidagi farq qisman moliyalashtirish texnikasida yuzaga chiqadi. Taqsimot modeli pensianerlarni hozirgi vaqtda amalda bo'lgan aholining iqtisodiy faol qatlami hisobiga ta'minlaydi. Pensiya tizimining kapitallashgan modeli taqsimotdan farqli ravishda insonning o'z mehnati va pensiya jamg'arilishi natijalari bilan uzviy bog'liq.

Chili modeli-kapitallashgan model hisoblanib, ushbu model erkin bozor isloxlari doirasida Chili mutaxassislari tomonidan ishlab chiqildi. 1981- yilda e'lon qilingan farmonga ko'ra, mehnat munosabatlarida ishtirok etgan har bir kishi uchun davlat pensiya ta'minoti bekor qilindi, bir vaqtning o'zida ular xususiy pensiya fondlarining mijoziga aylandi.

Kapitallashgan model sxemasi quyidagicha: pensiya badallarini investitsiya qilishdan va to'plashdan xosil bo'lgan kapital pensiya xarajatlarini qoplashga yo'naltiriladi. Pensiya badallarini kapital to'lo'vchining shaxsiy hisobvarag'ida hisobga olib boradi. Ushbu hisobraqamni pensiya fondlari yoki pensiya kassalari, sug'urta kassalari yoki banklar yuritadi. Pensiya mablag'larini tizimli investitsiya qilish bilan ushbu institutlar investitsiya daromadlariga ega bo'ladi. Kapital yoki yig'ilgan pensiya badallari summasi ularni investitsiya qilishdan olingan daromad pensiya fondi faoliyati xarajatlari, natijasida kapitallashgan pensianing moliyaviy manbasidir. Avlodlar birdamligi asosida qurilgan taqsimot modelidan farqli ravishda kapitallashgan model sug'urta tamoyiliga asoslanadi. Kapitallashgan model "Chili modeli" nomi bilan xalqaro miqyosda mashhur.

Kapitallashgan pensiya modeli davlat pensiyasiga qaraganda o'rtacha 30 foizga yuqori bo'lgan pensiya miqdorini ta'minlaydi.

Yevropa davlatlarida pensiya isloxlari jarayonida shartli jamg'arishotlari yuzaga keldi. U demografik omilning – aholi umri uzayishining va

muddatidan oldin pensiyaga chiqishining pensiya tizimiga nisbatan ta'sirini zaiflashtirish imkonini berdi.

Yevropa mamlakatlarida xususiy fondler pensiya fondlarining mablag'larini boshqaruvchi kompaniyalar raqobat asosida boshqarish huquqini qo'lga kiritadilar.

Bu esa, pensiya fondlari mablag'larini to'lo'vga layoqatlilik darajasi yuqori bo'lgan kompaniyalar mablag'larini ishonchli va daromadli investitsiyalash obektlariga yo'naltiradilar. Pensiya fondlarining mablag'laridan samarali foydalanishlari uchun boshqaruvchi kompaniyalar o'zlarining moliyaviy mablag'lari va mulklari bilan javob beradilar.

Yevropaning taraqqiy etgan mamlakatlarida Pensiya fondlarining aktivlari katta miqdorda bo'lib, yalpi ichki maxsulotga nisbatan yuqori salmoqni egallaydi. Bu esa, ularda pensiya fondlari faoliyatining yaxshi yo'lga qo'yilganligidan dalolat beradi.

Buyuk Britaniya va Gollandiyada pensiya fondlarining katta miqdorda aktivlarga ega ekanligi ularning investitsion faoliyatini Yevropaning boshqa mamlakatlariga qaraganda samarali ekanligidan dalolat beradi. Ammo shu bilan birga ayrim yevropa mamlakatlarida pensiya fondlarini o'zlarigan nisbatan kichik miqdordagi aktivlarga ega ekanligi aholi sonini kamligi, xususiy pensiya tizimlarida ishlovchilarning sezilarli qismini jalb etilganligi kabi omillar bilan izohlanadi.

Jamg'ariladigan pensiya tizimiga o'tishni moliyalashtirish uchun turli mamlakatlarda quyidagi usullardan foydalanildi;

- taqsimlanuvchi pensiya tizimini qisman saqlab qolish. Chunki to'plangan ajratmalarni mavjud pensianerlarga to'lash lozim. Polsha, Vengriya, Shvetsiya, Urugvay va Rossiyada ushbu usuldan foydalaniladi.

- mehnatga haq to'lash fondidan qilinadigan ajratmalar miqdorini oshirish usuli;

- boshqa manbalardan olingan daromadlarni ishlatish usuli. Masalan, Xitoyda loteriyalarni sotishdan olingan daromaddan, Argintinada qo'shilgan qiymat solig'idan foydalaniladi;

- mahalliy byudjetlarning profitsitidan foydalanish usuli;

- davlat mulkini xususiylashtirishdan olingan mablag'larni joriy pensiya majburiyatlarini moliyalashirish uchun ishlatish usuli.

Janubiy Amerikaning Peru, Boliviya va Yevropadan Polsha ushbu usuldan foydalaniladi.

Shunday qilib, taqsimlanuvchi pensiya tizimi xam, jamg'arib boriladigan pensiya tizimi ham kamchiliklarga va afzalliklarga ega. Pensiya siyosati faqat bir pensiya tizimiga asoslanib qolmasligi kerak. Shu sababli, taraqqiy etgan mamlakatlarda har ikkala tizimdan foydalanishga asoslangan uch pog'anali pensiya tizimi shakllanadi.

Majburiy davlat pensiya tizimi. Ushbu tizimning mavjudligi pensianerlar o'rtasida qashshoqlikni oldini olish va qisqartirish imkonini beradi. Majburiy jamg'ariladigan pensiya tizimi. Ushbu tizimda pensiya miqdori pensianerlarning individual schotlarida to'plangan mablag'larga va investitsion daromadlarga bog'liq bo'ladi. Mazkur tizim davlat tomonidan markazlashgan tarzda boshqarilishi mumkin yoki xususiy kompaniyalar, fondler tomonidan boshqariladi.

Ixtiyoriy xususiy pensiyaviy sug'urtalash. XX asrning oxirgi choragi va XXI asrning dastlabki o'n yilligida jahondagi mavjud pensiya tizimlari, ularni tubdan isloh qilish zarurati natijasida bir qancha jiddiy muammolar yuzaga keldi. Pensiya tizimlarini isloh qilish, davlatning jami ijtimoiy siyosatini o'zgartirish bilan birgalikda olib boriladi. Islohatlar jarayonida jahon jamoatchiligining asosiy vazifasi, avlodlar birdamligi tamoyili asosida qurilgan pensiya ta'minotini institutini saqlab qolishdan iborat bo'ldi.

Bu davrda jahondagi rivojlangan mamlakatlarda shakllangan ijtimoiy – iqtisodiy munosabatlar negizlarini asta – sekin almashtirilgan institsional o'zgarishlar yuz berdi. Bu, ijtimoiy munosabatlar rivojidagi taabiy tarixiy jarayon

bo'lib, G'arb jamiyatini o'z taraqqiyotini sanoatning yuqori bosqiciga olib keldi. Bu bosqich texnika taraqqiyotining tubdan jadallashgani, moddiy ishlab chiqarish ro'lining pasayishi, xizmatlar va axborotlar sektorining g'oyat rivojlangani, inson faoliyatining motiv va xarakteri o'zgargani, ishlab chiqarishga tortiladigan yangi turdagi resurslarning paydo bo'lishi, jami ijtimoiy tuzilmaning katta o'zgarishlarga uchraganligi bilan tavsiflanadi. Glaballashuv tendensiyasi sanoati yuqori bosqichdagi jamiyatga xos belgilardan biri bo'lib qoldi.

Demagrafik va iqtisodiy muammolar pensiya tizimlarining asosiy muammolaridan bo'lib qoldi. Buning shunday ekanligini ko'rsatish uchun 3.1-jadval ma'lumotlariga nazar tashlashning o'zi yetarlidir.

3.1-jadval

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida pensiya xarajatlari YaIMga nisbatan²⁰, YAIMga nisbatan foizlarda

Mamlakatlar	Yillar		
	1995	2020 (bashorat)	2050 (bashorat)
AQSH	4,1	5,2	7,0
Yaponiya	6,4	14,3	14,4
Buyuk Britanya	4,5	5,1	4,1

Bunda 1995-yilda pensiya xarajatlarining xissasi AQSHda yalpi ichki maxsulotning 4,1 foizini, Italiyada 13,3 foizini tashkil etgan. Bashoratlarga ko'ra 2050 yilga kelib pensiya xarajatlarining xissasi AQSH yalpi ichki maxsulotining 7,0 foiziga, Italiyada esa 20,3 foiziga yetadi.

Pensiya ta'minotiga ijtimoiy xarajatlarning ko'payishi, birinchi navbatda, jamiyatda aholi yosh tarkibining jiddiy o'zgarishlari – aholining keksayishi bilan bog'liq, bu jarayon 2025-2030 yillarda eng yuqori darajaga yetadi. Aholining keksayishi hozirgi davlatlarda demografik tarkib o'zgarishlaridagi asosiy

²⁰ www.pensionfundsonline.co.uk

omillaridan biri bo'lib, bu aholining umumiy sonida qariyalar salmog'ining ortishi bilan tavsiflanadi.

1960-2000 yillar davomida 65 va undan katta yoshdagi qariyalar salmog'i Yaponiyada deyarli uch marta, Italiyada 2 marta, rivojlangan boshqa mamlakatlarda 1,5 marta o'sgan. 2000 yilda Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida 65 va undan katta yoshdagilarning mehnatga layoqatli yoshdagilarga nisbati 24,5 foizni tashkil etgan.

2025 yilga kelib bu nisbatning 32,8 foiz, 2050 yilga kelib 39,2 foiz bo'lishi kutilmoqda.

3.2-jadval

**Rivojlangan mamlakatlarda 65 yosh va undan katta yoshdagi shaxslar
(mehnatga layoqatli aholi soniga nisbatan foizlarda)²¹**

Mamlakatlar	Yillar		
	1975 yilda	2000 yilda	2025 yilda
Buyuk Britaniya	26,6	24,4	32,8
Shvetsiya	23,5	27,1	41,5
YI bo'yicha o'rtacha	20,7	24,3	32,8
Avstraliya	13,6	18,2	29,2
Kanada	12,9	18,5	32,6
AQSH	16,3	18,6	29,3
Yaponiya	11,6	25,2	49,0

Ikkinchi Jahon urushidan keyingi davrda rivojlangan mamlakatlarning barchasida nasl qoldirish qobilyati ko'ffitsienti, ya'ni tug'ish yoshi ko'ffitsienti pasaygan. Bundan tashqari, ancha keksa yoshdagi nafaqaxo'rlarning umr ko'rishi uzayib bormoqda. Agar 1970 yilda yetakchi rivojlangan mamlakatlarda qariyalar va undan yuqori yoshdagilarning hissasi jami aholining 0,9 dan 2,3 foiz doirasida baholangan bo'lsa, 1990 yilga kelib bu ko'rsatkich 2,4 dan 4,1 foizgacha bo'ldi. 2025 yilda, bashoratlarga ko'ra, jami aholi sonida 80 yoshdagilarning hissasi ushbu mamlakatlarda 4,3 dan 9,3 foizgacha bo'lishi mumkin (3.3-jadval).

²¹ www.pensionfundsonline.co.uk

3.3-jadval

Sanoati rivojlangan mamlakatlarda pensiya yoshidagi shaxslar guruhining aholi tarkibidagi xissasi (foizlarda)²²

Mamlakatlar	Yillar								
	1970-yil			2015-yil			2025-yil		
	65 - yoshdan katta	75 - yoshdan katta	80 - yoshdan katta	65 - yoshdan katta	75 - yoshdan katta	80 - yoshdan katta	65 - yoshdan katta	75 - yoshdan katta	80 - yoshdan katta
AQSH	9,8	3,7	1,8	13,3	6,2	3,8	18,7	8,0	4,3
Kanada	7,9	3,0	1,5	14,3	6,8	4,1	20,7	9,2	5,2
Yaponiya	7,1	2,1	0,9	21,3	10,0	5,7	26,7	15,2	9,3
Fransiya	12,9	4,7	2,3	17,2	9,1	5,6	22,6	11,1	6,3

Aholi yosh tarkibidagi o'zgarishlar mehnatga layoqatli aholiga demografik yuk bo'lib tushadi. Boqimandalik koeffitsienti, ya'ni 24 yoshgacha bo'lgan yoshlar va 65 hamda undan katta yoshdagi qariyalar sonining mehnatga layoqatli aholi (15-64 yosh)ga nisbati doimo o'sib bormoqda. Agar 1990 yilda AQSh va Kanadada xar bir pensionerga shartli beshta ishlovchi, Yaponiya va Yevropa Ittifoqining yetakchi mamlakatlarida to'rt ishlovchi to'g'ri kelgan bo'lsa, 2030 yildan boshlab bir pensionerga: AQSh va Kanadada uch kishi, Fransiya va Buyuk Britaniyada 2,5 kishi, Germaniya va Italiyada 2 kishidan ijtimoiy badallar va soliqlar tulaydiganlar to'g'ri keladi.

Ko'rib o'tilayotgan mamlakatlarda qariyalar hissasi o'sgani holda, ish bilan band bo'lganlar salmog'i qisqarib bormoqda. Bu esa pensiya jamg'armalariga sug'urta badallari undiriladigan soliq bazasining qisqarishiga olib kelmoqda. Bandlik tabiatida ham jiddiy o'zgarishlar yuz berdi, yollanma xodimlarning butun umri davomida bajaradigan mehnat yukining umumiy ishlash qobiliyati davoiyligi 2 marta pasaydi.

²² http://chelt.ru/2010/8-10/tabah_8-10.html Табах А. Внедрение накопительных пенсионных систем.

Qarilik buyicha pensiya xarajatlarning ko'payishi birinchidan, pensiyaga muddatidan oldin chiqish huquqiga ega bo'lgan shaxslar sonining, shu jumladan, ishsizlar hisobiga (Mehnat bozorini maqbullashtirish) kengayishi bilan izoxlandi.

Pensiya yoshiga yetmasdan nafaqaga chiqqanlar xissasi jami nafaqaxo'rlar sonining 20 dan 50 foizgacha bo'lgan miqdorini tashkil etadi. Ikkinchidan, narxlar o'sishga qarab, pensiyalarni indeksasiyalash natijasida pensiyalar miqdorining o'sishi hamda 80 yoshga yetgan shaxslar pensiyalari miqdorining oshirilishi xarajatlarni ko'paytirdi (rivojlangan mamlakatlarda 80 yoshdan oshganlar jami pensionerlar sonining 25-30 foizini tashkil etadi).

Uchinchidan, o'rtacha umr ko'rishning uzayishi natijasida, pensiya olish muddatlari davomiyligiga ortdi.

Asosiy vazifa, mamlakatlarning iqtisodiy taraqqiyotiga yordam ko'rsarishdan iborat bo'lgan Jahon banki pensiya siyosatining mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri muammolari bilan shug'ullanadi. Jahon bankining pensiya siyosatiga qiziqishlari 1980 yillarda Lotin Amerikasi mamlakatlarida, shuningdek, siyosiy rejimlar almashgan mamlakatlarda pensiya ta'minotida muammolar yuzaga kelgan davrlarda kuchaydi. Pensiya tizimlari mushkul ahvolda qolgan ushbu mamlakatlarda Jahon banki bevosita faol harakat olib bordi. Umuman, banklarning ishtiroki ikki shaklda o'z ifodasini topadi;

Birinchidan – tarkibiy qayta tashkil etish uchun qarzlar ajratish. Bu o'rinda pensiyalarning mamlakat soliq-byudjet va iqtisodiy hayotiga jiddiy tasir ko'rsatishini hisobga olmaslik mumkin emas.

Ikkinchidan – investitsiya qarzlari. Ularning asosiy maqsadi, mamlakatlarga tushumlarni yig'ish, to'lo'vlar va tartibga solish nazorati bo'yicha hukumat faoliyatini zamonviylashtirishda, yangilashda yordam ko'rsatishdan iborat.

Pensiya tizimlarini islox qilishni uch variantga bo'lishi mumkin: birinchidan, taqsimot tizimining ayrim parametrlarini islox qilish; ikkinchidan, majburiy jamg'arib boriladigan tizimga o'tish; uchinchidan, bosqichma – bosqich taqsimot va jamg'arma unsurlarini o'zida mujassam etgan ko'p darajali tizimga o'tish.

XX asrning 90-yillari boshida Jahon banki tashabbusi bilan aholining qarishi va pensiya ta'minoti muammolari global kompleks tadqiq etildi. "Aholi qarishi inqirozining oldini olish: qariyalarni muxofaza qilish siyosati va iqtisodiy o'sishga yordam" deb atalgan yakunlovchi dakladda jahonda amalda bo'lgan pensiya tizimlari va ularning rivojlanish istiqbollari muayyan mezonlar nuqtai nazaridan baxolandi; pensiya islohatlariga konseptual yondashuvlar ishlab chiqildi; bu sohada ayrim mamlakatlardagi amaliy ishlar umumlashtirildi.

Hozirgi davrda jahondagi pensiya tizimlarini islox qilishning asosiy yo'nalishlari:

1. Taqsimot (taqsimlovchi) tizimining parametrik tavsiflariga o'zgarishlar kiritish:

– pensiyaga chiqish yosh chegaralarini ko'tarish va zaruriy mehnat staji davomiyligini uzaytirish: masalan AQSH kongresi 2000-2027 yillarida pensiyaga chiqish yoshini 65 yoshdan 67 yoshga ko'tarish to'g'risidagi qarorni tasdiqladi; Portugaliyada pensiyaga chiqish yoshi asta sekin uch yilga, yani 65 yoshga ko'tarildi (2005 yildan erkaklar, 2016 yildan ayollar). Fransiya va Yaponiyada pensiya yoshi 65 yoshga, Shvetsiyada 67 yoshga yetkazildi;

– pensiyalarni indeksatsiyalash tartibini o'zgartirish: Italiyada 1992 yildan, Fransiya esa 1987 yildan pensiyalar ilgarigi kabi ish haqi o'sishi suratlari asosida emas, balki istemol narxlari o'sishi suratlariga qarab indeksatsiyalanadi. Yaponiya 1994 yilda yalpi ish haqi bo'yicha indeksatsiyadan sof ish haqi bo'yicha indeksatsiyalashga, 2000 yildan esa istemol narxlari o'sishi asosida indeksatsiyalashga o'tdi;

– pensiya tayinlash koeffitsientini kuchraytirish (pensiyaning ish nisbati): Fransiya islohotlar natijasida pensiya tayinlashda (pensiya hisoblashda) oxirgi eng qulay 10 yildagi ish haqi emas, balki 25 yillik ish haqi asos qilib olinadi (2008 yilga qadar xar yili bir yilga oshirib boriladi); Italiya jami mehnat staji davomidagi ish xam asos qilib olinadi (ilgari 5 yili olingan);

– bir qator mamlakatlarda sug'urta badallari miqdori oshirilib, ajratmalar olinadigan baza kengaytirilmoqda: masalan, Belgiya, Italiya, Shvetsiya, Shveytsariya, Portugaliyada sug'urta badallarini hisoblashda ish haqi «chegarasi» bekor qilingan; badallar to'lashda tayanch ish haqi miqdoriga mukofotlar va ta'til davri nafaqalari xam qo'shiladi (Fransiya, Gerdmaniya, Gollandiya va Avstriyada bu tartib joriy etilgan).

2. Pensiya tizimlarini tarkibiy islox qilish (jamg'arib boriladigan sxemalarni joriy etish);

– taqsimlovchi va jamg'arib boriladigan pensiya tizimlarini uyg'unlashtirish: Shvetsiyaning yangi pensiya tizimi majburiy taqsimot va jamg'arma tizimlarini, shuningdek, ixtiyoriy pensiya mablag'lari (jamg'armalari)ga asoslangan tizimni o'z ichiga oladi; - majburiy kasbiy jamg'arib boriladigan sxemalarni (tartiblarni) joriy etish va davlat taqsimot tizimini muxtojlikni maxsus pensiya ta'minoti tizimiga aylantirish; bunday tartib, masalan, Avstraliyada amalga kiritilgan; Islandiyada xam davlat pensiya ta'minoti muxtojlik darajasini tekshirishga oid tizimga asoslangan; yakka tartibdagi majburiy jamg'arib boriladigan sxemalarni amaliyotga kiritish: XX asrning 1990 yillarida Lotin Amerikasidagi ko'pgina mamlakatlarda pensiya tizimlari tubdan islox qilindi; bu islohotlarning asosiy umumiy belgisi jamg'arib boriladigan pensiya tizimiga o'tish yoki majburiy jamg'arib boriladigan sxemalarni uz ichiga olgan ko'p darajali modellarni joriy etish bo'lgan. G'arbiy Yevropa standartlariga mos keladigan teran pensiya islohotlari o'tkazilgan mamlakatlardan biri Shvetsiyadir. Bu mamlakatda, taqsimotga asoslangan an'anaviy pensiya tizimi, xam taqsimot, xam jamg'arma unsurlarini o'z ichiga oladigan aralash tizim bilan almashtirilmoqda.

Rivojlangan mamlakatlar hamda o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari (Vengriya, Polsha, Qozog'iston, Latviya, Xorvatiya) xam unversal taqsimot pensiya sxemalarini islox qilmokda, lekin rivojlangan mamlakatlardan farqli holda, bu islohotlar iqtisodiy barqarorlik, moliya infratuzilmasi ytarli darajada rivojlanmagan, yashirin iqtisodiyot avj olgan, sug'urta to'lovlarini yig'ish darajasi

pasaygan zaxoti daromadlarining pastligi ko'p xolatlarda iqtisodiy taraqqiyotning real darajasiga mos kelmaydigan, ko'pdan-ko'p pensiya imtiyozlari saqlanib qolgan sharoitlarda amalga oshirilmoqda. Umuman olganda, milliy pensiya tizimlari doirasida islohot choralari, yo'llarini tanlash demografik, madaniy va siyosiy omillar bilan bog'lanib ketadi (mamlakatda shakllangan pensiya tizimining tabiati, demografik vaziyat xususiyatlari, siyosiy muloxazalar). Masalan, AQSh bemalol badallarning o'rtacha darajasini oshirishi yoki pensiya tayinlash koeffitsientini xiyol kichraytirishi mumkin va unga shularning o'zi yetarli.

Badallar darajasi juda yuqori bo'lgan Italiyada moslashtirish imkoniyatlari, birinchi navbatda, yuqori pensiya tayinlash koeffitsientini pasaytirish bilan bog'liq. Bundan tashqari, Fransiya, Germaniya, Shvetsiyada xam xuddi shu tadbirlarni amalga oshirishga to'g'ri keladi. Pensiyaga chiqish yoshini oshirish Yaponiya, Fransiya va Italiya uchun eng maqbul variant bo'lishi mumkin, chunki bu mamlakatlarda pensiyaga chiqish yoshi nisbatan pastroq.

Jahondagi rivojlangan mamlakatlarda pensiya tizimlarini islox qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar, umuman olganda, extiyotkorlik bilan asta-sekin, muxim tarkibiy o'zgartirish o'rniga, ko'proq parametrik tuzatishlar ko'rinishida o'tkazilmoqda. Ammo shunga qaramay, uni o'tkazishda muayyan qiyinchiliklar xam uchramoqda. Masalan, pensiya yoshini ko'tarish va qariyalar mehnat faoliyatini rag'batlantirish ishsizlik darajasi past bo'lganidagina ma'noga ega bo'ladi, ayni paytda jamg'arib borish tamoyillarini joriy etish faqat pensiya jamg'armalari oqilona investitsiya qilingandagina foyda keltirishi mumkin (masalan, bu mablag'lar davlat qarzi yoki byudjet defitsitiga emas, ishlab chiqarish investitsiyalarini moliyalashga yo'naltirilganda). Farb mamlakatlarida pensiya tizimlarini islox qilishdagi extiyotkorlik va tadrijiylikning sababi shundaki, bu soxadagi xar qanday qat'iy xarakatlar jamoatchilik tomonidan ma'qullanmasligi mumkin, chunki islohotlar pensiya sug'urtasining ijtimoiy xajmidagi va ijtimoiy adolat kabi tub tamoyillarini qayta ko'rib chiqishga olib keladi.

Jahondagi pensiya tizimlari taraqqiyotining hozirgi bosqichida shunday xulosa qilish mumkinki, nodavlat pensiya shakllariga qiziqishning ortib borayotganligiga qaramay, rivojlangan mamlakatlarda pensiya islohotlarining asosiy yo'nalishi, bu shakllangan taqsimot sxemalarini yangi sharoitlarga moslashtirish bo'lib qoldi. Bu borada Yevropa mamlakatlari, AQSh, Yaponiyada muayyan ishlar amalga oshirildi.

Ammo shunga qaramay, davlat xokimiyat vakillari va mutaxassislar orasida tayanch pensiyalarni kafolatlash lozim, ayni paytda nodavlat mulkchilik shaklidagi jamoaviy va yakka tartibdagi pensiya shakllariga keng yul berish kerak emas, degan yondashuv tarafdorlari tobora ko'payib bormoqda. Masalan, AQShda Federal rezerv tizimi ma'lumotlariga ko'ra 90-yidlarda faqat aholining 30 foizi uzoq muddatli jamg'armalarga ega bo'lgan, boshqa ma'lumotlarga ko'ra xonadon xo'jaliklarining faqat 20 foizi o'z kelajagini rejalashtirib, jamg'arma mablag'lari to'plagan, qolganlari davlatga ishongan. Ushbu ma'lumotlar va boshqa omillarni e'tiborga oladigan bo'lsak, fuqarolarning pensiya jamg'armalarini mustaqil shakllantirish zarurligiga ishonitirish uchun pensiya tizimlari islohotchilaridan hali ko'p ish qilish talab etiladi.

Bozor iqtisodiyotining eng muxim shartlaridan biri xar bir shaxsning o'z manfaatlarini birinchi navbatda himoya qilishi, o'z imkoniyatlarini ifodalashidir. Davlat fuqarolar o'z turmush darajalarini oshirishlari uchun ularga tegishli qonunlar tizimi orqali zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratishi va ularning bu boradagi intilishlarini qo'llab-quvvatlashi lozim. Bozor munosabatlari rivojlanishi, iqtisodiyotning davlat va xususiy sektorlari o'rtasidagi o'zaro nisbat o'zgarib borgan sari bu ikki omil, albatta, ijtimoiy ta'minot tizimiga o'z ta'sirini ko'rsatishi kerak.

Jahon tajribasida pensiya ta'minotini moliyalashtirish va boshqarish mexanizmining uch xil turi ko'p uchraydi.

1. Barcha mamlakatlarda keng tarqalgan joriy tushumlardan moliyalashtiriladigan davlat transfert dasturlarini amalga oshirish.

Jamg'ariladigan pensiya tizimining shakillanish evolyutsiyasi²³

Pensiya dasturi	Davr	Mamlakat	Xodisa
Jamg'ariladigan pensiya ta'minoti	1951	Malayziya	Barcha ishchi qatlamini qamrab oluvchi jamg'arma kassasi joriy qilingan
	1980	Chili	Majburiy jamg'ariluvchi pensiya tizimi joriy qilingan.
	1985	Shveytsariya	
	1986	Buyuk Britaniya	
	1990	Daniya	
	1993	Kolumbiya	
	1994	Argintina	
	1997	Meksika	
	1998	Vengriya	
	1999	Polsha	
	2000	Gankong	

2. Ixtiyoriy va majburiy shaxsiy jamg'arma rejalarini amalga oshirish (ixtiyoriy yakka jamg'armalar barcha mamlakatlarda mavjud soliq raxbatlari bilan mustahkamlanadi, bunda ishlovchilar va pensionerlar o'z jamg'armalari bo'yicha investitsion tavakkalchilikka yo'l qo'yadi).

3. Iqtisodiy inqirozdan inflyatsiyadan, jamg'armalarni yo'qotishga va qadrsizlanishga olib keladigan investitsion risklardan himoya qiladigan sug'urta tizimini rivojlantirish.

Mamlakatimizda jamg'arib boriladigan pensiya tizimining tashkil etilishi jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlash, siyosiy barqarorlikni vujudga keltirish va ta'minlab turishning asosiy shart-sharoitlaridan biridir degan xulosaga kelish mumkin.

Respublikamizdagi aholining ijtimoiy ta'minotini kuchaytirish hamda pensionerlarning farovonligini qo'shimcha ravishda oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 21 dekabrda 595-

²³ www.pensionfundsonline.co.uk.

sonli qaroriga binoan “Fuqarolarning jamg’arib boriladigan pensiya ta’minoti to’g’risida”gi qonuni qabul qilindi. Mazkur qarorga binoan quyidagilar belgilandi:

- 2005 yil 1 yanvardan boshlab amaldagi fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti tizimiga qo’shimcha ravishda jamg’arib boriladigan pensiya tizimi joriy etildi;

- 2005 yil 1 yanvardan boshlab fuqarolarning shaxsiy jamg’arib boriladigan pensiya hisob raqami fuqarolarning asosiy ish joyidagi Xalq banki filialida amalga oshiriladi;

- fuqarolarning jamg’arib boriladigan pensiya hisob raqamiga majburiy xar oylik badallar jismoniy shaxslarning qonun hujjatlariga muvofiq hisoblab chiqarilgan daromad soliqi summasidan tegishli ravishda chiqarib tashlangan holda xodimning hisoblangan ish haqi (daromad)ning bir foizi miqdorida amalga oshirish;

- jamg’arib boriladigan pensiya tizimida ixtiyoriylik asosida qatnashadigan fuqarolar tomonidan shaxsiy pensiya hisob raqamlariga badallar miqdori va to’lash muddatlari mustaqil ravishda belgilanishi va boshqalar.

Shuningdek, jamg’arib boriladigan pensiya ta’minoti mablag’larini ko’paytirish maqsadida O’zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi va Markaziy bank boshqaruvining 2006 yil 7-oktyabrdagi 88-son va 282-V-son qarori bilan «Jamg’arib boriladigan Pensiya tizimi mablag’larini investitsiya va kredit resurslari sifatida joylashtirish tartibi to’g’risida»gi Nizomi tasdiqlandi. Ushbu Nizomi O’zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning jamg’arib boriladigan pensiya ta’minoti to’g’risida”gi qonuniga muvofiq ishlab chiqilgan bo’lib, jamg’arilib boriladigan pensiya tizimi mablag’larini investitsiya va kredit resurslari sifatida, shu jumladan moliyaviy vositalarga joylashtirish tartibini belgilab berdi.

Ushbu mablag’lar O’zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi va Markaziy banki nomidan Xalq banki tomonidan omonatchilarning manfaatlarini ko’zlagan holda o’z huquqi va majburiyatlarini amalga oshiradi va Nizom asosida boshqariladi.

Pensiya tizimini moliyalashtirishdagi islohotlarni tezlikda amalga oshirib bo'lmaydi, ularni respublikamizda boshqa islohotlar bilan jumladan, mehnat bozoridagi, soliq tizimidagi, moliya va kredit tizimidagi islohotlar bilan birgalikda amalga oshirish lozim. Pensiya tizimini moliyalashtirish bo'yicha islohotlarni amalga oshirishda milliy urf-odatlarimiz, oilalarga, qariyalarga yordam e'tiborga olinishi kerak. Pensiya tizimini moliyalashtirishda Davlat byudjetidan moliyalashtirish saqlanib qolinishi lozim. Pensiya tizimini moliyalashtirishdagi islohotlarni xar tomonlama mukammal dasturlar orqali amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Islohotlarning bu dasturlari pensiya yoshidagi qariyalarni daromadlarini kafolatlashning samarali mexanizmiga tayanishi zarur.

Pensiya jamg'armalarining moxiyatini belgilashda uch yondashuv ko'rsatiladi, ya'ni uning ijtimoiy ta'minot uchun mo'ljallangan mablag'lar ekanligi; mustaqil moliya-kredit tashkiloti ijtimoiy yo'nalishdagi byudjetdan tashqari jamg'arma ekanligi e'tirof etiladi.

Pensiya jamg'armalarini fuqarolar va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning majburiy va ixtiyoriy jamg'arma badallari, davlatning moliyaviy ishtiroki asosida shakllanuvchi va muayyan jamg'arma tashkil etgan aholi toifalariga to'lo'vlarni amalga oshirish va ijtimoiy himoyalash uchun mo'ljallangan mustaqil pul jamg'armalari sifatida ta'riflash imkonini beradi.

Pensiya ta'minoti moliyaviy resurslarni qayta taqsimlashning yirik oqimi bo'lib, iqtisodiyotda maxsulotlar, resurslar va daromadlarning makroiqtisodiy doiraviy aylanishiga, aholining iqtisodiy faolligini rag'batlantirishga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Pensiya tizimi bilan iqtisodiyotning boshqa qismlari uzviy bog'liq bo'lib, to'g'ri tashkil etilgan pensiya tizimi iqtisodiyotni investitsiyalashning moliyaviy manbasi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

To'lo'vlarni olishga qat'iy ishonch ishlovchini mehnat unumdorligini oshirishga intilishini susaytiradi, degan g'oyalar asosli emas. Ishlovchilarning pensiya jamg'armasiga to'lovlari, iqtisodiy nuqtai nazardan ularning ish haqining bir qismidir. U kishi kuchining qiymatiga kiradi, ammo to'lovlar institutsional

muayyan kechiktirilgan muxlatda amalga oshiriladi. Bu ishlovchilarning pensiya jamg'armasiga qo'ygan va qaytarilishi lozim bo'lgan o'ziga xos maqsadli ulushi, omonatidir. Yollanma ishlovchini samarali mehnatga undovchi sabablarning yuqori darajasi bir tomondan, pensiya miqdorining tegishli yashash minimumiga nisbati, pensiya to'lovlarining xarid imkoniyatiga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, ishlovchining malaka darajasi ishlagan davrlari mobaynida mehnat faoliyatining intensivligi darajasiga bog'liqdir. Pensiya miqdorining mehnat faoliyati mobaynida oladigan ish haqi miqdori bilan bevosita bog'liqligi samarali mehnatga rag'batlantirish imkonini beradi. Bu o'rinda muayyan qonuniyatni aniqlash mumkin, ya'ni pensiya tizimi orqali himoyalash darajasi fuqarolarning individual moliyaviy ishtirokiga to'g'ri, daromadlarni qayta taqsimlash darajasiga teskari mutanosiblikda bo'ladi.

Davlat tomonidan amalga oshiriladigan markazlashtirilgan jamg'arish yoki ishlovchilar ish haqining bir qismini badal ko'rinishida pensionerlar foydasiga undirish pensiya to'lovlari manbaining ishonchli asosini ta'minlaydi. Bu imkoniyat nafaqat emissiya yo'li bilan, balki ijtimoiy siyosat doirasida zaruriy hollarda ish haqi miqdorini joriy ish haqi va pensiya ajratmalariga taqsimlashga tegishli o'zgartirishlar kiritish yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin. Tatbiq etilayotgan avlodlar birdamligi qayta taqsimlash tamoyiliga asoslangan bo'lib, pensiya tizimi ishlovchilarning tegishli moliyaviy muassasalarga xususan, jamg'ariladigan pensiya jamg'armalariga mablag'lar qo'yishini inkor etmaydi.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimiga badallarni qayta taqsimlashning davlat mexanizmi yordami bilan individuallashtirilgan hisob raqamlardan foydalangan holda, moliyaviy ta'minlash, pensiya tizimini tashkil etishning o'ziga xosligi, belgilangan yagona badallarni hisobga olib, pensiya miqdorini belgilash kabilar xosdir. Jamg'arib boriladigan pensiyani olish uchun muayyan jamg'arma stajiga ega bo'lish va qonunda ko'rsatilgan pensiya yoshiga etish zarur. Jamg'arish tamoyiliga asoslangan pensiya tizimida badallar kapitallashtiriladi va pensiya

hisobi individual hisob asosida shakllantirilib boriladi, shaxsiy hisoblarda jamg'arilgan jamg'arma badallari pensiya darajasini belgilaydi.

Jamg'ariladigan pensiya tizimlari Hukumatning moliyaviy kafolatlaridan foydalanadi, ular daromadni ta'minlash imkonini beruvchi moliyaviy bozorlarning ishtirokchilariga aylanadi. Natijada pensiya to'lovlari ishlovchilarning nafaqat pensiyaga chiqqunga qadar bo'lgan ish haqidan, balki, mehnat faoliyati mobaynida to'langan badallari miqdoriga foizni ifoda etadi.

Bir martalik qayta taqsimlashda pensiya tizimidan farqli ravishda jamg'arib boriladigan pensiya tizimida jamg'arma badallari nisbatan yuqori darajada belgilanadi va tegishli zaxira fondi shakllantiriladi. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimining qo'llanishi mavjud pensiya tizimidagi kamchiliklarni kamaytirish va uning afzalligini kuchaytirishga yo'naltirilgandir. Bunday tarkibni umumlashgan uch darajali tizim shaklida tasavvur qilish mumkin:

- davlat nazorati ostida amalga oshiriluvchi umumiy va majburiy pensiya tizimi. Mazkur modelda pensiya miqdori ish haqi miqdoriga bog'liq bo'ladi, ish beruvchi va yollanma ishlovchidan olinadigan badallarni qayta taqsimlash tamoyili asosida moliyalashtiriladi;

- majburiy jamg'arma tizimi orqali beriladigan va minimal jamg'arma stajini "to'plagan" kishilar uchun davlat byudjeti dotatsiyasidan foydalanuvchi ijtimoiy pensiya tizimi.

3.2. O'zbekiston Respubublikasi pensiya tizimini isloh qilishda jahon amaliyotida mavjud pensiya tizimi modellaridan foydalanish imkoniyatlari

Xohlaymizmi yo'qmi yillar o'tib respublikamizda aholi sonini ortishi, pensiya oluvchilar soni ko'payishi turgan gapdir. Shundan kelib chiqib rivojlangan malakatlarning pensiya tizimini o'rganishga va o'zimizga ma'qul tomonlarini qo'llashimiz kerak. Ushbu jadvalga etibor beradigan bo'lsak.

3.5-jadval

Dunyo mamlakatlarida aholi soni o'sish suratlarning o'zgarishi²⁴

Mamlakatlar	Aholi soni (mln.)			Aholi sonini yillik o'rtacha o'sish sura'ti (%)		Yillik o'rtacha o'sish suratining o'zgarishi
	1975 yil	2005 yil	2015 yil	1975-2005 yillar	2005-2015 yillar	6 ustun-5 ustun
1	2	3	4	5	6	7
AQSH	220,2	290,8	329,0	1,0	0,9	-0,1
Buyuk Britaniya	56,2	60,2	62,8	0,2	0,4	+0,2
Germaniya	78,7	82,7	81,8	0,2	-0,1	-0,3
Italiya	55,4	58,6	59,0	0,2	0,1	-0,1
Ispaniya	35,7	43,4	46,0	0,7	0,6	-0,1
Fransiya	52,7	61,0	63,7	0,5	0,4	-0,1
Yaponiya	111,5	127,9	126,6	0,5	-0,1	-0,6
Xitoy	927,8	1313,0	1388,6	1,2	0,6	-0,6
Xindiston	613,8	1134,4	1302,5	2,0	1,4	-0,6
Rossiya	134,2	144,0	136,5	0,2	0,5	-0,7
O'zbekiston	14,0	26,6	30,6	2,1	1,4	-0,7

Jadvaldan ko'rinib turiptiki 1975 yilda hozirgi kunga nisbatan aholini o'rtacha o'sish surati O'zbekiston, Xindiston va Xitoy mamlakatlaridan boshqa mamlakatlarga ko'ra yuqori.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, pensiya tizimini takomillashtirishning eng samarali usullaridan biri bu jamg'arishga asoslangan pensiya tizimini shakllantirishdir. Lekin, bu tizim birdamlik pensiya tizimining o'rnini bosish kerak emas. Jamg'arishga asoslangan pensiya tizimini qo'shimcha, davlatga aholining yashash sharoitini yaxshilash va davlat pensiya tizimi oldidagi majburiyatlarini bajarishda yordam beradigan tizim sifatida ko'rish lozim. Masalan, jamg'arishga asoslangan pensiya tizimi imtiyozlarni bekor qilish o'rnini qoplashi mumkin. Bundan tashqari, jamg'arishga asoslangan pensiya jamg'armasi mamlakat iqtisodiyoti uchun samarali investitsiya manbaidir. Buni juda ko'p mamlakatlar tajribasi asosida ko'rish mumkin. Masalan, Chilida iqtisodiyotning rivoji uchun ketayotgan moliyaviy manbalarning asosiy qismi aynan jamg'arishga asoslangan pensiya jamg'armalari tomonidan ta'minlanadi.

²⁴ www.pensionfundsonline.co.uk.

Shuni alohida takidlash kerakki, jamg'arishga asoslangan pensiya jamg'armalarini tashkil etish hamda unda ishtirok etish butunlay ixtiyoriy bo'lgan nodavlat pensiya jamg'armalari tarmoqlarini yaratish orqali amalga oshirilishi lozim. Albatta, bunday jamg'armalarni tashkil etish qoidalarini ta'minlovchi va faoliyat jarayonini boshqarib turuvchi qonunlar talab qilinadi. Ularning investitsion faoliyatini esa maxsus boshqaruvchi kompaniyalar orqali amalga oshirish mumkin. Bu esa, mablag' qo'yishning samaradorligini va uning saqlanishi kafolatini ta'minlovchi asosiy shart hisoblanadi.

Fikrimizcha, bunday tizimni bosqichma-bosqich yaratish kerak. Bosqichma-bosqich deyilganda, quyidagi choralarning ketma-ket amalga oshirilishi tushuniladi:

- pensiya jamg'armalarining himoyasini ta'minlab beruvchi va nodavlat pensiya tizimi ishtirokchilarining munosabatlarini boshqarib turuvchi qonunlar va me'yoriy hujjatlarni qabul qilish;

- davlat pensiya tizimiga bo'lgan majburiy mexanizmni mukammallashtirish hisobiga ish beruvchilar nodavlat pensiya tizimida ishtirok etishiga shart-sharoitlar yaratib berish;

- yirik korxona xodimlari uchun nodavlat pensiya jamg'armalarini shakllantirish.

Davlat ushbu tizimni yaratish bo'yicha tashabbuskor va ular faoliyatining qonuniyligini ta'minlovchi kafil bo'ladi. Masalan, jamg'arishga asoslangan pensiya tizimida juda ko'p moliyaviy mablag'lar yig'iladi va davlat tomonidan belgilanadigan "o'yin koridori" moliyaviy piramidalar paydo bo'lishining oldini olishi va ular faoliyatining aniq qonunlarga asoslanganligini belgilash hamda mablag' qo'yishdagi xavf-xatarlarning minimalligini ta'minlab beradi.

Davlatning xususiy pensiya jamg'armalarini boshqarishdagi asosiy choralari quyidagilar hisoblanadi:

- jamg'armalar faoliyatini litsenziyalash;
- ularning moliyaviy xolatini doimiy monitoring qilish;

- jamg'armalarda majburiy buxgalteriya hisobini olib borishni tekshirish va xar yili mustaqil auditni o'tkazish;

- moliyaviy xavf-xatar darajasi katta bo'lgan loyihalarga kapital qo'yishning oldini olish maqsadida pensiya aktivlarini saralash ustidan nazorat qilish.

Nodavlat pensiya jamg'armasi o'z mulki va aktivlari bilan barcha ishtirokchilar oldida ma'suliyatni va javobgarlikni oluvchi mustaqil yuridik shaxs bo'ladi. Davlat bunday pensiya jamg'armalarining qarzlarini bo'yicha majburiyatni o'z bo'yniga olmasligi kerak. O'z navbatida, pensiya jamg'armasi xam davlat majburiyati uchun javobgar emas. Pensiya jamg'armasi tomonidan beriladigan pensiya miqdori pensionerning qo'ygan mablag'i miqdori va bu mablag'larni investitsiyalash evaziga olingan daromad miqdori bilan uzviy bog'liq bo'lishi lozim.

O'tish davrining xususiyatlarini hisobga olgan holda nodavlat pensiya jamg'armalari, xech bo'lmaganda birinchi bosqichlarida iqtisodiy va moliyaviy jihatdan qudratli korxonalar yoki tijorat banklari tomonidan tashkil etilishi lozim. Bunda soxa xudud jihatdan bir nechta korxonalarning pensiya jamg'armalari korporativ jihatdan birlashishi xam mumkin. Aytish kerakki, nodavlat pensiya jamg'armalarining faoliyati pensiya badallarini yig'ishga, pensiya zaxiralarini qayta joylashtirishga, pensiya majburiyatlarini hisoblashga va nodavlat pensiya jamg'armasi ishtirokchilariga pensiya to'lashga qaratilishi lozim. Bunday faoliyatni yuritish uchun davlatdan ruxsat olish majburiy bo'lishi kerak.

Nodavlat pensiya jamg'armalariga badallar o'tkazish korporativ shartnomalar asosida ish beruvchi va ishchi tomonidan bajarilishi zarur. Bunday jamg'armalar faoliyatida ishtirok etish uchun fuqarolarni jalb qilishda soliqqa tortishga aloqador usullardan foydalanish lozim.

Nodavlat pensiya jamg'armalarida ishchilar va ish beruvchilar ishtirokining ijobiy tomonlari quyidagilardan iborat:

- keksayganda o'ziga davlat pensiyasidan tashqari yetarli mablag'larni yig'ish imkoniyati;
- yig'ilgan mablag'larning jamg'arma raxbariyati va maxsus boshqaruv kompaniyalari tomonidan sifatli boshqarilishi natijasida ularning ko'paytirilishi;
- qatnashchilar bilan jamg'arma o'rtasidagi moliyaviy munosabatlar jarayonining qulayligi;
- moliyaviy majburiyatlarning xususiy pensiya jamg'armasi ishtirokchilari o'rtasida tasdiqlanishi;
- daromadlarning soliqqa tortish bazasi qisqarishi hisobidan joriy soliq to'lovlarining kamayishi;

Nodavlat pensiya jamg'armalarini yaratishning xorij tajribasi shuni ko'rsatadiki, ish beruvchilarning undagi ishtiroki bir qator shart-sharoitlar bilan bog'liqdir:

- korxonaning malakali kadrlar saloxiyatini saqlab qolishiga va uni mustahkamlashga urinishi (ba'zi ish beruvchilar o'z ishchilari uchun pensiya jamg'armasiga to'lovni amalga oshirishda ma'lum imtiyozlar yaratadi);
- xususiy pensiya jamg'armalarida ishtirok etayotgan ishchilar uchun badal to'lovini amalga oshirish evaziga firmalarning soliq to'lovlari miqdorining kamayishi (AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya va boshqa G'arbiy Evropa mamlakatlarida korxonalarining soliqqa tortiladigan badallari ularning o'z xodimlari uchun xususiy pensiya jamg'armalariga o'tkazgan badallarining umumiy miqdoriga kamaytiriladi. Keyinchalik soliqlar pensiya jamg'armasi ishtirokchisi bo'lgan xodim tomonidan qo'shimcha pensiya to'lovlari olinishi paytida ushlab qolinadi).

Hozirgi sharoitda aholining ijtimoiy himoya turlari kengayib, uning qo'llanish asoslarini tubdan o'zgartirish talab qilinayotgan bir paytda xizmat ko'rsatilayotgan aholi soni va sarflanayotgan mablag' miqdori jihatidan pensiya ta'minoti aholini ijtimoiy himoyalashda asosiy o'rinni egallaydi.

Pensiya yoshidagi shaxslarning moliyaviy ta'minoti manfaatlarini va iqtisodiy usishni oqilona ta'minlash uchun uch kurinishdagi pensiya tizimlari parallel rivojlanishi lozim:

- davlat tomonidan boshqariladigan taqsimlovchi tizim. Bu tizim jami ishlovchilarning majburiy qatnashuvini nazarda tutadi va keksalarning qashshoqlashuviga yo'l qo'ymaydi;

- xususiy boshqaruvda bo'lgan majburiy jamg'arib boriladigan tizim;

- ixtiyoriy jamlarib boriladigan tizim.

Pensiya tizimining uch darajasi qariyalarni siyosiy va iqtisodiy vaziyatlardagi noma'lumliklar (Hukumat yoki bozor inqirozlari, mehnat va kapitalning nisbiy narxlaridagi o'zgarishlar)dan kelib chiqadigan xatarlardan ishonchliroq himoya qiladi. Chunki bu darajalar boshqaruv turlari (xususiy, davlat), moliyalash manbalari (kapital va mehnat), investitsiya strategiyalarini (aktsiya va obligatsiyalar) uzaro uyg'unlashtiradi.

Jahon banki tomonidan turli mamlakatlar uchun ko'p darajali pensiya tizimiga o'tish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi. Xususan, davlat taqsimot dasturlariga ega bo'lgan va keng aholi qatlamlari qamrab olinadigan mamlakatlar, shuningdek, demografik muammolari mavjud bo'lgan mamlakatlar uchun birinchi qadam - davlat pensiyalari islohotlarini o'tkazish bo'lishi kerak. Buning uchun pensiyaga chiqish yoshini oshirish, imtiyozli pensiya tayinlash shartlarini qat'iylashtirish, kechroq pensiyaga chiqishni rag'batlantiruvchi sharoitlarni yaratish, pensiya belgilash me'yorlarini o'zgartirish va boshqa chora-tadbirlar o'tkazilishi lozim.

Ikkinchi qadam – ikkinchi majburiy jamg'arib boriladigan darajani yaratishni nazarda tutadi.

Birinchidan, davlat darajasi miqyosini asta-sekin cheklab, badallarni ikkinchi majburiy darajaga qayta taqsimlash yoki davlat pensiyalarini saqlab qolish yo'li tanlanadi. Bunday bosqichma-bosqich o'tish iqtisodiy xamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OESR) mamlakatlarida amalga oshirila boshladi. O'tish

iqtisodiyoti mamlakatlarida, Rossiyadan tashqari, Jahon banki tavsiyalari Vengriya, Latviya va Qozog'istonda ko'proq e'tiborga olingan.

Ikkinchidan, eski tizim doirasida to'lanmay yig'ilib qolgan qarzlarni e'tirof etish va ularni to'lash majburiyatini olish va ayni paytda tamomila yangi tizimni yaratish (Chili va boshqa bir qator Lotin Amerikasi mamlakatlari shu yo'lni tanladi). Barcha rivojlangan mamlakatlarda nodavlat jamg'arma tizimlariga e'tibor katta va ularni asta-sekin pensiya sug'urtasi tizimiga kiritib berish nazarda tutilgan. Masalan, Yevropa Ittifoqining rasmiy hujjatlariga ko'ra 1998-yildan 2020-yilgacha bo'lgan davrda pensiya to'lovlarida taqsimot tizimi xissasi 84 foizdan 64 foizga tushadi, ayni paytda jamg'arma tizim xissasi 12 foizdan 29 foizga ko'tariladi, xususiy ixtiyoriy pensiya sug'urta xissasi uch marta ortib, 1,5 foizdan 4,5 foizga etadi.

III bob bo'yicha xulosa

Shunday qilib xulosa qiladigan bo'lsak, pensiya tizimini islox qilish mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatimizda o'tkazilayotgan islohotlar barcha jabhalarni, jumladan, pensiya ta'minotini xam qamrab oladi. Chunki barcha islohotlarning asl maqsadi, insonga munosib turmush sharoitlarini yaxshilashdan iboratdir. Mazkur vazifalarning ijobiy hal etilishi jamg'arib boriladigan pensiya tizimini rivojlanishiga xam bog'liqdir. Nisbatan zamonaviy va samarali pensiya tizimlaridan biri jamg'arib boriladigan pensiya tizimi hisoblanadi. Ammo shuni takidlab o'tish zarur, O'zbekistonda jamg'arma pensiya mablag'laridan investitsion yo'nalishlarida foydalanishda bir qator mummolar mavjud va jamg'arib boriladigan pensiya tizimini rivojlantirish va takomillashtirishda quyidagi vazifalarni hal etish zarur:

1. Pensiya yoshidagi odamlarning daromadlarini samarali va adolatli tarzda saqlanishini ta'minlash, to'lanadigan pensiya badallari va beriladigan pensiya miqdorlari o'rtasidagi bog'liqlik darajasini oshirish, uzoq muddatli mablag'lardan

investitsion yo'nalishlarida foydalanishni rivojlantirish va shu orqali fuqarolarni daromadlarini yanada oshirish.

2. Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan Davlat jamg'arib boriladigan pensiya fondi tashkil etilishi lozim. Ushbu fond fuqarolarning individual pensiya schyotlarini yuritishi va jamg'arma mablag'laridan samarali foydalanish ustidan nazorat olib borishi lozim. Fond Kengashiga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Markaziy bankining mansabdor shaxslari va malakali mutaxassislari kiritilishi lozim. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Markaziy Banki Jamg'arma mablag'larini ishonchli moliyaviy instrumentlarga joylashtirilayotganligi ustidan nazoratni olib borishlari lozim.

3. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi tashkiliy jihatdan murakkab bo'lib, aholi pensiya tizimi to'g'risida yetarli bilimga ega bo'lishi uchun ommaviy axborot vositalarida, korxona, tashkilotlar va mahalla fuqarolar yig'inlarida tushuntirish va targ'ibot ishlarini kuchaytirish lozim. Jamg'arib boriladigan ixtiyoriy pensiya badallarini ko'paytirish maqsadida fuqarolarni jamg'arib boriladigan shaxsiy hisob varaqlaridagi summalarining inflyatsiya darajasidan ko'p miqdorlarda va uzluksiz ko'payib borishini ta'minlanishi bo'yicha Xalq banklarini ma'lumotlari e'lon qilib borilishi lozim.

4. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti uchun xodimlardan undiriladigan badal miqdorining dastlab kam darajada (oylik ish haqining bir foizi miqdorida) belgilanishi va kelgusida uning miqdorini Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan oshirib borilishi imkoniyatidan kelib chiqib, investitsiya va kredit resurslari sifatida, shuningdek moliyaviy vositalarga joylashtirishni ko'paytirish uchun xodimlardan undiriladigan badal miqdorini hozirgi sharoitda oylik ish haqidan 2 foiz miqdorida belgilash taklif etiladi. Davlat va shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlari summalari o'rtasidagi farqni qisqartirish, fuqarolarni pensiya ta'minotini jamg'armaga to'langan badallariga bog'liqligini oshirish uchun keyinchalik xodimlarni ish xaqalaridan undiriladigan badal foizlarini oshirib borish lozim deb hisoblaymiz.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, aholining turmush darajasi va fuqarolarning farovonligi ko'rsatkichlari uning hayhot kechirishi uchu zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlar bilan ta'minlanganlik holati hamda kishilar ehtiyojining bu ne'matlar bilan qondirilishi darajasi orqali namoyon bo'ladi.

Pensioner va nogironlarning turmush darajasini va hayot sifati darajasini yanada oshirish hamda ijtimoiy muhofazasini mustahkamlash, davlat pensiya tizimini barqaror rivojlantirish, maqbul ijtimoiy muhitni shakillantirish yo'li bilan fuqorolarni kafolatlangan davlat pensiyalai bilan ta'minlash hamda bu borada joylardagi shart-sharoitlarni yaxshilash yuzasidan bir qancha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish zarur.

Mamlakatimizda jamg'arib boriladigan pensiya tizimining tashkil etilishi jamiyatda ijtimoiy adolati ta'minlash, siyosiy barqarorlikni vujudga keltirish va ta'minlab turishning asosiy shart-sharoitlaridan biridir.

Respublikamizda pensiya tizimini moliyalashtirish borasidagi islohatlar mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, mehnat bozoridagi, soliq tizimidagi, moliya va kredit tizimidagi islohotlar bilan birgalikda milliy urf-odatlar, kam ta'minlangan oilalarga, qariyalrga yordam e'tiborga olingan holda har tomonlama mukammal dasturlar orqali amalgam oshirishni taqozo etadi. Islohatlarning bu dasturlari pensiya yoshidagi qariyalrni dromadlarini kafolatlashning samarali mehanizimiga tayanishi zarur.

Pensiya jamg'armalarini fuqorolar va xo'jalik yurituvchi subyektlarning majburiy va ixtiyoriy jamg'arma badallari, davlatning moliyaviy ishtiroki asosida shakillanuvchi va muayyan jamg'arma tashkil etgan aholi toifalariga to'lo'vlarini amalgam oshirish va ijtimoiy himoyalash uchun mo'ljallangan mustaqil pul jamg'armalari sifatida ta'riflash imkonini beradi.

Pensiya ta'minoti moliyaviy resurslarni qayta taqsimlashning yirik oqimi bo'lib, iqtisodiyotda mahsulatlar, resurslar va daromadlarning makroiqtisodiy

doiraviy aylanishiga aholining iqtisodiy faolligini rag'batlantirishga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Pensiya tizimi bilan iqtisodiyotning boshqa qismlari uzviy bog'liq bo'lib, to'g'ri tashkil etilgan pensiya tizimi iqtisodiyotni investitsiyalashning moliyaviy manbasi bolib xizmat qilishi mumkin.

Ishlovchilarni pensiya jamg'armasiga to'lo'vlari, iqtisodiy nuqtai nazardan ularning ish haqining bir qismidir. U ishchi kuchinig qiymatiga kiradi, ammo to'lo'vlar institsional muayyan kechiktirlgan muhlatda amalgam oshiriladi. Bu ishlovchilarning pensiya jamg'armasiga qo'ygan va qaytarilishi lozim bo'lgan o'ziga hos maqsadli ulushi, omonatidir. Yollanma ishlovchini samarali mehnatga undovchi sabablarning yuqori darajasi bir tomondan, pensiya miqdorining tegishli yashash minimumiga nisbati, pensiya to'lo'vlarningxarid imkoniyatiga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, ishlovchining malaka darajasi ishlagan davrlari mobaynida mehnat faoliyatining intensivligi darajasiga bog'liqdir. Pensiya miqdorining mehnat faoliyati mobaynida oladigan ish haqi miqdori bilan bevosita bog'liqligi samarali mehnatga rag'batlantirishimkonini beradi. Bu o'rinda muayyan qonuniyatni aniqlash mumkin, yani pensiya tizimi orqali himoyalashdarajasifuqorolarning individual ishtirokiga to'g'ri, daromadlarni qayta taqsimlash darajasiga teskari munosabatlikda bo'ladi.

Davlat tomonidan amalga oshiriladigan markazlashtirilgan jamg'arish yoki ishchilar ish haqining bir qismini badal ko'rinishda pensionerlar foydasiga undirish pensiya to'lo'vlari manbayining ishonchli asosini ta'minlaydi. Bu imkoniyat nafaqat emissiya yo'li bilan, balki ijtimoiy siyosat doirasida zaruruiy hollarda ish haqi miqdorini joriy qilish va pensiya ajratmalariga taqsimlashga tegishli o'zgartirishlar kiritish yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin. Tatbiq etilayotgan avlodlar birdamligi qayta taqsimlash tamoyiliga asoslangan bo'lib pensiya tizimi ishlovchilarning tegishli moliyaviy muassasalarga, xususan, jamg'ariladigan pensiya jamg'armalariga mablag'lar qo'yishini inkor etmaydi.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimiga badallarni qayta taqsimlashning davlat mehanizimi yordami bilan individuallashtirilgan hisobraqamlardan

foydalangan holda, moliyaviy ta'minlash, pensiya tizimini tashkil etishning o'ziga xosligi, belgilangan yagona badallarni hisobga olib, pensiya miqdorini belgilash kabilar xosdir. Jamg'arib boriladigan pensiyani olish uchun muayyan jamg'arma stajiga ega bo'lish va qonunda ko'rsatilgan pensiya yoshiga yetish zarur. Jamg'arish tamoyiliga asoslangan pensiya tizimida badallar kapillashtiriladi va pensiya hisobi individual hisob asosida shakillantirilib boriladi, shasiy hisoblarda jamg'arilagan jamg'arma badallari pensiya darajasini belgilaydi.

Ijtimoiy muhofazaning "Iqtisodiyot inson uchun" tarzida bo'lishi lozim bo'lgan zamonaviy iqtisodiyotga o'tish uchun shunday samarali tizim zarurki, u har bir kishining mehnat salohiyatidan uning ijtimoiy-iqtisodiy maqomidan, qat'i nazar, pensiya ta'minoti tizimidan foydalanish imkonini bersin. Faqat mana shundagina inson salohiyatidan samarali foydalanish, aholi daromadlarini ko'paytirish hamda "ertangi kunga ishonch" bo'lishiga erishish mumkin.

Ishda mavzu doirasida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. O'qituvchilarga agarda ayollarning staji kamida 20 yil, erkaklarda esa kamida 25 yil mehnat stajiga ega bo'lsa, pensiyaga chiqish imkoni bo'lsa. Buning natijasida bo'sh ish o'rinlari yaratiladi, ishlaydigan bo'lsa ish haqini 50 foizini olish mumkin.

2. Fuqorolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotiga bizlar bilamizki majburiy badal meyorlari 1% hisoblanadi. Mening taklifim hodimning ish haqidan yana 1% olish va sekin-astalik bilan ushbu miqdorni ko'paytirish zarur. Buning natijasida hodim keksayganda kambagallikdan, kimgadir yoki davlatning ijtimoiy yordamiga ehtiyoj sezmaydi. Buning natijasida davlat byudjetini va pensiya jamg'armasining byudjetining difitsiti kelib chiqmaydi.

3. Biz bilamizki, mamlakatimizda ishlaydigan pensionerlarga hozirgi kunda o'z pensiasining 50 foizi beriladi. Mening taklifim agarda fuqoro pensioner bo'lsa va ishlasa fuqoroga pensiya umuman berilmasligi lozim. Buning natijasida Pensiya Jamg'armasi daromadlari oshadi.

4. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimi mablag'lari fuqarolarni ixtiyoriy pensiya badallari hisobiga xam shakllanishini hisobga olib, ixtiyoriy pensiya badallarini rag'batlantirish maqsadida, jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga ixtiyoriy to'langan badal summolari respublikada ish xaqlari miqdorlari oshirilgan holatlarda mutanosib ravishda oshirib borilishi lozim.

5. Mamlakatning ko'p darajali pensiya tizimiga o'tishiga qarab jamg'arib boriladigan pensiya tizimini boshqarish, qonunchilik bazasini takomillashtirish, hisob-kitoblarni boshqarish, badallarni yig'ish va pensiya tulovlarini amalga oshirilishi ustidan davlat nazoratining kuchaytirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

6. Moliya bozorlarini lozim darajada tartibga solish nuqtai nazaridan Pensiya mablag'larini investitsiyalash uchun dastak-vositalarni kengaytirish lozim.

7. Nodavlat pensiya fondlari qatnashchilari huquqlarini himoya qilishda mamlakat qonunchiligini Evropa hamjamiyati standartlariga va Xalqaro Mehnat tashkiloti talablariga muvofiqlashtirish; pensiya shartnomasining shakli va mazmuniga qo'yiladigan talablarni ravshanlantirish; mehnat qobiliyatini yo'qotganlikni individual baholash uslubiylatini ishlab chiqish va imtiyozli pensiyalar tariflarini xodimning ish haqiga mutanosib (proportsional) belgilash; ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish uchun rag'batlantirish omillarini yaratish kerak.

Shunday qilib, yuqorida ko'rsatilgan ustuvor yo'nalishlarni amaliyotga tadbiq etish, birinchidan, pensiya jamg'armasi moliyaviy barqarorligini ta'minlashga, ikkinchidan, pensionerlarning iqtisodiy farovonligining oshishiga yordam beradi.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

I. Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ва методологик аҳамиятга молик нашрлар

- 1.1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Т., Ўзбекистон 2014.
- 1.2. Ўзбекистон Республикасининг Мехнат кодекси, 1995 йил 25 декабр.
- 1.3. Ўзбекистон Республикасининг Солиқ кодекси, 2007 йил 28 декабр.
- 1.4. Ўзбекистон Республикасининг Бюджет кодекси, 2013 йил 26 декабр.
- 1.5. Ўзбекистон Республикасининг «Фуқароларнинг давлат пенсия таъминоти тўғрисида» ги Қонуни, 1993.
- 1.6. Ўзбекистон Республикасининг «Фуқароларнинг жамғариб бориладиган пенсия таъминоти тўғрисида» ги Қонуни, 2004.
- 1.7. Ўзбекистон Республикасининг «Солиқ ва бюджет сиёсатининг 2015 йилга мўлжалланган асосий йўналишлари қабул қилинганлиги муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида» ги Қонуни. 2014.
- 1.8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2009 йил 30 декабрдаги «Фуқароларнинг пенсия таъминоти тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» ги № 4161-сонли Фармони.
- 1.9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2009 йил 30 декабрдаги «Ўзбекистон республикаси молия вазирлиги ҳузуридаги бюджетдан ташқари пенсия жамғармасининг ташкилий тузилмасини шакллантириш чора-тадбирлари тўғрисида» ги ПҚ-1252-сонли Қарори.
- 1.10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2014 йил 4 декабрдаги «Ўзбекистон Республикаси 2015 йилги асосий макроиктисодий кўрсаткичлари ва Давлат бюджети параметрлари тўғрисида» ги 2270- сон қарори.

1.11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2015 йил 22 декабрдаги «Ўзбекистон Республикаси 2016 йилги асосий макроиктисодий кўрсаткичлари ва Давлат бюджети параметрлари тўғрисида»ги 2455 - сон қарори.

1.12. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2004 йил 21 декабрдаги «Фуқароларнинг жамғариб бориладиган пенсия таъминоти тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунини амалга ошириш чоратadbирлари ҳақидаги 595-сон Қарори.

1.13. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2004 йил 21 февралдаги «Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги ҳузуридаги бюджетдан ташқари Пенсия жамғармаси тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида» ги 30-сон Қарори.

1.14. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2010 йил 19 февралдаги «Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги ҳузуридаги бюджетдан ташқари Пенсия жамғармаси тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида» ги 30-сон Қарори.

1.15. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2010 йил 24 мартдаги «Ўзбекистон Республикаси ҳукуматининг айрим қарорларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш, шунингдек баъзиларини ўз кучини йўқотган деб ҳисоблаш тўғрисида» ги 52-сон Қарори.

1.16. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил 22 февралдаги «Чет элда ишлаётган Ўзбекистон Республикаси фуқаролари ҳамда иш вақтини ҳисобга олиб бўлмайдиган шахсларнинг айрим тоифалари томонидан Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги ҳузуридаги бюджетдан ташқари Пенсия жамғармасига суғурта бадаллари тўлаш тартибини, шунингдек уларнинг пенсияни ҳисоблаш учун олинадиган иш стажини ва иш ҳақи миқдорини ҳисобга олиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида»ги 46-сонли Қарори.

1.17. Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги, Давлат солиқ комитаси ва Марказий банк бошқарувининг 2011 йил 9 августдаги қарорлари билан “ЯИТни тақсимлаш, шунингдек харажатларни қоплаш бўйича суммаларнинг тўланишини ва юридик шахсларнинг давлат ижтимоий суғуртаси харажатлари бўйича тўловларни амалга ошириш тартиби тўғрисида”ги Низом.

1.18. Ўзбекистон Республикаси Молия вазирининг 6-сон буйруғига Илова: “Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги ҳузуридаги бюджетдан ташқари Пенсия жамғармаси томонидан пенсия, нафақа ва бошқа тўловларни тўлашни ташкил этиш тартиби тўғрисидаги Йўриқнома”, №2657, 2015 йил 30 январ.

1.19. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2015 йил 26 августдаги Пф-4751-сон «Иш ҳақи, пенсиялар, стипендиялар ва нафақалар миқдорини ошириш тўғрисида»ги фармони бўйича пенсияларни қайта ҳисоблаш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлигининг буйруғи.

1.20. Каримов И.А. Конституциямизнинг 23 йиллигига бағишланган “Асосий вазифамиз – жамиятимизни ислоҳ этиш ва демократлаштириш, мамлакатимизни модернизация қилиш жараёнларини янги босқичга кўтаришдан иборат” номли маърузаси, 2015 йил 6 декабр.

1.21. Каримов И.А. “Ўзбекистон иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш йўлида”.- Т.: “Ўзбекистон” 1995.

1.22. Каримов И.А. “Ўзбекистон XXI асрга интилоқда”. - Т.: “Ўзбекистон”, 1999.

1.23. Каримов И.А. Асосий вазифамиз – Ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир. -Т.: Ўзбекистон. 2010.

1.24. Каримов И.А. “Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади”. – Т.: Ўзбекистон, 2011.

- 1.25. Каримов И.А. “Бош мақсадимиз – кенг кўламли ислохотлар ва модернизация йўлини қатъият билан давом эттириш”. - Т.: “Ўзбекистон”, 2013.
- 1.26. Абдурахмонов Қ.Х. Меҳнат иқтисодиёти. Дарслик. Тошкент. Меҳнат. 2004.
- 1.27. Абдурахмонов Қ.Х., Тоҳирова Х.Т., Шарипов Б.М. Аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш. – Тошкент, 2006.
- 1.28. Абдурахмонов Қ.Х., Холмўминов Ш.Р., Хайитов А.Б. Аҳоли даромадлари ва уларни давлат томонидан тартибга солиш. Ўқув қўлланма. – Т.: ТДИУ. 2007.
- 1.29. Аллаяров Ш., Тошмухамедова Д. “Давлат пенсия таъминоти”, ўқув қўлланма, Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2015.
- 1.30. Ваҳобов А.В., Маликов Т.С. Молия: умумназарий масалалар. Ўқув қўлланма.-Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2008.
- 1.31. Воронин Ю.М. Государственный финансовый контроль: вопросы теории и практики. – М., 2005.
- 1.32. Ибрагимов А.К., Сугурбаев Б.Б. “Бюджет назорати ва аудити”, ўқув қўлланма, Т.: infoCOM.UZ МЧЖ нашриёти, 2010.
- 1.33. Қосимова Г., Каримова З. “Бюджетдан ташқари фондлар”. Ўқув қўлланма. –Т.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2009.
- 1.34. Ламперт Х. Социальная рыночная экономика. Германский путь. М., - 1999.
- 1.35. Мартынова В.А., Шведская модель современного постиндустриального развития: новые проблемы и характеристики социального развития. М.,: ИМЭМО РАН, 2006.
- 1.36. Ўлмасова А., Ваҳобов А.. Иқтисодиёт назарияси. Дарслик. – Т.: Шарқ, 2006.
- 1.37. Умурзаков Б.Х. Проблемы пенсионного обеспечения в условиях рыночных отношений. Ташкент-2005. «Фан».

1.38. Финансы, налоги и кредит. Учебник. Изд. 2-е, доп. и перераб. /Под ред. д.э.н., проф. И.Д. Мацкуляка. – М.: Изд-во РАГС, 2007.

1.39. Яхшибоев Ғ.. Молиявий назорат// Молия:умумназарий масалалар. Ўқув қўлланма.-Тошкент:“IQTISOD-MOLIYA”, 2008.

II. Монография, илмий мақола, патент, илмий тўпламлар

2.1. Ageing Report / European Commission. 2009; Social Programs throughout the World / Social Security Administration and International Social Security Association.2011.

2.2. Андерсен Э. Рекомендации правительствам и парламентам стран СНГ по вопросам политики в области социального обеспечения в зарубежных странах. TACIS 1/905-1994.

2.3. Арустамян Г.Н.. Организационно-экономические механизмы повышения качества социальных услуг: автореферат ... к.э.н. – М.: МГУ им. М.В. Ломоносова, 2012.

2.4. Далимов Р.Т., Мировой опыт реформирования пенсионной системы и его использование в условиях переходной экономики: Дис.кан.экон.наук. : 08.00.01/ Равшанбек Турабекович Далимов; МВ и ССО РУз, Нац.ун-т Узбекистана им.М.Улугбека. – Утв.22.05.2003.

2.5. Забиходжаев Р., Навотный А., Набиходжаев А., Файзуллаев Я., У.Абдурахманов. Совершенствование пенсионной системы и возможности создания негосударственных накопительных пенсионных фондов в Узбекистане. Экономическое обозрение. №10-11 (38-39) 2002. 3-10 стр.

2.6. Қосимова Г.А., Ботиров А.А.Жамғариб бориладиган пенсия таъминоти. Монография. Т.: Тамаддун. 2015.

2.7. Мажидов Н.М., Ўзбекистон Республикасида ижтимоий суғурта тизимини ислоҳ қилиш (пенсия тизими мисолида): Дис.икт.фан.ном.: 08.00.01/ Нурали Махмудович Мажидов; Мирзо Улуғбек номидаги Ўзб.Миллий ун-ти. – Утв.29.03.2004; К16.01.04-16145/08. – Т.,2003.

2.8. Мойре А. Какую систему пенсионного обеспечения предпочесть (опыт Германии). // Человек и труд. - №2. - 2009.

2.9. О пенсионном обеспечении в странах Содружества // Общество и экономика. № 2. 2010.

2.10. Умурзаков Б.Х., Пенсионная система и её реформирование в условиях углубления рыночных отношений в экономике: Дис.док.экон.наук : 08.00.10/ Б.Х. Умурзаков; Филиал Российской экономической академии им.Г.В.Плеханова в г.Ташкенте. – Утв.911./2.2007; Д.23.03.07-20479/035/08. – Ташкент, 2007.

III. Фойдаланилган бошқа адабиётлар.

3.1. Williams M. Government: Cash Management Its Interaction with Other Financial Policies. International Monetare Fund Fiscal Attairs Department Technical Guidance Note. 2010. -2011 p.

3.2. Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. (Public Administration and Public Policy) 0th Edition . USA: Publisher: Auerbach Publications (August 21, 2008)

3.2. Вахабов Д.Р. Жаҳон пенсия тизимининг асосий йўналишлари // Миллий иқтисодиётни модернизациялаш шароитида инновацион фаолиятни инвестициялаш. Халқаро илмий-амалий конференция тезислар тўплами.– Тошкент, 2010. – Б. 241-244.

3.3. Кадомцева СВ. Государственные финансы. Учебное пособие.- М.: «ИНФРА -М». 2010. -352 с.

3.4. Мощенский С.З. Рынок ценных бумаг: трансформационные процессы. Учебное пособие. -М.: «Экономика». 2010. -235стр.

3.5. Нещитой А.С. Бюджетная система Российской Федерации. Учебник. М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и К». 2012. - 336 с

3.6. www.lex.uz Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари миллий базаси.

- 3.7. www.treasury.uz Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги Ғазначилиги.
- 3.8. www.gov.uz Ўзбекистон Республикасининг Ҳукумат портали.
- 3.9. www.inf.uz Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги.
- 3.10. www.stat.uz Ўзбекистон республикаси Давлат Статистикаси Қўмитаси.
- 3.11. <http://www.soliq.uz/> Ўзбекистон Республикасининг Давлат солиқ Қўмитаси.
- 3.12. <http://www.xb.uz> Ҳалқ банки.
- 3.13. http://chelt.ru/2010/8-10/tabah_8-1_Q.html Табах А. Внедрение накопительных пенсионных систем: зарубежный опыт.
- 3.14. www.wikipedia.ru Информацион портал, ОЭСР мамлакатлари маълумотлари.
- 3.15. www.iopsweb.org More information about pensions-related work is available at www.oecd.org/pensions.
- 3.16. <http://www.napf.ru> Национальная Ассоциация негосударственный пенсионных фондов.
- 3.17. <http://www.pfrf.ru> Пенсионный фонд Российской федерации.